

# TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYASI



**Sultanov K.E.**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**Sultanov X.E.**

**TASVIRIY SAN‘AT KOMPOZITSIYASI  
o‘quv qo‘llanma**



**70111201 – Tasviriy san‘at va amaliy bezak san‘ati mutaxassisligi  
bo‘yicha magistraturaga ta‘lim yo‘nalishi talabarlari uchun mo‘ljallangan**

**TOSHKENT-2023**

«Zebo Prints»

UO‘K

KBK

**Sultanov X.E./ Tasviriy san’at kompozitsiyasi / O’quv-qo’llanma –**  
Toshkent.: «Zebo Prints», 2023. - 124 bet

### **Annotatsiya**

“Tasviriy san’at kompozitsiyasi” nomli o’quv qo’llanma pedagogika oliy ta’lim muassasalarining 70111201 – Tasviriy san’at va amaliy bezak san’ati mutaxassisligi bo’yicha magistraturaga ta’lim yo’nalishi 1 - kurs talabalari uchun tuzilgan o’quv dasturi asosida yozilgan. Ushbu qo’llanma bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilarining tasviriy san’at fanlarining asosi bo’lgan kompozitsiya qonun-qoidalari haqida chuqur bilim berish hamda kasbiy malakalarini shakllantirish maqsadida yaratilgan.

O’quv vazifalar sifatida tavsiya etilayotgan ko’rsatmalardan foydalanish, ushbu fan bo’yicha qo’yiladigan talablar batafsil ifodalangan o’quv dasturini sinchiklab o’rganish bilan birga olib borilganda nisbatan yaxshi natijalarga erishish mumkin. Ayniqsa, bu rangtasvir kompozitsiyasi ishlashni o’rganish bo’yicha mustaqil vazifalar bajarishda juda qo’l keladi. O’quv qo’llanmada rangtasvirga tegishli Yevropalik mualliflar kitoblaridagi materiallardan unumli foydalanilgan hamda xorijiy rangtasvir ustalari tajribasi bo’yicha vazifalar kiritilgan.

ISBN

© Sultanov X.E., .2023

©«Zebo Prints», 2023

## **Аннотация**

Учебное пособие "Композиция изобразительного искусства" написано на основе образовательной программы для студентов 1 курса специальности 70111201 - изобразительное и декоративно-прикладное искусство магистратуры педагогических вузов. Данное пособие создано для углубленного изучения правил композиции, являющейся основой наук об изобразительном искусстве, и формированию профессиональных навыков у будущих учителей изобразительного искусства.

Использование рекомендуемых методических указаний в качестве учебных заданий, наряду с тщательным изучением учебного плана, где подробно изложены требования к предмету, позволяет добиться относительно неплохих результатов. Изучение композиции по живописи особенно полезна для самостоятельного выполнения заданий. В учебном пособии эффективно использованы материалы из книг европейских авторов, связанных с живописью, включены задания, основанные на опыте зарубежных живописцев.

## **Annotation**

The textbook "Composition of fine arts" was written on the basis of the educational program for 1st year students of the specialty 70111201 - fine and arts and crafts of the magistracy of pedagogical universities. This manual was created for an in-depth study of the rules of composition, which is the basis of the sciences of fine arts, and the formation of professional skills for future teachers of fine arts.

The use of the recommended guidelines as study tasks, along with a thorough study of the curriculum, which details the requirements for the subject, allows you to achieve relatively good results. The study of composition by painting is especially useful for self-completion of assignments. The textbook effectively uses materials from the books of European authors related to painting, includes assignments based on the experience of foreign painters.

## **МУҲДАРИЖА**

Kompozitsiya fanining qisqa rivojlanish tarixi .....	8
Rafael Santi ijodi .....	16
Paolo Veroneze ijodi .....	19
A. Dyurerning kompozitsiya fani rivojidadagi o‘rni .....	24
SHARQ MINIATYURA ASARLARI AN‘ANALARINI QO‘LLAGAN TARZDA KOMPOZITSIYA YARATISH.....	34
Sharq musavvirlarining jahon tasviriy san‘atiga ta’siri K. Bexzod ijodi .....	34
O‘zbekistonda realistik rangtasvir rivojida A.N. Volkovning o‘rni .....	51
SHARQ MINIATYURA ASARLARI AN‘ANALARINI QO‘LLAGAN TARZDA KOMPOZITSIYA YARATISH.....	58
Musavvir Chingiz Axmarov .....	58
O‘ZBEKISTON TASVIRIY SAN‘ATIDA DAVR IFODASI.....	65
B.Jalolov ijodi .....	65
BIR YOKI BIR NECHA KISHILAR ISHTIROK ETGAN MAVZULI KOMPOZITSIYA ISHLASH .....	73
O‘TILGAN MAVZULAR BO‘YICHA TEST SAVOLLARI .....	88
ILOVALAR.....	111
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....	119

## KIRISH

Bugungi yuksak texnologiyalar asrida yoshlarning innovatsion tafakkuri, bozor iqtisodi talabalariga mos ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularning axloqiy tarbiyasi, ma'naviy immunitetini kuchaytirish, dunyoqarashi, inson ongining oliy ko'rinishi bo'lgan intellektual-ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish muammosi kun sayin dolzarblashib bormoqda. Ta'limni rivojlantirmasdan, oldinga qo'yilgan maqsadga erishish, jamiyat va inson taqdiri bilan bog'liq dolzarb g'oyalarni amalga oshirish mumkin emas. Mamlakatimizda amaliyotga joriy etilayotgan ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan hujjatlarning barchasida sohaga innovatsiyalarni kiritish, xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog'liq umumiy jihatlar mavjud<sup>1</sup>. Bugungi innovatsiyalar asrida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalari taraqqiyotida tasviriy san'at ta'limining ham alohida o'rni bor. Yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, ulardagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga nisbatan g'ururi va dunyoqarashini shakllantirish, ulardagi mehnatsevarlik hamda axloqiy fazilatlarini tarbiyalashda tasviriy san'at ta'limining ahamiyati juda katta. Insonning estetik didi, ijodiy tasavvuri, badiiy tafakkuri va hissiyotlarini tarbiyalashda tasviriy san'at fanining imkoniyatlaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Globallashtirish va axborot manbaalarining ta'siri kuchaygan davrda uzluksiz ta'lim tizimida ushbu fanning ahamiyati va yoshlar ta'lim-tarbiyasidagi zarurati yanada ortmoqda. Tasviriy san'at ta'limiga klaster yondashuvini tatbiq etish orqali talabalardagi ijodiy va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlariga faollashtirish, ulardagi tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirish<sup>2</sup> bugungi kun uchun o'ta muhim vazifa sanaladi. Mana shunday innovatsion yondashuvga

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. // Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгилашни сари. – Т.: Фафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019-йил 8-октябрдаги ПФ-5847-сон Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030-йилгача ривожлантириш концепцияси // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019-й., 06/19/5847/3887-сон; 30.04.2020-й., 06/20/5987/0521-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.11.2021-й., 06/21/3/1037-сон, 18.03.2022-й., 06/22/89/0227-сон.

integratsiya va uzviylikni ta'minlash orqali talabalar bilan olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish<sup>3</sup> vositasida ta'limda, jumladan, tasviriy san'at ta'limida yuqori sifat va samaradorlikka erishish omili sifatida qarash mumkin.

Ushbu o'quv qo'llanma pedagogika oliy ta'lim muassasalarining 70111201 - Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati mutaxassisligi bo'yicha magistraturaga ta'lim yo'nalishi 1 - kurs talabarlari uchun tuzilgan o'quv dasturi asosida yozilgan bo'lib, undan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabarlari ham foydalanishlari mumkin. Unda kompozitsiya fanining qisqa rivojlanish tarixi, sharq musavvirlarining jahon tasviriy san'atiga ta'siri, O'zbekistonda realistik rangtasvir san'atining rivojlanishi, Sharq miniatyura asarlari va milliy an'analarini qo'llagan tarzda kompozitsiya yaratish usullari, xorijiy va milliy rangtasvir asarlarini badiiy tahlil qilish yo'llari yoritib berilgan. Undan tashqari, Sharq miniatyura asarlari yaratish an'analarini qo'llagan holda bir yoki bir necha kishilar ishtirok etgan mavzuli kompozitsiya ishlash hamda natyurmort kompozitsiyasini amalda bajarish haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Qo'llanma bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining tasviriy san'at fanlarining asosi bo'lgan kompozitsiya qonun-qoidalari haqida chuqur bilim berish hamda kasbiy malakalarini shakllantirish maqsadida yaratilgan. Shuningdek, qo'llanmaning vazifasi talabalarini tasviriy san'at kompozitsiyasi yaratish texnikasining nazariy va metodik asoslari bilan tanishtirishdan iborat. Ma'lumki, har qanday fanning nazariy tomonlarini o'zlashtirish uning o'ziga xos xususiyatlarini sinchiklab o'rganishni talab qiladi.

Ushbu kitob tasviriy san'atda kompozitsiya yaratish jarayonining nazariy jihatlarini o'rganish, san'at asarlarini kompozitsion tahlil qilish, amalda rangtasvir kompozitsiyalari bajarishda uchraydigan ilk qiyinchiliklarni bartaraf qilishga yordam beradi. Rangtasvir mashg'ulotlari orqali yosh rassom pedagoglar atrof-

---

<sup>3</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son

muhit, borliqni kuzatish, idrok etish, tahlil qilib to'g'ri tasvirlashni o'rganishadi. Qo'llanmaning ilova qismida chet el va milliy rassomlik maktablariga tegishli taniqli rassomlar asarlari hamda ChDPU "Tasviriy san'at" yo'nalishi talabalari va ijodkor o'qituvchilar tomonidan bajarilgan rangtasvir kompozitsiyasi namunalaridan iborat ijodiy ishlar ko'rgazmali qurol sifatida kiritilgan. keltirilgan.

Shu paytgacha xorijiy adabiyotlarni o'rganib, uni milliy tasviriy san'at an'analari bilan uyg'unlashtirib o'zbek tilida Pedagogika oliy o'quv yurtlari 70111201 – Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati mutaxassisligi bo'yicha magistraturaga ta'lim yo'nalishi talabalari uchun yozilgan "Tasviriy san'at kompozitsiyasi" qo'llanmalari mavjud emas edi. Ushbu qo'llanma esa xorijiy tajribalarga katta e'tibor qaratilib, chet el adabiyotlaridan keng foydalanilgan holda yaratildi. Bu bo'lajak rassom pedagog kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan tasviriy san'at fanlarining asosi bo'lgan kompozitsiya qonun-qoidalari haqidagi bilimlarni o'zlashtirish hamda kasbiy malakalarini shakllantirishda zarur metodik qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, ijodiy va kasbiy mahorat nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, tinimsiz o'z ustida ishlashi, doimiy amaliy mashqlar bajarishi, turli ashyolarda va rangda har xil tajribalar o'tkazib turishi jarayonida o'sib boradi. kompozitsiyasini o'rganmoqchi bo'lsa, u. Amaliy mashqlar maqsadga erishishning eng to'g'ri yo'li bo'lsa, kitob esa undagi harakatlarni boshqaruvchi yo'l ko'rsatuvchi mayoq hisoblanadi.



# KOMPOZITSIYA FANINING RIVOJLANISH TARIXINI O'RGANISH

## Kompozitsiya fanining qisqa rivojlanish tarixi

**Tayanch iboralar:** *Kompozitsiya, eskiz, qoralama, dalvarzintepa, antik san'at, ellinizm, Rafael Santi, Paolo Veronese, Dyurer.*

Inson har doim jamiyatda o'z o'rnini bo'lishini hohlaydi, atrofdagilarga o'z iqtidori va imkoniyatlarini namoyon qilishga muhtojlik sezadi. Qadim zamonlarda, inson mehnat qurollarini ixtiro qilishi bilanoq, u atrofdagi hayotiy voqealiklar, hodisalar va tabiat go'zalliklaidan ta'sirlangan va o'zini hayajonlantirgan va hayratga solgan narsalarni tasvirlashni (chizishni) boshlagan. Insoniyat yaratilgandan buyon hayotda ko'rgan go'zalliklarni suratlarda ifodalashga bo'lgan qiziqish juda kuchli bo'lgan. Chunki, bu faoliyat ibtidoiy davr odamlariga o'zaro muloqot qilish, so'zlashish uchun ham zarur bo'lgan.

Kuzatuvchanlik va ko'rish, eslab qolish xotirasining kuchliligi, rassom uchun muhim fazilatlardan hisoblanadi. Qadimgi inson zo'r ovchi bo'lish bilan birga, tabiatdagi juda nozik jihatlarni kuzatgan va go'zalliklarini his qilgan, shuning uchun biz chizilgan tasvirlardagi obrazlarni osongina taniy olamiz. Ovchilik bilan shug'ullanib kelgan qadimgi odamlar hayvonlarning o'ziga xos xususiyatlari va anatomik shakliy jihatlarni sinchiklab o'rganib, tik qoya va g'orlarda ularning turli tasvirlarini chizish orqali atrof-muhitga nisbatan o'z munosabatini bildirib kelgan. Turli hududlardagi arxeologik qazishmalardan topilgan, tosh qoyalarda saqlanib qolgan - hayvonlar, insonlar faoliyati, ov manzaralari, o'simliklar va boshqa narsalarning yorqin tasvirlari bu fikrimizni tasdiqlaydi. Ularda ba'zi elementlarining juda sodda ko'rinishi bilan birga, kompozitsiyadagi o'zaro munosabatlarning uyg'unligi, nisbatlarning to'g'ri olinishi hamda tasvirlarning haqqoniyligi saqlaganligini his qilish mumkin. Bu suratlarning asosiy ko'pchiligi karkidon, mamont, bizon va boshqa yirik o'txo'rlarning tasviri<sup>4</sup>dan iborat ekanligini ko'ramiz.

---

<sup>4</sup> Руднев, Иван Юрьевич Композиция в изобразительном искусстве. Монография – М.: Мир науки, 2019. – ст. -9. Источник : <http://izd-mn.com/PDF/09MNNPM19.pdf>

Qadimgi rassomlarning toshlarga ishlangan rasmlarini zamonaviy ijodkorlarning kuzatishlari asosida tasavvur va xotiradan bajarilgan kompozitsion eskizlari bilan tenglashtirishimiz mumkin.

Qadimgi dunyo san'ati tarixi yer yuzida quldorlik davlatlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi davridagi san'atni o'rganadi va tahlil qiladi. Qadimgi davlatlar dastlab Yefrat, Tigr, Nil, Ind, Gang, Xuanxe, Yanszi, Qizil irmoq daryolari yoqalarida, keyinroq, Yevropaning janubiy tomonlarida, Bolqon va Apennin yarim orollarida paydo bo'lgan. Bu davrga kelib aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajraldi. Dehqonchilik, chorvachilik, savdo - sotiq, xunarmandchilik, san'at rivojlandi. Bu esa, o'z navbatida, inson manaviy dunyoqarashining rivojlanishi, jumladan, tasviriy san'atning ravnaqiga katta turtki berdi.

Jamiyatda inson ijtimoiy hayotidagi ongli rivojlanishi ta'sirida tasviriy san'atda kompozitsiyaning yangi usullari dastlab Qadimgi Misrda paydo bo'lganligi qayd etiladi. O'sha paytdan rassomlar tabiatdagi o'simliklar, undagi barg va gullarning tuzilishidagi qonuniyatlarini yaxshi anglay boshlashgan, o'z ijodiy asarlarida, kompozitsiyada simmetriya va ritm tushunchalarini qo'llay boshladilar. Vaqt o'tishi bilan insondagi tasvirlash qobiliyatlarining rivojlanishi natijasida ularning suratlarida keyinchalik har xil ov manzaralari ham o'z aksini topa boshlagan. Bunga misol tariqasida bizning hududimizda joylashgan Zaravut-kamar (Surxandaryo) g'oridan topilgan odamlarning yovvoyi buqaga tosh va nayzalar otib, tik qoyadan pastga tushirib yuborishi tasvirlangan suratni ham keltirish mumkin. (1-rasm). Tasvirlar juda sodda bo'lishiga qaramasdan aytish mumkinki, ulardagi voqealarning hayotiy ko'rinish holatlari kishini lol qoldiradi.

Tasviriy san'atning asosiy atamalaridan biri sifatida "kompozitsiya" so'zi Uyg'onish davridan boshlab muntazam ravishda ishlatilib kelinmoqda. Asarni idrok etish ko'p jihatdan uning kompozitsiyasiga bog'liq. Badiiy faoliyatda asar yaratish jarayonini kompozitsiya tuzish, syujetni bir tizimga yig'ish deb atash mumkin. Kompozitsiya - bu badiiy shaklni mujassamlashtiradigan, asarga birdamlik va yaxlitlik beruvchi, rassom foyasi elementlarini bir-biriga jipslashtiruvchi vosita

bo‘lib, prinsip jihatidan xuddi daraxt tanasi ko‘rinishiga o‘xshaydi. U umumiy tasvir shaklining ildizlari va shoxlarini organik ravishda bog‘laydi, uning elementlarini bir-biriga uyg‘unlashtiradi va butun kompozitsiyaga bo‘ysundiradi.



*Toshga chizilgan suratlardan namunalar (Toshkent viloyati hududida).*

Tasvirlash - bu qismlar orasidagi munosabatlarni o‘rnatish, ularni bir butunga bog‘lash va umumlashtirish degan ma‘noni anglatadi. Ba‘zan "kompozitsiya" so‘zi kartinani aniq g‘oyaviy birligi bo‘lgan bir butun organik qurilma sifatida ifodalaydi va bu holda surat, rang va syujet bir maqsad yo‘lida birlashtirilganligini anglatadi. Bunday holda, rasmning qaysi janrga mansubligi va qanday uslubda bajarilishi muhim emas, u tugatilgan badiiy asar sifatida "kompozitsiya" deb ataladi. Kompozitsiya tushunchasi nafaqat katta, tugallanagan asarlarga tegishli. Kichkina eskiz yoki qoramalar ham o‘zida boshlang‘ich kompozitsion mazmunga ega bo‘lishi kerak.

Erta Uyg‘onish davrini vakillari bo‘lgan Djotto va Mazachcho kompozitsiyalarida perspektiva, plastik anatomiya, geometriya qonunlarini yaxshi bilgani va uni amalda ko‘p qo‘llaganini ko‘rish mumkin.

Uyg‘onish davrigacha tasviriy san‘at tarixida kompozitsiya faniga bag‘ishlangan alohida nazariy qo‘llanma yaratilmagan edi. Yuqori Uyg‘onish davriga mansub

rassomlar sanʼat va fanning xilma-xil turlarini bir-biri bilan bogʻlab, uning nazariyasini ilmiy asoslagan holda rivojlantirdilar. Ular perspektiva yordamida kartinada chuqurlik, masofani tasvirini haqqoniy namoyon etishga erishishdi.

Italyan rassomi Alberti tasviriy sanʼat asarlarini koʻp yillik kuzatish, koʻzga koʻringan rassomlarning asarlarini sinchiklab oʻrganish va tahlil qilish natijasida gʻoyaviy tuzilishi, rang yechimidagi uslub, rangtasvir ishlashdagi amaliy tajribalarini umumlashtirdi. Ushbu manbaalarga tayanib 1435 yilda uch kitobdan iborat “Rangtasvir haqida traktat” deb nomlangan ilmiy nazariy asarini<sup>5</sup> yaratdi. Leonardo da Vinchi va Alberti oʻz yozma asarlari hamda badiiy kartinalarida kompozitsiyadagi statik holat (harakatsiz) va dinamika (harakat)ga alohida ahamiyat berganligini koʻrishimiz mumkin. Fransiyalik rassom E. Delakrua oʻz tadqiqotlarida Leonardo da Vinchi, A. Dyurer, P. Rubenslarning kompozitsiyaga oid taʼlimotlarini yanada kengaytirib uni chuqur mazmun bilan boyitishga erishdi<sup>6</sup>.

Mustaqil kompozitsiya ishlaganda talabalar oʻz asarining mazmun va gʻoyasini toʻliq ifodalashi uchun sxematik xususiyatiga koʻra ochiq va yopiq kompozitsiya koʻrinishlaridan ham foydalanishadi. Rassom rejalashtirgan mavzu boʻyicha asosiy element yoki obyekt kartinada alohida ajralib tomoshabin eʼtiborini oʻziga jalb qilishi yopiq kompozitsiyaga xosdir. Asosiy urgʻu berilgan element yoki alohida obyekt koʻpincha kartinaning burchaklari yoki chetida emas, balki kompozitsiyaning markaziga yaqinroq qismida joylashgan boʻladi. Yopiq kompozitsiyada tomoshabinning nigohini kompozitsiyaning asosiy gʻoyasiga olib boradi, undan boshqa boʻlaklariga oʻtadi va ular orqali eʼtiborni yana kartina markaziga qarab yoʻnaltiradi.

Boshqacha qilib aytganda, kartinaga qarayotgan tomoshabin nigohi kompozitsiyaning istalgan joyidan beixtiyor uning markaziga qarab intiladi. Uning oʻziga xos xususiyati - tomoshabinning diqqat-eʼtiborini belgilangan ramkadan tashqariga chiqarmaydi. Voqelikni aynan manu shu kartina ichidan qidiradi. Yopiq

---

<sup>5</sup> <http://www.binetti.ru/content/1072#:~:>

<sup>6</sup> Maxmudov M.J. Kompozitsiyaning tarixi va rivojlanishi / Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 12 | 2022. – 403-404 b.

kompozitsiya - turg'unlik va barqarorlikni ifodalashga yordam beradi. Kompozitsiyada simmetriyaga asoslangan doira, kvadrat, to'rtburchak, mexrobiy shakllardan foydalanish ushbu vazifa yechimini osonlashtiradi. Ushbu kompozitsiyada ko'pincha turg'unlik va barqarorlik holatini kuzatamiz, bu asosan tugallangan kartinalarga tegishli. (2-rasm). Tomoshabinning e'tiboriga tushadigan va uning nigohini kartinadagi bir elementdan ikkinchisiga yo'naltiradigan ko'plab chiziqlar, shakllar va elementlar mavjud ekan, tasvirda albatta dinamik harakat bo'ladi. Ochiq kompozitsiya esa shunday qurilganki, unda inson nigohi tasvir joylashgan hududni idrok etish bilan cheklanib qolmaydi, balki, inson idrokini kartina tashqarisiga yo'naltirib, inson tafakkuri chegaralarini kengaytiradi, tomashabin beixtiyor tasvir tugagan joydan keyingi ko'rinishni tasavvur qilishga intiladi. Kartina kompozitsiyadagi tasvir tugagan joyda tomashabin nigohi, tasavvuri va fikriy harakatini sekinlashtiradigan yoki to'xtatadigan kontrast rang-tuslar bo'lmaydi. (3-rasm).



*Rafael Santi. Sikstin madonnasi. Ochiq kompozitsiyaga misol*

Albatta, ijodiy ishlash jarayonida ushbu kompozitsion tuzilishi ahamiyatini haddan oshirib, uni murakkablashtirib yuborilmaslik kerak. G‘oyani oldinga surgan rassom yaratiladigan rangtasvir asarida o‘zining obrazli-tasvirlash ko‘nikmalari va badiiy tasavvuriga tayanadi. Ammo, kompozitsiya asoslarini o‘rganish davrida bunday kompozitsiya qoidalariga asoslangan tizimdan foydalanish juda foydali, chunki ular tasvirning turli qismlaridagi nisbatlarini topishga, kompozitsiyaning umumiy tuzilishini tushunishga yordam beradi. Asta-sekin, tajriba orttirish bilan siz kompozitsion sxemalarni mantiqiy anglab yetishni o‘rganishingiz mumkin. Istalgan joyda topish mumkin bo‘lgan tasodifiy nuqtalar, chiziqlar va dog‘larning xaotik

"chalkashliklari" kabi tasvirlarda kompozitsiya mavjud. Mazmun o'ylangan, lekin, shu bilan birga shaklan, rang jihatdan bir xil bo'lgan juda oddiy tasvirlarda ham kompozitsiyani kuzatish mumkin. Aynan kompozitsiya tomshabinning obrazni idrok etishiga ta'sir qiladi va badiiy asar bilan idrok etuvchi o'rtasida psixologik ko'prik yaratadi. Tasviriy san'atdagi kompozitsiyaning ahamiyatini rangtasvir asarlari misolida yaxshiroq anglash mumkin, chunki aynan rangtasvirda bu tushuncha hajmdor va ko'p qirrali ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bunday kompozitsiyani shartli ravishda quyidagi bir nechta ichki qismlarga bo'lish mumkin:



*Gregori Frank Xarris. Plyajda. Yopiq kompozitsiyaga misol*

1. Geometrik kompozitsiya.
2. Fazoviy kompozitsiya.
3. Ranglar kompozitsiyasi.

Geometrik kompozitsiya to'g'ridan-to'g'ri tasvir tekisligiga joylashganda bitta umumiy konturni yaratadi va shu bilan birga har bir ob'ekt o'ziga xos geometrik

shakl sifatida talqin qilinadi. U alohida rangga, o'zining yoritilgan joylari, o'ziga xos shaxsiy va tushayotgan soyalardan iborat mustaqil ravishda "o'qiladigan" narsalarning geometrik shakllarini o'z ichiga oladi. Fazoviy kompozitsiya - bu kompozitsiyaning geometrik va fazoviy qurilishini birlashtiruvchi ob'ektlarning uzoqlashishi yoki yaqinlashishini hisobga olgan holda, to'g'ridan-to'g'ri tekislikka o'tkaziladigan ob'ektlarning fazodagi geometrik joylashuvi (haqiqiy yoki shartli)ni ifodalaydi.

Rangli kompozitsiya ob'ektlarning rangini, fazoviy joylashishini, ranglarning to'yinganligi va rang intensivligini hisobga olgan holda bir-biriga nisbatan joylashishini belgilaydi. Uchala komponent birgalikda asarning umumiy kompozitsiyasini tashkil yetadi va ular bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

### **Mustaqil ish uchun vazifa.**

Tasviriy san'at kompozitsiyasi fanining qisqa rivojlanish tarixiga oid adabiyotlarni o'rganish.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Kompozitsiya atamasi qaysi davrdan buyon ishlatib kelinadi?
2. Kompozitsiya so'zining mazmuni nima?
3. Italyan rassomi Alberti uch kitobdan iborat "Rangtasvir haqida traktat" deb nomlangan ilmiy nazariy asarini qachon yaratdi?
4. Yopiq kompozitsiya mazmunini ayting.
5. Ochiq kompozitsiya deb qanday kompozitsiyaga aytiladi?
6. Kompozitsiya shartli ravishda nechta ichki qismga bo'lish mumkin?
7. Geometrik kompozitsiya deganda nimani tushunasiz?
8. Fazoviy kompozitsiya mazmunini ayting
9. Ranglar kompozitsiyasi debnimaga aytiladi?
10. Geometrik va fazoviy kompozitsiyaning asosiy farqlari nimada?
11. Mashhur rassomlar ishlaridan ochiq va yopiq kompozitsiyalarga misollar ayting.



## Rafael Santi ijodi

Rafael Santi - Uyg'onish davri ijodkorlarining ko'zga ko'ringan vakili, buyuk italyan rassomi hisoblanadi. Shu bilan birga o'sha davr musavvirlari kabi haykaltaroshlik va me'morchilik sohasida ham o'z mahoratini ko'rsatdi. Xudo onasining bir necha o'nlab tasvirlari muallifi, shu jumladan mashhur "Sistine Madonna".

Aynan Uyg'onish davri jahonga mashhur tasviriy san'at, arxitektura va grafika sohasida juda ko'plab ajoyib ijodkorlarini yetishtirib berdi. Bu davrda Umbrian va Rim maktablarida ijodiy faoliyat gullab yashnadi, rassom Rafael Santi xuddi shu davrda yashab ijod qildi va o'zining ijodiy salohiyati bilan Uyg'onish davri daholari safini kengaytirdi. Uning Uyg'onish davrining mohiyatini aks ettirgan rasmlari insoniyatning o'rta asrlardan ma'rifat va yangi davrga o'tish timsoliga aylandi<sup>7</sup>.

Leonardo da Vinchining zamondoshi yosh rassom Rafael o'zidan olding ijod qilgan musavvirilar ijodidagi yutuqlarini sinchiklab o'rgandi. Ulug'vor me'morchilik yoki manzara ko'rinishlari bilan boyitilgan go'zal, barkamol inson obrazini yaratishga harakat qildi. Uning asarlarida asosan beg'ubor bolalar qurshovidagi go'zal va sarvqomat Madonna obrazlarining tasvirlanganligini ko'ramiz. Inson go'zalligini tarannum etadigan nozik chizgilar va yumshoq rang-tuslar bilan to'la Rafael Santining kartinalari Uyg'onish davri ruhiy dunyosini, mukammallikka erishish g'oyasini aks ettiradi. Italiyaning eng taniqli rassomlaridan biri o'z asarlarida gumanizmning barcha ideallarini o'zida mujassam etgan va uning xolstlari deyarli dunyoda mashhur bo'lib ketishiga sabab bo'ldi.

Rafael Santi 1483 yilda Italiyaning Urbino shahrida tug'ilgan. Uning otasi gersog saroyining rassomi bo'lgan va ko'pincha o'g'lini o'zi bilan qal'aga olib brogan yurishiga to'g'ri kelgan. Saroy devorlarini bezatishda uning otasidan tashqari, o'sha paytdagi mashhur rassomlar ham qatnashgan va bola ko'p martalab musavvirlarning yengil mo'yqalam yurgizishlariga mahliyo bo'lib, ularning harakatini zo'r qiziqish va hayajon bilan kuzatgan. Rangtasvir ishlashdagi birinchi

---

<sup>7</sup> <https://biographe.ru/znamenitosti/raffaello-sanzio>.

qadamlardan otasi uning mahorat jihatidan tez orada saroyda ishlayotgan barcha rassomlardan o‘zib ketishini tushunib yetdi - aslida ham xuddi shunday bo‘lib chiqdi. Bola 8 yoshga to‘lganda onasi vafot etdi. O‘zi uchun eng yaqin va mehribon insonidan ajralish yosh rassomning ijodiy ishiga katta ta’sir ko‘rsatdi – shundan bo‘lsa kerak, asarlarida ko‘plab ayol obrazlari va Madonna tasvirlari uning ona mehriga to‘ymaganligi haqida gapirganday tuyuladi. Otasi vafot etganda, Rafael 12 yoshda edi. Yetim qolgan o‘smir rassom Petro Perudjino ustaxonasiga tayinlangan, u yerda ustozlarining tajribasini zo‘r yutoqish bilan o‘zlashtirgan. Ustozi orqasidan iste’dodli rassom o‘sha davrda Uyg‘onish davri beshigi hisoblangan Florensiyaga ko‘chib o‘tdi.



*“Afina maktabi”*

Rafaelning Florensiyadagi hayoti va faoliyati butun dunyoga har biri o‘ziga xos bo‘lgan, bolalariga mehr ko‘rsatayotgan syujetlari bilan ajralib turadigan mashhur Madonnalar va chaqaloqlar obrazini berdi. Florensiyadagi faoliyati uning ijodiga katta ijobiy o‘zgarishlar olib kirdi. Bu yerda Santi Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo,

Bramante va boshqa taniqli ustalar bilan uchrashadi. U ushbu rassomlar chizish texnikasini o'zlashtiradi va hatto Da Vinchining "Leda va oqqush" asarining nusxasini yaratadi - keyinchalik asl nusxasi yo'qoladi. Uning mashhurligi o'sib boradi, musavvir o'z uslubiga ega bo'lib boradi va asosan Bibliya mavzulariga oid bo'lgan ko'plab buyurtmalarni oladi. 1508 yilda Bramantening yordami bilan u Rimga ko'chib o'tdi va papa saroyining rasmiy rassomi darajasiga erishadi. Papa Yuliy II Rafaelning eskizlarini ko'rib juda xursand bo'ldi va unga Vatikan saroyining tantanalar o'tkaziladigan binolarini bezashni buyuradi.

Vatikan saroyidagi eng ta'sirli asarlardan biri "Afina maktabi" hamda "Falsafiy suhbatlar"dir. 50 ga yaqin mutafakkirlar obrazida Da Vinchi, Mikelanjelo, Bramante va Rafaelning qiyofalari va o'ziga xos xususiyatlarini osongina payqash mumkin. Shuningdek, uning eng mashhur asalaridan biri "Sikstin Madonnasi" asari ham Rimda ishlangan, u hozirda Drezden galereyasida saqlanadi. Asarda farishtalar qurshovidagi Maryam chaqaloq Isoni bag'riga bosib tushib kelmoqda - pastda uni Papa Sikst II va Avliyo Barbara kutib olayotgani tasvirlangan. Mulohazakor farishtalar Uyg'onish davrining deyarli eng ko'p takrorlangan qiyofasiga aylanib, tasviriy san'atda o'zlarining alohida o'rniga ega bo'lishdi. Rafael Santining asarlarida Uyg'onish davri gumanizmining eng yorqin va eng yuksak g'oyalarini to'liq o'zida mujassam etgan<sup>8</sup>.

Rafael Santi hayotlik davrida alohida hurmatga sazovor bo'lgan noyob rassomlardan biri edi. Italiyaliklar talantli rassomlarni fransuzlar o'ziga og'dirib olishdan cho'chib, ular uchun to'lovlarni tejashmadi. Maestro noto'g'ri davolash tufayli erta vafot etdi. Italiya o'z iqtidorli farzandining merosini katta g'urur bilan saqlab qoldi. Rim panteonidagi uning qabrida "Bu yerda buyuk Rafael yotibdi, hayoti davomida tabiat undan mag'lub bo'lishdan qo'rqardi va uning o'limidan keyin u o'zining o'limidan qo'rqardi" degan so'zlar o'yib yozilgan.

### ***Mavzu bo'yicha savollar:***

---

<sup>8</sup> <https://allpainters.ru/santi-rafajel.html>

1. Rafael Santining Uyg'onish davrining mohiyatini aks ettirgan rasmlari o'rta asrlarda qanday timsolga aylandi?
2. Rafael Santi o'z asarlarida qanday g'oyalarni oldinga suradi?
3. Florensiyadagi hayoti va faoliyati Rafael ijodiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
4. Rafaelning Vatikan saroyidagi eng ta'sirli asarlari qaysi?
5. Rafaelning "Sikstin Madonnasi" asari qaerda saqlanadi?

### **Paolo Veroneze ijodi**

Paolo Veroneze - Italiyada Uyg'onish davri badiiy madaniyatining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan Venetsiya rassomlari qatoriga kiradi.

Dengiz bo'yida joylashgan Venetsiya o'ta nam iqlimga ega, bu rassomlar uchun rangtasvirda freska ishlash texnikasidan foydalanish imkoniyatini pasaytiradi. Shuning uchun ham Venetsiya rassomlari Italiyada birinchi bo'lib o'z asarlarida Gollandiyalik aka-uka rassom, Xubert va Yan van Eyklar ixtirosiga tegishli namga yangi, chidamli va yorqin moybo'yoqlardan foydalana boshlaganlar.

Tisiandan keyin rangtavir ishlash bo'yicha estafeta yosh musavvirlar, yetarli darajada mahoratga ega bo'lgan, sermahsul ijodkorlar - o'zining "So'nggi kechki ovqat", "Somon yo'lining kelib chiqishi", "Yakopo Sansovino portreti", "Avliyo Markning mo'jizasi", "Xochni ko'tarish". asarlari bilan mashhur bo'lgan Jakolo Robusti (Tintoretto nomi bilan yaxshi tanilgan) va Paola Veronezelar qo'liga o'tdi.

Paolo Veroneze (1528 yilda tug'ilgan - 1588 yil 19 aprelda vafot etgan) - 16 -asr Uyg'onish davrining mashhur italiyalik rassomi, ajoyib asarlari ibodatxonalar va cherkovlarning bezagiga aylandi. Paolo Veroneze ijodi zamondoshlarini befarq qoldirmadi va hanuzgacha san'at ixlosmandlarini hayratda qoldirib keladi. Uning kartinalari iliq, nozik ranglar ko'lami bilan to'yingan. Uning o'tkir g'oyalari jahon durdonalari ro'yxatiga kirgan nafis asarlarida mujassamlashgan. Rassom ajoyib asarlar bilan birga bir -birini uyg'un tarzda to'ldiruvchi ajoyib rangtasvir freskalarni ham yaratdi.

Paolo Veroneze 1528 yilda Italiyaning Verona shahrida tug'ilgan. Mana shundan kelib chiqib rassom o'z familiyasini qoldirgan holda tug'ilgan shahri nomidan


ilhomlanib ismini o'zgartirib Veroneze taxallusini oldi. Uning haqiqiy ismi Kalyari edi. Ijodkorlikka nisbatan qiziqishini uning bolalaigida haykaltarosh otasi uyg'otgan deyishadi. Yosh yigit ijodkorlikka yo'naltirilgan bilimlarni dastlab me'mor qo'lida oldi, lekin oxir -oqibat u bu mashg'ulot uning uchun emasligini tushunib yetdi. Keyin u amakisi rassom Antonio Badilega shogird tushdi va undan rangtasvir ishlash sirlarini o'rgandi.



*Paolo Veroneze. Avtoportret, taxminan 1558-1563 yillar*

1562-1563 yillar Paolo Veroneze 1553 yilda Venesiya dojlar saroyida suratlar chizganidan keyin mashhur bo'ldi. Biroz vaqt o'tgach, yosh rassom Marcian kutubxonasi devorlariga freskalar ishladi, bu uning muvaffaqiyatli ijodiy faoliyati uchun sharoit yaratdi. O'shandan keyin rassom zadogonlar uylari va saroylarni

bezash uchun ko‘plab buyurtmalar ola boshladi. 1555 yilda rassom yana Venesiyaga taklif qilindi. Endi u San -Sebastiano cherkovini bezatish sharafiga muyassar bo‘ldi. Rassom bitta uslub yoki janrda to‘xtamadi. 50 -yillarning oxirida u chiroyli portretlarni chizishni boshladi.



*Paolo Veroneze. Lukresia, taxminan 1580-1585 yillar*

1556 yilda Paolo Veroneze amakisi va o‘qituvchisi Antonio Badile qiziga uylandi. Ulardan to‘rt farzand tug‘ildi. Ustozning Bibliya motivlarini zamonaviy mavzular bilan birlashtirgan asarlari juda qat’iyatga boy edi. Asarlarda xushxabar hikoyalari qahramonlari ajoyib Venesiya liboslarida, dabdabali stollar fonida

tasvirlangan. Hayotni sevuvchi rassom bunday ijodkorlik qanday janjalga olib kelishi mumkinligini hatto tasavvur ham qilmagan.

Rassom diniy va dunyoviy ishlarga oid g'oyaviy obrazlarni nozik chiziqlar va yorqin, iliq ranglarda mohirona tasvirlay olgan. Portret rangtasviri ishlash borasida Paolo Veronese zamondoshi Tintoretto uslubiga yaqinlashadi, lekin, shu bilan birgalikda o'zining originalligi bilan ham ajralib turadi.

1560-yillarda uning ijodi gullab-yashnadi, ijodiy ishlarida esa dunyoviylik xususiyat o'z aksini topa boshladi. Endi muallif o'z asarlarida zamonaviy Venetsiya hayotidagi haqqoniy epizodlarni tasvirlashga harakat qiladi. Uning asosiy ko'pchilik asarlarida shaharning me'moriy ansambllari fon sifatida ishtirok etadi. Nafis ko'rinishdagi qimmatbaho zamonaviy liboslar kiygan, mag'rur, shu bilan birga nazokatli qahramonlar ishtirokidagi kompozitsiyada hayotdan zavqlanish va quvonch kayfiyati sezilib turadi.

1573 yilda rassom Muqaddas inkvizitsiya sudi tomonidan kufirda ayblangan, biroq keyinchalik oqlangan. Ularning talabi bo'yicha ruhoniylarga yoqmagan "Oxirgi kechki ovqat" mavzusidagi asarini Veroneze qayta nomlashi kerak edi. O'sha davrda ruhoniylar kartinada oddiy odamlar, jangchilar va bolalarni tasvirlashga qarshi chiqishgan. Ular rassomdan kartinadagi tafsilotlarni o'zgartirib, ishni qayta tahrir qilishni talab qilishdi. Ammo asar muallifi bunga rozi bo'lmadi. Ijodkor uzoq tortishuvlardan keyin faqat asarga "Levilar uyidagi bayram" deb yangi nom berdi xolos. Bu kompozitsiya dastlab Santi Jovanni va Paolo sobori uchun buyurtma qilingan edi. Ilgari bu soborda (Titsian Vechellioning) "So'nngi kechki ovqat" asari bor edi, lekin ushbu asar olovda yonib ketganligi sababli veronezega mana shu mavzuda kartina chizish uchun taklif tushadi.

XVI asrning 80 -yillarida rassom asta-sekin kuchdan qola boshladi. 1583 yilda u umrining ko'p qismini o'tkazgan shahar Venesiyada ko'chmas mulk sotib olib, shu shaharga ko'chib o'tadi. Ammo rassom bu yerdagi hayoti davomida ham Veronani hech qachon unutmagan. Yangi uyida rassom xotini va bolalari bilan yana besh yil

yashadi. 1588 yil 19 aprelda Paolo Veroneze o'pka shamollashi oqibatida vafot etdi. Rassom o'zi bir vaqtlar rasm chizgan San -Sebastiano cherkoviga dafn qilindi.

Bir muncha vaqt o'tgach, uning o'g'illari ham, akasi ham rassomlar birlashmasini tashkil qilib, Paolo uslubida rasmlar chiza boshlashdi. Ammo ular uning muvaffaqiyatini takrorlay olmadilar. Paolo Veronezening asosiy kompozitsiyalari bibliya mavzusiga bag'ishlangan edi, lekin talqini bo'yicha rassomning mifologik mavzudagi asarlari ham tomashabin uchun juda qiziqarli. Veronezening eng yaxshi asarlaridan biri: "Galileya Kanidagi nikoh" (1562-1563) - xuddi shu nomdagi Bibliyada keltirilgan hikoya asosida ishlangan. Venera va Mars (1570 -yillar) asari Ovid metamorfozalariga asoslangan bo'lib, unda Rim ma'budasi Venera va urush xudosi Marsning sevgi afsonalari o'z aksini topgan.



*Paolo Veroneze. Venera va Mars, 1570 -yillar*

1. Paolo Veroneze qaysi mamalakat rassomi sanaladi?
2. Veronezening asl ismi kim edi?



3. Paolo Veroneze qachon va qaysi saroyda surat chizganligi uchun mashhur bo'lib ketdi?

4. 1560-yillarda Veronezening ijodida qanday o'zgarishlar bo'ldi?

5. "Oxirgi kechki ovqat" mavzusidagi asarini Veroneze qanday nomlashga majbur bo'ldi?

### **A. Dyurerning kompozitsiya fani rivojida o'rni**

Dyurerning kar'erasi Germaniyaning Uyg'onish davri eng cho'qqi nuqtaga chiqqan paytiga to'g'ri keldi, murakkab va isyonkor tabiati rassomning barcha san'at asarlarida o'zining ta'sirini ko'rsatdi. U tasviriy san'atda boy va o'ziga xos nemis badiiy an'alarini umumlashtiradi. Zamondoshlari asarlaridan farqli klassik go'zallik idealidan uzoq bo'lgan Dyurer kompozitsiyalarida mukammal o'ylangan, bosqichma-bosqich qat'iy qoidalar asosida tasvirlash ustunlik qilib, unda mayda tafsilotlarga katta e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, Dyurer uchun italyan san'atiga xos uyg'unlik va mukammallikka erishish maqsadi katta ahamiyatga ega edi. U Shimoliy Uyg'onish davrining yagona va mashhur vakili hisoblanadi. Musavvirda o'z davri uchun yangilik hisoblangan tasviriy san'at qonuniyatlari, aniq hisblarga asoslangan inson qiyofasining mukammal nisbatlari va perspektiv qurilish qoidalarini o'zlashtirishga bo'lgan istagi kuchli edi. Bu sifatlarni Italiya Uyg'onish davrining buyuk rassomlari qarashlari bilan solishtirish mumkin.

Dyurer rangtasvir, gravyura hamda grafika sohalarda teng darajada iqtidorli edi; chizmatasvir va gravyura uning ijodida katta, hattoki yetakchi o'rinni egallaganligini ko'rish mumkin. Mingga yaqin landshaftlar, portretlar, odamlar, hayvonlar va o'simliklarning eskizlaridan iborat (Yuliya Bartrum ma'lumotiga qaraganda 970 ta) Dyurerning rasmlari saqlanib qolgan. Uning ijodiy merosi, Yevropa san'ati tarixidagi eng yiriklaridan biri bo'lib, uning ijod namunalarini hajmi va ahamiyati jihatidan Leonardo da Vinchi va Rembrandt grafikasi bilan bir xil va faqat ularning merosi bilan solishtirish mumkin. Bu ishlardan ko'rinib turibdiki, rasm chizish rassomning kundalik hayotining bir qismi edi. Shogirdlik paytidagi asarlarining ham

saqlanib qolingani, ijodkor o'zi chizgan rasmlariga qanchalik ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lganining isboti bo'la oladi. Dyurer kompozitsiya, tafsilotlarni umumlashtirish, fazoviy perspektiva qurilishini o'rganish bilan tinimsiz shug'ullangan. Uning hayvonot dunyosi va botanikaga oid rasmlari yuqori mahorati, kuzatuvchanligi, tabiatshunos olimga xos tabiiy shakllarni aniq tasvirlashga sodiqligi bilan ajralib turadi. Ularning aksariyati puxta ishlab chiqilgan va tugallangan asarlarni ifodalaydi, shunga qaramay, o'sha davr rassomlari odatiga ko'ra, ular Dyurerning asosiy asarlariga yordamchi material bo'lib xizmat qilishgan. Dyurer butun materiallarini gravyura va rasmlarda ishlatgan, grafik asarlarning motivlarini bir necha bor takrorlagan. Shu bilan birga, G. Volfliin Dyurer o'zining rangtasvir asarlariga akvarelda manzara ko'rinishlari ishlashda qo'llagan innovatsion usullardan deyarli hech narsa o'tkazmaganligini ta'kidlaydi.

Dyurerning grafikasi turli materiallarda yaratilgan, u ko'pincha ularni aralashtirib ishlatgan. Nemis rassomlaridan biri bo'lib u italiyalik rassomlarning mo'yqalam va oq bo'yoqda rangli qog'ozga ishlash an'anasini ommalashtirishda xizmati katta bo'ldi.

U o'sha paytda ma'lum bo'lgan kumush igna, qamish perodan tortib italyan qalami, ko'mir va akvarelga qadar barcha grafik usullarni ajoyib tarzda o'zlashtirgan. Italiya ustalari singari, eskizlardan iborat kompozitsiyalarida unda ham bosh, qo'l, oyoq, mato burmalari plastikasini o'rganishga qaratilgan chizmatasvirlari ijodiy izlanishlarining eng muhim bosqichiga aylandi. Bundan dehqonlar, bashang kiyingan janoblar, Nyurnberg ayollarining go'zal, xarakterli chehralarini o'rganish uchun vosita sifatida foydalandi.

Uning mashhur akvarel bo'yog'ida ishlangan, "Quyvon" (1502) va "Bir to'p o'simlik" (1503) kompozitsiyalarida tasvirning deyarli mayda tafsilotlarigacha e'tibor qaratilganligini ko'ramiz. Bu suratlar shunchalik ishonch va sovuqqonlik bilan bajarilganki, ulardan ilmiy izlanish sifatida bema'lol foydalanish mumkin.



*A. Dyurer. Quyon. 1502 y.*

Dyurer XVI asrning birinchi yarmida nemis san'atining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Italiyada Dyurerning gravyuralari shu qadar mashhur bo'lib ketganki, hatto o'sha davrda uning ishlarining soxta namunalari ham ishlab chiqarila boshlagan; Uning ijodi ko'plab italiyalik rassomlar, shu jumladan Pontormo va Pordenone gravyuralariga to'g'ridan -to'g'ri ta'sir ko'rsatgan.

Zargar oilasida tug'ilgan iqtidorli Albrext otasini 15 yoshida o'zining rasm chizishga o'rganishga ishtiyoqi balandligiga ishontirishga muvaffaq bo'ldi va rassomga shogirdlikka berishini so'ragan. O'sha davrning yetakchi rassomi Mixael Volgemut ustaxonasida tasviriy san'at bilan shug'ullangan bo'lajak rassom "Nyurnberg yilnomasi"ning boshqa talabalari bilan birgalikda illyustratsiyalar chizishni o'zlashtirdi. Keyinchalik, tajribasi oshgan musavvir rassom sifatida shakllanishida o'z vatani Germaniyada unga yetarli imkoniyat yo'qligini tushundi. yangi narsalarni o'rganish uchun Italiyaga jo'nab ketdi.



*A. Dyurer. Avtoportret. 1500 yil.*

Gap shundaki, XVI asrga qadar Germaniyada rangtasvir san'at sifatida yuqori baholanmagan - faqat tarixiy, lekin asosan Bibliya mavzularidagi gravyurlar juda qadrlangan. Chunki ular yordamida o'qishni bilmaydiganlarga (bu davrda asosiy aholi qatlami savodsiz bo'lgan) Muqaddas Kitob mazmunini aynan shu tasvirlar orqali tushuntirish mumkin edi. Italiyaning iliq tabiatidagi yorqin ranglar va erkin fikr almashish sharoiti rassom o'zi uchun mutlaqo yangi va uzoq kutilgan erkin ijodkorlik muhitini yaratdi, yangi texnika va janrlarni o'rganish imkoniyatlari

ochildi. Albrecht o'zi tanlagan rivojlanish vektorida o'zini namoyon qilishi uchun atigi olti oy yetarli bo'ldi. Bir necha yil o'tgach, Nyurnbergda o'z ustaxonasini tashkil qilib, Dyurer yangi haqiqatlarni o'rganish va davom ettirish uchun Venesiyaga qaytib keldi.

Birinchi safari paytida u hali italiyalik rassomlarning ish usullari, ijodiy yutuqlarini to'liq idrok etmagan edi. Musavvirning asarlarida doimo boshqalarga o'xshamagan, o'z uslubi, ijodiy tafakkurini his qilish mumkin, lekin u safari natijasida boshqa rassomlardan o'zi uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni olgan edi. Mustaqil usta rassom unvoni (shu bilan birga o'z ustaxonasini ochish huquqi)ni Dyurer Nyurnberg fuqarosi Sebald Shreerning uyida "yunoncha uslubda" ishlagan asari uchun olgan bo'lishi mumkin deb taxmin qilinadi. Bu davrda yosh iqtidorli rassomga Avliyo (donishmand) Frederikning e'tibori tushdi. U Albrechtga boshqa lar qatorida o'z portretini ham chizishga buyurtma beradi. Saksoniya saylovchisiga ergashgan Nyurnberg aristokratlari ham o'z portretlarini chizdirishni hohlab qolishdi. Bu imkoniyatdan unumli foydalangan Dyurer asr boshlarida portret janrida juda ko'p ishladi. Bu yerda u Shimoliy Yevropaning tasviriy san'atida shakllangan, tasvirdagi barcha tafsilotlargacha juda puxta va aniq tasvirlanadigan peyzaj fonidagi yuzning yon tomonga burilgan holatini chizish an'anasini davom ettirdi.

"Apokalipsis" nashr etilgandan so'ng, Dyurer gravyura ustasi sifatida Yevropada mashhur bo'ldi va faqat Italiyaga ikkinchi marta safar qilganidan keyingina chet elda rassom sifatida tan olindi. 1505 yilda Yakob Vimfeling o'zining "Germaniya tarixi" asarida Dyurerning rasmlari Italiyada "... Parrasiy va Apelles rasmlari kabi yuqori baholanadi" deb yozgan. Venesiyaga safaridan keyin bajarilgan ishlar Dyurerning inson gavdasini tasvirlash muammolarini hal qilishdagi muvaffaqiyatlarini, shu jumladan yalang'och gavdaning murakkab holatdagi plastik ko'rinishlarini namoyish etadi. Uning dastlabki ishlariga xos bo'lgan gotik biryoqlamalik yo'qoladi. Rassom ko'p figurali kompozitsiyalarga buyurtmalar olishga ko'proq e'tibor berib, ulug'vor tasviriy loyihalarni amalga oshirishga intilgan. 1507-1511 yillar yaratilgan asarlarida kompozitsiyadagi muvozanat, qat'iy

simmetriya, "ma'lum darajadagi ratsionalligi" va tasvirlash uslubining quruqligi bilan ajralib turadi. Venesiyadagi asarlaridan farqli o'laroq, Dyurer yorug'lik ta'siridagi fazoviylikka kam e'tibor qaratgan; ehtimol, bunda o'z mijozlarining dididan kelib chiqqandir.



*A. Dyurer. Ibodat uchun ko'tarilgan qo'llar. 1508 y.*

U asosan faqat qo'l ostidagi mahalliy ranglar bilan ishlagan. Imperator Maksimilian xizmatiga o'tgazilgandan so'ng, u bir oz moddiy mustaqillikka erishdi va bir muncha vaqt rassomchilikni tashlab, ilmiy izlanishlar va gravyura ishlash bilan shug'ullandi.

O'z davrining haqiqiy novatori, nemis rassomi Albrext Dyurer (Albrext Dyurer, 1471-1528) O'rta asrlar Uyg'onish davriga o'tishning haqiqatan ham noyob tarixiy davrida yashab ijod qilgan. Shimoliy Yevropada avtoportretining mustaqil janr sifatida rivojlanishi Dyurer nomi bilan bog'liq. Aynan u nemis (va umuman, butun Yevropa) tasviriy san'at tarixida birinchi bo'lib avtoportretlarni chizgan, mis plitalarga gravyura o'yishning eng murakkab texnikasini birinchilardan bo'lib

qoʻllagan, mutanosiblikni oʻlchash boʻyicha bir nechta ilmiy risolalar yozish orqali rangtasvir yaratish jarayonini tizimlashtirishga harakat qildi.



*A. Dyurer. Grafika.*

Oʻz davrining eng yaxshi portretchi rassomlaridan biri sifatida chizmatasvirni yuqori baholardi. Aynan mana shunday aniq tafsilotlarga asoslangan tasvirlar maʼlum bir tarixiy inson qiyofasini kelajak avlodlar uchun saqlab qolish imkonini berdi. Biograflarning taʼkidlashicha, jozibali tashqi koʻrinishga ega boʻlgan Dyurer, ayniqsa, yoshligida oʻz husni-tarovatidan gʻururlanar va avtoportretlar orqali boshqalarga koʻz-koʻz qilishni yoqtirgan. Dyurer uchun avtoportret - bu uning tasviriy sanʼatdagi maqomini taʼkidlash vositasi va uning hayotining maʼlum bir bosqichini belgilovchi bosqich.

Bu yerda u intellektual va maʼnaviy rivojlanish nuqtai nazaridan oʻsha davr rassomlarining avtoportretlari uchun xos boʻlmagan sinfiy mavqei bilan belgilanadigan darajadan yuqori boʻlgan shaxs sifatida namoyon boʻladi. Bundan

tashqari, u yana Germaniyada shu paytgacha hunarmandchilik deb sanalib kelingan bir paytda tasviriy san'atning inson taraqqiyotidagi yuksak ahamiyatini yana bir bor tasdiqlab berdi (nohaqlik bilan, u "yetti liberal san'at" dan chetlatilgan).

Realizmni tasvirlangan ob'ektni puxta bilish, ilgari sohada boshqa rassomlar ishlarida uchramagan, muallifning hayvonlar va tabiat olamining shakllari va xususiyatlarini o'rganish bo'yicha uzoq va mashaqqatli tahliliy ishi deb tushunish kerak. Dyurer kichkina qog'ozga butun mikrokosmosni yaratib, bu rasmlarni hayotga keltirganday tuyuladi. "Odam" va "Momo Havo" suratlari (1507) - diniy mazmunli rasmdagi yalang'och odamlarning birinchi tasvirlaridan biri. Rassom uzoq vaqt davomida odamning anatomik tuzilishini o'rganishi natijasida hayratlanarli darajada real nisbatlar paydo bo'ldi. Qahramonlarning tashqi jozibadorligi, jannatdan quvilishning muqarrarligi bilan birlashtirilgan, chunki bilim daraxtidan olma allaqachon uzilgan va orqaga qaytish yo'q. "Ritsar, O'lim va Iblis" (1513) mavzusidagi gravyura ramzlarga to'la. Bizning oldimizda qorong'i o'rmonda yo'l bor, uning bo'ylab qurolli ritsar ot minib asta-sekin yurib bormoqda. Undan bir oz oldinda, toj kiygan yarim chirigan figura (tomoshabin unda O'limni taxmin qiladi) chavandozning oldida soat oynasini silkitib o'ynaydi. Vaqtning tez o'tishini "birodar" sifatida ishora qilmoqda. "shoshayotgan joyingda sarob...". Orqada qolgan iblis biroz tushkunlikka tushgan, ammo sayohatchining orqasidan tirnoqli panjasini botirishdan umidini yo'qotmaydi.

Ular dahshatli sarob kabi, ritsarni ikki tomondan o'rab olishgan. Quyida haqiqiy sodiq do'st itni bormoqda, u sodir bo'layotgan voqealarni yoqtirmasa ham, ot kabi jasorat bilan oldinga intiladi. Va jangchi esa? U o'zgarmas va xotirjam, chunki u nimani maqsad qilganini, nima uchun va qaerga ketayotganligini yaxshi biladi. Hech qanday qo'rquv, tahdid yoki shubha uning qaroriga ta'sir qilmaydi. Axir, nishon allaqachon oldinda ko'rinib turibdi - bu kunduzgi quyosh nurida yoritilgan tog'lardagi baland qal'a,. Yoki yer yuzidagi uy, yoki samoviy Quddus shahri. Rassom "Maqsadingizga erishishda jasoratli bo'ling, chunki yo'lni faqat yurgan kishi boshqarishi mumkin" deya tomoshabinga motivatsiya bergandek murojaat



qiladi. 1500 yil - Yevropada, dunyoning oxiratini kutish, vaboning avj olishi, kometalarning qulashi, gunohlarning kechirilishi uchun indulgentsiyalarning sotilishi davri bo'ldi. Xristian ilohiyotshunosi Martin Lyuter, barcha azizlar kuni arafasida, Germaniyaning Vittenberg shahridagi Qal'a cherkovi eshigiga o'zining 95 ta tezisini osib qo'yishi va shu tariqa protestantizmning tug'ilgan kunini nishonlashiga bir necha o'n yillar qolgan edi. Cherkov vositachiligisiz Xudo bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatishga bo'lgan urinish, Dyurerning ruhida, u Lyuterning g'oyalari bilan tanishishdan ancha oldin yashagan, chunki biz uning "Masih qiyofasida avtoportret" sifatida (1500) eng mashhur avtoportretiga ko'ra baholaymiz. Bu Yevropa rangtasviri tarixidagi frontal - old tomondan ishlangan birinchi portret (va hatto avtoportret). Bungacha yakka holdagi portret tasviri faqat Iso Masihning siymosini ifodalash uchun ishlatilgan, dunyoviy portretlar uchun esa faqat xiyol yon tomonga qarab turgan holda ishlangan. To'liq tasvir-bu tubdan yangi narsa, ya'ni yangi vaqt odamining hodisasi. Qorong'ilikdan yorug'lik tomon oldinga qadam tashlagan rasmda, nafis kiyingan va sochini mayin taragan yosh yigit, muloyim nigohi yumshoq nur manbai kelayotgan chap tomonga yo'naltirib tasvirlangan. Qo'shimcha diqqatni imo -ishora tortadi - u muzlab qolganga o'xshaydi. Yoki erkak xalatining etagini ushlab turibdi yoki tomoshabinga baraka beradi. Va yana Masih bilan parallellik bor. Ammo agar tasvir Isoning o'zi bo'lmasa ham, tomoshabin qalbida tug'ilgan tuyg'u haqiqatdir - g'ayritabiiy kuchga, ya'ni ijodkorlik kuchiga ega bo'lgan kishi bor. "Men, nyurnberglik Albrext Dyurer, o'zimni 28 yoshimda ranglar bilan abadiy muhrlab qo'ydim" – degan tasvirning o'ng burchagida matn yozilgan. Asarning metaforik mazmuni bilan "abadiy" so'zini ishlatish tasodifmi? Albatta yo'q. Bu portret-o'z-o'zini tahlil qilish, ijodkor sifatida o'zini moddiy olamdan yuqoriga ko'tarish (lekin undan voz kechmagan holda) shaxsning yaratuvchisi sifatida tasdiqlash. Tomoshabin bilan yakkama-yakka qolib, Dyurerning butun qiyofasi noma'lum narsaga-har birimizdagi ilohiy nur orqali o'zining ijodiy faoliyati orqali tushunishga harakat qilmoqda. Hatto uning tug'ilgan

Nyurnberg shahridagi qabr toshiga ham shunday yozuv yozilgan: "Albrext Dyurer tufayli o'lik bo'lgan hamma narsa shu yerda dafn etilgan" deb yozilgan.

**Mustaqil ish uchun vazifa.**

L.da Vinchi, *Mikelandjelo Buonarotti, Rafael Santi, Paolo Veroneze, A.Dyurer, Y.Tintorettolarning asarlarini tahlil qilishni o'rganish.*

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Dyurer kompozitsiyalarida qanday qoidalar ustunlik qiladi?
2. XVI asrga qadar Germaniyada asosan qaysi mavzularidagi gravyurlar qadrlangan?
3. Dyurerning akvarel bo'yog'ida mayda tafsilotlarigacha (1502-1503) e'tibor qaratib ishlangan mashhur asarlarini bilasizmi?
4. Dyurer gravyura ustasi sifatida Yevropada qachon mashhur bo'ldi?
5. Yevropa rangtasviri tarixidagi frontal - old tomondan ishlangan birinchi portret (va hatto avtoportret) muallifi va asar nomini ayting.
6. A. Dyurer Uyg'onish davridagi qaysi hudud vakili hisoblanadi?
7. Shimoliy Yevropada avtoportretining mustaqil janr sifatida rivojlanishi kimning nomi bilan bog'liq?
8. A. Dyurer tasviriy san'atning qaysi turida ko'proq ijod qilgan?
9. Yevropa rangtasviri tarixidagi frontal - old tomondan ishlangan birinchi portret (avtoportret) muallifi kim?
10. A. Dyurer Uyg'onish davridagi qaysi hudud vakili hisoblanadi?
11. Shimoliy Yevropada avtoportretining mustaqil janr sifatida rivojlanishi kimning nomi bilan bog'liq?

## SHARQ MINIATYURA ASARLARI AN'ANALARINI QO'LLAGAN TARZDA KOMPOZITSIYA YARATISH

### Sharq musavvirlarining jahon tasviriy san'atiga ta'siri K. Bexzod ijodi

*Tayanch iboralar: Sharq Renessansi, minatyura, so'filylik, Bexzod, Darveshlar raqsi, ezgulik va yovuzlik.*

Haybatli Misr piramidalari va hashamatli Toj Mahal me'morchiligi obidasi, Poliklet gavda harakatidagi jahd va Mikelanjelo haykallarining o'ziga jalb qiluvchi kuchi, hind-buddalaridagi plastikadagi yumshoqlik so'zsiz bu dunyo madaniyati va tamaddunining durdonalari hisoblanadi. Xo'jakentdagi (Bo'stonliq tumani) toshga o'yib ishlangan suratlar jozibasi, Samarqanddagi Afrosiyob devoriy suratlaridagi hashamatli saroy ulug'vorligi va muhtasham Registon maydoniining ko'zni qamashtiruvchi chiroyi insoniyat sivilizatsiyadagi ajdodlarimizning munosib o'rniga ishora qilib turibdi. Sharq madaniyati jahonga asrlar davomida adabiyot, musiqa, me'morlik, rassomlik va amaliy san'at sohasida bir-biridan jozibador, bir-biridan hayratlanarli, bir-biridan ma'nodor durdonalarni tuhfa etdi<sup>9</sup>. Darhaqiqat, mamlakatimiz azaldan jahonga o'z ta'sirini ko'rsatgan san'at va madaniyat o'choqlaridan biri hisoblangan, mehnatsevarlik, samimiylik, mag'rurlik, shu bilan birga soddalik va donishmandlikning uyg'unligi ota-bobolarimizning eng yaxshi xislatlaridan sanalgan.

Lekin, uzoq yillar davomida inson taraqqiyoti rivojida Sharq xalqlarining, shu bilan birga yurtimizning bu jarayonagi xizmatlariga shubha bilan qarash shakllanib qolgan edi. O'rta asrlar miniatyurasi milliy maktablarining mavjud xususiyatlarini tasviriy san'at ustalari tomonidan chuqurroq o'rganishga intilish XX asr ikkinchi yarmidagi tarixiy janrdagi O'zbekiston tasviriy san'ati taraqqiyotining muhim tamoyillaridan biri bo'lib qoldi<sup>10</sup>. Mustaqilligimiz esa dunyo hamjamiyatida o'z

---

<sup>9</sup> <https://oyina.uz/kiril/article/55#>: Ҳақимов А. Камолиддин Бехзод ва Леонардо да Винчи рақобати – ким кимдан таъсирланган?

<sup>10</sup> Улуғбек Маматов Ўзбекистон маданиятида тарихий жанрдаги тасвирий санъат асарлари (XX аср иккинчи ярми – XXI аср бошлари). – Т.: 2018. – 230 б.

o‘rnimizga ega bo‘lishimiz, shonli tariximizni tiklashimiz uchun katta imkoniyat yaratdi. Mamlakatimizda turli sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar ta‘lim tizimi va tasviriy san‘atni ham chetlab o‘tgani yo‘q. Bugungi kunda mamlakatimiz rahbari tomonidan tasviriy va amaliy san‘at sohalarida milliy merosimizni tiklash..., tasviriy va amaliy san‘at hamda dizayn sohasi samaradorligini yanada oshirish<sup>11</sup>ga katta e‘tibor qaratilayotganligini ko‘ramiz. “Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta‘siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”. Zero, tarixiy tafakkur millatning ma‘naviy quvvati, milliy o‘zligining sarchashmasidir. Millat qachon o‘zligiga qaytsa, ana shu sarchashmani o‘zini qilolsa, u buyuk ishlarni amalga oshiradigan millatga aylanadi. Milliy o‘zlik - bu milliy uyg‘onishning asosidir<sup>12</sup>. Oxirgi yillarda mamlakatimizda “Uchinchi Renessans”ga poydevor qurilmoqda.

San‘atshunos olim, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi va Badiiy akademiyasi akademigi Akbar Hakimov buyuk rassom Kamoliddin Bexzod ijodi orqali sharq miniatyurasi san‘atini 15–20-asrlarda G‘arb tasviriy san‘atiga yaqinlashtiradigan xususiyatlarni aniq misollar yordamida<sup>13</sup> o‘rganishga harakat qiladi. Olim o‘zining “Bexzod – Sharq va G‘arb rishtasi” maqolasida XX asrda mashhur "Bexzod - Sharq Rafaeli" degan mashhur iboraga nisbatan istehozali va o‘rinli tanbehlar haqida gapiradi. G‘arbning takabbur va boshqa mintaqalarga nisbatan past nazar bilan qarashga intilishi Sharqning yutuqlarini munosib baholashga xalaqit berayotganligi haqida fikrini o‘qir ekansiz, A. Hakimovning haq ekanligiga ishonch hosil qilasiz.

Ayni paytda Bexzod ham haqqoniy, ham ramziy ma‘noda millatimiz, yoshlarimiz uchun ideal vazifani o‘taydigan namunaviy shaxs sifatida tan oliladi. Birinchisi ham, ikkinchisi ham juda muhim. Tarixiy shaxs sifatida uning nomi va faoliyati yoshlarimizda unga havas, yurt kelajagi va o‘zining ijodiy imkoniyatlariga

---

<sup>11</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 22.04.2020 й., 07/20/4688/0475-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.11.2021 й., 06/21/3/1037-сон

<sup>12</sup> <https://yuz.uz/news/kelajak-ibtidosi#:>

<sup>13</sup> <https://uzor.uz/narodnie-ramesla/istoriya/behzad-zapadno-vostochniy-kontekst/>

nisbatan ishonch hosil qilishga yordam beradi. Ramziy ma’nodada uning asarlari jahon sivilizatsiyasida Sharq falsafasi va madaniyatining ahamiyatini chuqur tadqiq qilish imkonini beradi. Ajdodlarimizning dunyo tamaddunidagi munosib ahamiyatini anglab yetish orqali yoshlardagi milliy qadriyatlarimiz, ajdodlarimiz me’rosiga nisbatan faxr, hurmat-ehтиrom tuyg‘usini tarbiyalaydi.

Temuriylar davri oxiri Safoviylar davri boshlanishida Hirot hamda Tabriz minatyura maktablari asoschisi va boshlig‘i. Bexzod o‘z davrining (1455—Hirot-1536) mashhur minatyurachi musavviri, Sharq uyg‘onish davri yetuk nomoyondasi edi. «Ikkinchi Moniy» degan faxriy unvonga sazovor bo‘lgan muzahhiblar yetakchisi, ustoz. Uni “Sharq Rafaeli” deb ham atashadi, u so‘fiylik g‘oyasi va rang ramzlarini berish uchun o‘ziga xos geometrik usulda tasvirlash metodini yaratdi. Uning ta’siri natijasida 15 asr oxiri Xurosonda va XVI-XVII asrlarda Movorounnahrda so‘fiylikka asoslangan rangtasvir minatyuralari paydo bo‘ldi. “So‘fiylik” tasavvuf dunyosini bilishni, aniq kundalik hayotni, insonning dunyo va koinot, zamon va makon, lahza va abadiyat, hodisa va mohiyat haqidagi tushunchalari bilan bog‘liq qarashlarni o‘zida aks ettiradi<sup>14</sup>. Bunda zohidlik orqali, ya’ni, Olloh roziligi yo‘lida tarki dunyo qilish, zikr uchun xalaqit beradigan barcha dunyoviy lazatlardan voz kechib darvishlik qilish, chilla saqlash, ro‘za tutish, zikr tushish orqali uning marhamatiga erishishga umid qilinadi. Shariat va tariqat odoblariga bu xilda rioya etishni Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Xo‘ja Ahror, Najmiddin Kubro va b. targ‘ib etganlar<sup>15</sup>.

Musavvir kompozitsiya tuzishda o‘tmishdoshlari tomonidan me’ros bo‘lib qolgan an’anaviy tizimdan foydalanib, o‘ziga xos asarlar yaratdi. Bu asarlar “o‘zining tugallanganligi, kompozitsiyaning mukammalligi, qahramonlarning jonli tasvirlanishi, asardagi g‘oyaviy fikrning kengligi” bilan ajralib turardi.

Tasvirlanayotgan mavzularni kengaytirgan holda Bexzod o‘zgacha ajralib turadigan kompozitsiyalarida borliqning fazoviy kenglikni mohirona ifodalash bilan

---

<sup>14</sup> Булатов С.С. Соипова М.С. Мансуров У.Н. Рамзлар: тасвир ва мазмун.-Т.: “Фан ва технология”, 2015, 71 бет.

<sup>15</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Asketizm#:~:text=Asketizm%20\(qadimgi,b.%20targ%CA%BBib%20etganlar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Asketizm#:~:text=Asketizm%20(qadimgi,b.%20targ%CA%BBib%20etganlar)

birga ko‘plab yangi qahramonlar obrazlari, me‘moriy inshshotlar bo‘laklarini olib kirdi. Shakllarni aylana, oval holda joylashtirib, gavda holati va ma‘nodor hatti-harakatlar yordamida kompozitsiyadagi ichki harakatni kuchaytiradi. Bexzod kompozitsiyalari o‘ziga xos bo‘lib, undagi personajlarni shunday joylashtiradiki, natijada kartinada fazoviy illyuziya paydo bo‘ladi. Kenglik hissini tug‘dirish uchun kishilarning hatti-harakatlari, holatlari ham juda katta ahamiyatga ega. Bexzod ijodidagi kompozitsiyalarda kenglik va borliqni ifodalash uchun me‘moriy inshootlaridagi peshtoqlar, minbarlar, yon devorlari, ko‘priklar, ayvonlar, shiyponchalar kabi kompozitsiyaning boshqa unsurlari ham mohirona foydalanilgan.

Bexzod minatyura rangtasvir kompozitsiyalari tugallanganligi, mukammalligi va ranglar uyg‘unligi bilan o‘z yechimini topganligini ko‘ramiz. Bu o‘rinda avvalo me‘moriy bezaklarning ranglarga boyligini aytib o‘tish mumkin. Bexzod o‘ziga xos bo‘yoqlar yordamida ranglarning har xilligi, turli-tuman juziy o‘zgarishlari, ko‘zni olar darajadagi tilla ranglarning ko‘p ishlatilishi bilan ranglar uyg‘unligiga erishgan. Tomashabinning diqqatini jalb etish uchun asardagi asosiy qahramonlarni bo‘rttirib ko‘rsatib, atrofidagi bir tekis rangli siluettarni butun kompozitsiya bo‘ylab joylashtirib, asarning tugallanganligiga erishardi.

Shunday qilib Bexzod o‘tmishdagi rassomlar ishlab chiqqan minatyura tipajlaridan foydalanish bilan birga kompozitsiyadagi har bir bo‘laklarning o‘zaro nisbatlarini yuksak darajada aniqliklar kiritdi. K. Bexzodning beqiyos iste‘dod egasi ekanligini tasdiqlaydigan, kompozitsiyadagi personajlarning muvaffaqiyatli bajarilgan holati va harkatlarining katta aniqlik bilan tasvirlanishi, minatyura san‘atiga yangi mavzular olib kirishi bu janrdagi yana bir yangilik bo‘ldi.

Uning minatyuralari murakkab tuzilishga ega, lekin o‘ta tushunarli, rangdorlik juda kuchli, lekin aniqligi bilan farq qiladi. O‘rta asr minatyurasining shartlilik belgilarini saqlagan holda odamlar va manzara ko‘rinishlarini o‘z kuzatishlari asosida jonli, obrazli qilib tasvirlaydi. U asarlarida odamlarni turg‘un holatda emas,

balkim tabiiy va aniq harakat holatlarini bera olgan. Bu Sharq minatyurasi uchun katta yangilik edi.

Zamondoshlari tomonidan yuqori baholangan uning ishlari nafis, jozibali chiziqlari, rangga boyligi, odamlarning jonli harakat va holatlari bilan ajralib turadi. Ko‘plab personajlar ishtirokidagi kompozitsiyalarini tafsilotlarigacha aniq tasvirlanganligini kuzatish mumkin. Sa‘diyning “Bo‘ston” asariga ishlangan “Yusufni yo‘ldan ozdirishga urinish” (1488), Nizomiyning “Layli va Majnun” (1494-95), “Yetti go‘zal” asarlariga ishlagan minatyuralari, Sulton Husayn va Shayboniyxon portretlari Bexzodning eng mashhur asarlari sanaladi.

Hirotda minatyura maktabining eng mashhur vakillaridan biri Kamoliddin Bexzodning ijodiy asarlarining ko‘pchiligi Jomiy va Navoiy she‘riyati ta‘sirida yaratildi. Bexzod o‘z minatyura asarlarida aynan insonning kundalik turmush tarziga ko‘proq e‘tibor beradi. Uning asarlari natijasida Hirotda minatyura san‘ati haqiqiy gullab yashnadi. Bexzodning ustozlari Mirak Naqqosh, Qosim Ali, Xo‘ja Muhammad Naqqosh va Shoh Muzaffarlar Hirotda maktabi vakillari edilar.

XV asr oxirida Usmonli Turk hukmronligi davrida G‘arb bilan Sharq san‘ati o‘rtasidagi yaqin aloqa o‘rnatilishi uchun imkoniyat tug‘ildi. Bu davrda g‘arbda Turk sultonligi gullab-yashnagan bo‘lsa, sharqda Hirotda temuriylar sulolasidan bo‘lgan Husayn Boyqaro hukmronligida she‘riyat va san‘at yuqori cho‘qqiga chiqqan edi. Venesiyalik rassom Jovanni Bellini Usmonli Sulton saroyida musavvir sifatida faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa, Husayn Mirzo saroyida Hirotda maktabining mashhur musavvirlari qatorida yorqin iste‘dodga ega bo‘lgan Bexzod ham bor edi. Usmonli Turk sultoni o‘sha davrda Hirotda sovg‘a sifatida Bellini kartinalarini yuboradi. Bu esa o‘z-o‘zidan ikki qit‘a musavvirlari o‘rtasidagi raqobat muhitini yuzaga keltirdi. Ko‘pincha, bu ikki maktab vakillari bo‘lgan rassomlar o‘z ijodiy mahoratini namoyish etish uchun o‘z ustida tinimsiz ishlashar va yanada mukammalroq portretlar yaratishga harakat qilishardi. Hirotda hukmdori Usmonli Turk Sultoni chaqirig‘ini qabul qilish, o‘z xalqining iqtidori yuqori ekanligini isbotlash maqsadida Bexzodga maxsus topshiriq bergan va natijada Bexzod minatyura

rangtasvirida g‘ayrioddiy portretlar turkumini yaratdi. Ular orasida "Bag‘dodlik Darvesh" nomli ajoyib surat bor, uning asl nusxasi Istanbuldagi Top Kapa muzeyi kutubxonasiidagi Bellini deb nomlangan al‘bomda (1500 yil deb qayd etib qo‘yilgan) saqlanadi. Musavvir hayratlanarli darajada nozik psixologik portret tasvirini yaratadi, bu bilan miniatyurachilar yuqori mahorat egasi ekanligi va akademik rangtasvir asarlari yarata olishini tasdiqlab berdi.

Bexzod ushbu suratda o‘z zamondoshi ruhiy holatini to‘liq ochib bera olgan. Odobu-lutf bilan o‘tirgan, dunyo boyliklaridan qalb go‘zalligini afzal ko‘radigan kamtarona darvesh qiyofasini mahorat bilan tasvirlaydi. Naqshbandiya mahzabi namoyondasi timsoli sifatida oq qalpoqcha ustidan hafsala bilan salla o‘ragan, ko‘k ko‘ylak ustidan yelkasiga odmigina jun yaxtak kiygan darvesh portretini yaratadi. Kompozitsiya har tomonlama mukammal o‘ylangan, unda tasviriy san‘at “tili” hisoblangan chiziqlar va ranglar jozibasidan mohirona foydalanilgan. Suratda darveshning tavoze bilan boqib turgan ifodali ko‘zlari, xotirjam va ayni paytda biroz sirli nigohi bilan tomoshabinni o‘ziga jalb etadi. Nozik naqshlar bilan bezatilgan portretning oltinrang orqa fonidagi so‘fizm g‘oyalariga asoslangan yozuvlar, kompozitsiyaning mazmunini yanada chuqurroq tushunib yetishga yordam beradi, lekin, kompozitsion yaxlitlikni buzmaydi. Bexzod bu asarini taxminan 1500 yillarda ishlagan. 1503-06 yillarda esa Yevropada Leonardo da Vinchi o‘zining "Mona Liza" asarini yaratadi. Ushbu asar ham Yevropa san‘atida psixologik portret sifatida yangi davrni ochib berdi.


Bu ikki asarni taqqoslaganda, inson tashqi go‘zalligi va psixologik nyuanslarning bir lahzalik ko‘rinishlarini talqin qilishda ham juda xarakterli umumiy xususiyatlar uchraydi<sup>16</sup>. Portretidagi qo‘llarning holati, nigohidagi mayuslik va umumiy hissiy kechinmalarining ifodalanishi ikki kartinani bir-biriga yanada yaqinlashtiradi. Atrof-borliq va inson qomatidagi go‘zallikka nisbatan hissiy dunyoqarashni tarbiyalagan qadimiy yestetikadan farqli o‘laroq, Bexzod va

---

<sup>16</sup> <https://oyina.uz/kiril/article/55#>: Ҳақимов А. Камолиддин Бехзод ва Леонардо да Винчи рақобати – ким кимдан таъсирланган?



Leonardo Da Vinchi asarlarida, xuddi yangi portretning o‘ziga xos ramzlari kabi, hissiyotga to‘la ruhiy kechinmalarning ustuvorligini sezish mumkin. Bexzod ham, Leonardo Da Vinchi ham antik davr estetikasi uchun begona bo‘lgan - aniq "hissiy ko‘rinish" dan bosh tortadi, ular o‘z tasvirlarida insonning ruhiy holati va ichki xususiyatlarni tasvirlashga harakat qilishadi.



*K. Bexzod. "Bag‘dodlik Darvesh" Istanbuldagi Top Kapa muzeyi, 1500 yil.*

Aynan mana shu tizimli va musiqiy umumiylik rassomlarning "qiziquvchan

tomashabinda tug'ildigan savollariga to'la javobga bo'lgan" yondashuvlarining o'xshashligi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi. Shunday qilib, ikkita tasvirning o'ziga xos xususiyati bilan, ularni talqin qilishda umumiy komponent Bexzod ijodining XV-XVI asrlar Yevropa badiiy an'analari bilan rasmiy emas, balki tarkibiy va g'oyaviy jihatdan bir-biriga yaqinlik mavjudligidan dalolat beradi deb ta'kidlaydi san'atshunos olim A. Hakimov.

Darveshlar raqs marosimi - "zikr" - XVI -XVII asr miniatyura rangtasvirlarida mashhur mavzuga aylanadi. Bu surat Saddiy, Hofiz, Navoiy va boshqa o'rta asr mualliflari so'fizm falsafasiga oid asarlari qo'lyozmasi varaqlarini bezab turibdi. Bexzod miniatyurasida ushbu marosim ishtirokchilarining barcha personajlarni qamrab olgan tabiiy dinamik harakat va ichki ruhiy kechinmani sezish mumkin. Raqqoslar-kulrang soqolli ikki oqsoqol va o'rta yoshli ikkita erkakdan iborat. Ularning uzun kiyimlari rangi qanchalik yorqin bo'lsa, ushbu obrazning shunchalik yoshligini ko'rsatadi. Rassom darveshlar qo'lidan osilib tushgan yengining yengil harakati va hilpirab turgan rangdor sharflardagi jozibador och chiziqlar yordamida raqqoslar guruhi aylanayotgan harakatini kuchaytirib ta'kidlaydi.



*K. Bexzod. "Darveshlar raqsi".*


Zikr tushayotgan darveshlar guruhi suratning asosiy g'oyasi hisoblanib, aynan mana shu guruh tasviri kompozitsiyada doira bo'ylab harakatni yuzaga keltirgan. Kompozitsiyadagi yana bir muhim jihat - musavvir ushbu kichik doira yasagan

darvishlar guruhi atrofida to'planib turgan darveshlar, musiqachilar va boshqa tomashabinlar qomatini tasvirlab, harakatni kuchaytirishga yordam bergan ikkinchi katta xalqani yasaydi. Darveshlar raqsidan ta'sirlanib trans holatiga kelgan turli toifadagi mast kishilar tasviri kompozitsiyaning pastki tomonidan umumiy harakatni ko'pirtirib, to'lqin hosil qilib, harakatni goh o'nga, goh chapga yo'naltirgandek tuyuladi. Berilib kuy chalayotgan musiqachilar, kompozitsiyaga yengil ritm bag'ishlab soat yo'nalishiga teskari harakatni hosil qiladi. jimgina o'yga tolib kuzatayotgan tomashabinlar holatida kuchli ruhiy holat tasvirlangan. Kitob ushlab turgan yigit va ro'molcha bilan ko'z yoshini artayotgan chol harakatni sal harakatni sekinlashtirgandek bo'ladi. Tepadagi kamtarlik bilan o'yga cho'mib turgan 4 ta inson qomati yanada turg'unlashtiradi. Kompozitsiyadagi umumiy holatga boqar ekansiz, go'yoki pastda qaynayotgan jarayonning yuqoriga ko'tarilgan sari hovuri pasayishini his qilgandek bo'lasiz. Va bu eng cho'qqiga yetganda osmon fonida g'ayritabiiy sokinlikka olib keladi. Umumman olganda musavvir ushbu kompozitsiyada o'tkinchi dunyo tashvishlari, inson umri, komillikka erishish va boqiy dunyo sokinligini ramziy ta'riflagandek tuyuladi. Ayniqsa, osmon fonidagi daraxtlar bu ikki qarama-qarshilikni yengil bir-biri bilan bog'laydi. Tadqiqotchilar ushbu tomashabinlar orasida Jomiy, Navoiy va qizil xalat (bu yerda rassom qahramonlarning yoshini ifodalashda rang ramziyligi tamoyilidan muvaffaqiyatli foydalangan) Bexzod obrazlari borligini ta'kidlashadi. Bu katta halqa raqs guruhining dinamik harakatini boshqarib turibdi.

Qariyib besh asr o'tib, Kamoliddin Bexzodning "Darveshlar raqsi" asaridan ta'sirlangan Yevropalik rassom Anri Matiss mashhur "Raq" asarini yaratdi. U o'zining ushbu asarida nafaqat, harakatni bera oldi, balki, Sharq musavviri yaratgan kompozitsiyadagi dekorativlik hamda rangning katta, yassi tekislik shaklida berish usulini yanada bo'rttirib ko'rsatishga muvaffaq bo'ldi. Bu esa kompozitsiyada ishlatilgan kontur chiziqlar va kartinadagi ranglar jozibadorligi hamda ahamiyatini oshiradi, rassom dekorativ uslubda umumiy kompozitsiyani muvaffaqiyatli umumlashtirishga erishdi.

1910 yilda frantsuz rassomi Anri Matiss tomonidan yaratilgan. U ikkita nusxasi mavjud: birinchisi Nyu-Yorkdagi Zamonaviy san'at muzeyida, ikkinchisi va eng mashhuri Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyida saqlanadi.

Insoniyat tarixidagi buyuk ijodkorlardan bo'lgan bu ikki musavvirning bir mavzudagi asarida kompozitsiyaning asosiy g'oyasi, mazmuni qahramonlar talqinidagi plastik harakat va musiqaiy uyg'unlikni, ritm va jarangdor sas, nihoyat, jazavaga (trans holati) tushgan ruh va tana bezovtaligi kabi umumiy jihatlar mavjud. Bu odamlarning umuminsoniy muqaddas tuyg'usi hisoblangan, Oллоhga bo'lgan muhabbat va uning roziligi yo'lidagi ritmik harakatdagi birligi, bu holatning yekstatik ko'tarilishi Sharq va G'arbning ikki dahosining asarlarini tizimli va plastik harakat bilan bog'laydigan falsafiy va g'oyaviy asosni tashkil yetadi. Fransuz rassomi Anri Matissning "Raqs" asari ranglarning sof yorqinligi va soddalashtirilgan shakllarning ifodaliligi bilan ajralib turadi.



*Anri Matiss "Raqs" 200-390 sm. 1910 y. Sankt-Peterburg, Ermitaj muzeyi.*

Matiss raqosalarning yengil oyoq harakati tufayli kompozitsiyada parvoz hissini yaratadi, umumiy o'lchamga nisbatan personajlarning kattaligi va past tom ichida bo'lgandek boshi va yelkalarini egib turishi, tizzalarining, qora fonda pala-partish rang surtmalari sabab kompozitsiyada asabiylik, bezovtalik va harakat hissini kuchaytiradi. Yumshoq yashil va ko'k ranglar fonida raqqosalar jo'shqin musiqaga xalqa bo'ylab o'ynayotgan personajlar, muallaq samoda uchayotgandek tuyuladi. Qizig'i shundaki, tepalikning notekis yuzasi tufayli beqarorlik hissi hatto Stravinskiy va Satining sinxron ritmlari bilan taqqoslanadi. Ushbu rasm cheksiz energiya, jo'shqin dinamika va ekstatik holatni o'z ichiga oladi<sup>17</sup>.

Sharq miniatyurasida, jumladan Bexzod asarlarida ham sharq xalqlarining qadimiy falsafiy, diniy va madaniy an'analariga borib taqaladigan mifologik, ins-jinslar tasvirlari uchraydi. XVI asrda Sulton Ahmad uchun yozilgan folbinlik kitobi uchun turk miniatyura rassomi Kalandar tomonidan demon obrazi tasvirlanganligini ko'ramiz. Jin gullar ichida yerdan chiqib kelayotgan holatda tasvirlangan. Uning shoxdor boshi insonniki kabi bo'lsa, oyog'i hayvonniki kabi tuyoqli ko'rinishda bo'lib, O'rta Osiyodagi odam boshli Garuda qushi bilan o'xshashliklari ko'p. Yevropa san'atida jin tasviri boshqacha uslubda Bu nemis rassomi Maykl Paxerning "Sent -St. Volfgang va shayton "(XV asrning ikkinchi yarmi) chiziqli perspektiva yordamida tasvirlangan.

Bu sharqona bestiariy ((lot. bestia "hayvon" dan) - (O'rta asr nasr va she'riyatida asosan allegorik va axloqiy maqsadlarda turli hayvonlarni batafsil tasvirlash an'anasi) Bexzodning Nizomiyning "Xamsa" misrlik yetti malikalardan birining shoh Bahrom haqidagi hikoyasi asosida "Mahan va jinlar" miniatyurasida juda yorqin va ta'sirchan tarzda tasvirlab beradi. Hikoyada sirenlar haqidagi sehrli qo'shiqlari bilan sayohatchilarni jalb qilish haqidagi yunon afsonalarining motivlariga yaqin epizodlar mavjud. Miniatyurada - bu jin-ayollarning antropomorfik shakllardagi yuzlari hayvon ko'rinishida, qo'shiq aytayotgan

---

<sup>17</sup> "Танец" Анри Матисса: Разбор картины <https://artforintrovert.ru/tpost/vlzu4ytl4c-tanets-anri-matissa-razbor-kartini#>:

odamlar va hayvonlar boshi bilan mevali chak-chak daraxti (gaplashadigan daraxt), ijodkorlik boshlanishining ramzi sifatida Divan shahriga kelganida Mahanning otiga aylanadigan yetti boshli ajdaho kabi xayoliy mavjudotlarning uchta guruhi tasvirlangan,

Asosan, miniatyurada zardushtiylikning ezgulik va yovuzlik, yorug'lik va qorong'ulik kuchlari o'rtasidagi kurash manzaralari ifodalanadi. Bundan tashqari, yovuzlikning kuchi majoziy plastik harakat shaklida ifodalanadi - u qahramonni o'rab oladi va unga ketma -ket turgan jinlar ko'rinishidagi zich, yengib bo'lmas devor bilan siqa boshlaydi. Iblis tasvirining fantazmogorik to'qnashuvi yordamida qahramonning ham, tomoshabinning ham ruhiyatiga ta'sir qiladigan, vaziyatdagi umidsizlik hissi ko'rsatib berilgan. Tomoshabinni sub'ektga jalb qilish Bexzod miniatyuralarida majoziy (obrazli) jarangdorlikka erishishining juda muhim komponentidir. Gunohkor bandalarni imonga undovchi, o'tkinchi foniy dunyo lazozatlariga aldanib qolmaslik, chin va boqiy dunyoda Ollohning marhamatiga erishish uchun ularning ongini uyg'otishga intilish, oxirat orqali qo'rqitish tamoyili ko'plab Yevropa rassomlarining kartinalarida ham XV-XVII asrlardan keyin ko'zga tashlana boshladi.



*Pikasso "Gernika"*

Pikassoning "Gernika" asari jinlar tasvirida yovuzlikni ifodalash orqali

gunohkor bandalar ongini uyg'otishga qaratilgan mana shunday asarlardan hisoblanadi. Albatta, Bexzod miniatyurasida va Pikasso kartinasiidagi fojiadan ogohlantirish darajasi bir xil deb bo'lmaydi, lekin oddiy odamning ruhiy xotirjamligi va farovonligiga tahdid soluvchi yovuzlik g'alabasi yehtimoli haqidagi tasavvur vaqt o'tishi bilan hech qachon yeskirib qolgan emas. Ikkala asarda ham (Bexzodning kichika miniatyurasi va Pikassoning ulug'vor pannosi), umidsizlik hissi va vayron qiluvchi kuchlarning haqiqiy obrazini yaratishga imkon beradigan yekspressiv plastik harakat ritmining yagona prinsipi qo'llaniladi. Bexzod ishida vertikal holatdagi jinlarning tasviri, miniatyuraning chap tomonini mahkam yopib qo'ygan, Pikassoda esa gorizontal ravishda pannoning butun tekisligi bo'ylab yoyilganligini ko'ramiz. Pikasso ushbu mavzuni o'z davri uchun ijtimoiy norozilik darajasiga olib chiqadi, Bexzod mavzusi esa faqat adabiy va she'riy syujet doirasida qoladi, lekin ikkala asarda ham tomoshabinga bo'lgan hissiy ta'sir ajoyib, bu har biri o'z davriga mutanosib ravishda yaratilgan durdona asarlardir.

Naqsh qo'lyozma kitoblarni bezashda, miniatyuralar atrofini, kompozitsiyalar ichidagi me'moriy obidalar bo'laklarini to'ldirishda keng qo'llanilgan yoki bezak shaklida mustaqil rol o'ynagan. Bexzod obrazli kompozitsiyalar ustasi sifatida naqsh bezaklarini ramka, to'ldiruvchi bezak, ya'ni. qo'shimcha element sifatida ko'p qo'llagan, lekin haqiqiy mahoratli musavvir sifatida naqshning bu funksiyasi bilan cheklanib qolmadi va uni asosiy tasvir sifatida o'z miniatyuralari mazmunini boyitdi. 1480 yilda yaratilgan "Gullagan nihollar orasidagi qiz" nafis kompozitsiyasi tasviriy va bezakli kompozitsiyalari uyg'unligi boshlanishiga ajoyib misol bo'la oladi. O'roqdek egilgan oy yorug'ida qora xalat kiygan oy yuzli qizning qiyofasi tillarang sariq fonga singib ketgan, uning naqshlari keng bargli novdalar shaklida aniq va ifodali ko'rinadi. Bu tasvir naqsh bezaklari bilan birlashib, o'ziga xos yorqin plastik metaforani shakllantirib, hayot va go'zallik g'alabasini she'riy tarzda ulug'laydi.

Naqsh va inson qiyofasini birlashtirishning bu usuli keyinchalik 20 -asr san'atida keng qo'llanila boshlandi. (xususan, u O'zbekiston zamonaviy san'atida yaqqol



namoyon bo'ldi). U mashhur avstriyalik rassom va monumentalist G. Klimtning "Uch avlod" (1909) kartinasida uchta yalang'och figurani - keksa ayol, yosh ona va uning qizini tasvirlab, bu mavzudagi yetakchi asarlar qatoridan o'rin egalladi. Kartinada naqsh yosh ayol va bola gavdasi fakturasi bilan uyg'unlashib, o'ziga xos ramziy va g'oyaviy ahamiyat kasb yetgan. Bu yerda naqsh, Bexzod miniatyurasidagi kabi, tabiatning hayot baxsh yetuvchi kuchi bilan bog'liq bo'lgan, katta hayot boshlanishiga urg'u berilmoqda.

Bu oxirgi misol Bexzod ijodining uslubiy va tematik tendensiyalar doirasi qanchalik kengligini ko'rsatganligi, ularning har biri XV-XX asrlar Yevropa tasviriy san'at asarlariga ta'siri katta ekanligini payqash qiyin emas.

Bexzod miniatyura san'ati tarixida maxsus maktab «Bexzod maktabini» yaratdi. U real hayot hodisalari va tabiatni tasvirlash uslubi, bo'yoqlardan foydalanish vositalari, rasmga olinayotgan voqealarni nozik chiziqlarda ifodalash yo'llari, inson kayfiyati va harakatini aks ettira bilishdagi ustaligi, rasm kompozitsiyasining kengligi va turli-tuman hodisalarni qamrab ola bilishi, ajoyib estetik zavq uyg'otishi bilan miniatyura san'atini yangi bosqichga ko'tardi, uning tarixida yangi davr yaratdi. Bexzod miniatyuralari uning tirikligidayoq va ayniqsa, undan so'ng musulmon Sharqida va G'arbda ham bu san'atning eng oliy yutug'i deb tan olindi hamda eng qimmatli san'at asarlari sifatida mashhur bo'lib ketdi<sup>18</sup>.

Bexzod ijodi faqatgina XV-XVI asrlar Movarounnahr madaniy hayotida ahamiyatli bo'libgina qolmay, balki butun Sharq, hattoki Yevropa rangtasvir va kitob grafikasi san'atining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. XVI asrda Yevropada bosmaxonaning kashf etilishi kitob grafikasining rivoj topishiga imkon beradi. Bexzodning hayoti va ijodi ta'sirida XV-XVI asrlarda O'rta Osiyoda (Movarounnahrda) tasviriy san'atda keskin burilish ro'y berdi, olim va san'atkorlar uni san'at tarixida O'yg'onish (Renessans) davri deb atadilar.

Bexzodning asarlari yuksak qadrlanib, O'zbekistondan tashqari, AQSh, Buyuk

---

<sup>18</sup> Усмонов О. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/kamoliddin-behzod-1455-1535/#:~:>

Britaniya, Turkiya, Rossiya, Eron, Fransiya, Germaniya, Misr kabi bir qator mamlakatlarning kutubxonalarida avaylab saqlanmoqda<sup>19</sup>. Bosh kotibi Taleb Rifai: “Yevropa tarixida muhim o‘rin tutgan Renessans, ya’ni Uyg‘onish davri aslida mana shu zaminda ancha ilgari boshlanganini ta’kidlamoqchiman va zamonaviy madaniyat hamda sivilizatsiya aynan shu mintaqada paydo bo‘lgan, deb ishonch bilan aytishim mumkin”, deya ta’kidlagan.

Ko‘plab yevropalik rassomlar o‘z ijodlarida – Sharq Renessansi va buyuk temuriylar davridagi sharqona miniatyura va bezak san’atidan ilhom izlaganini e’tirof etgan<sup>20</sup>.

### **Mustaqil ish uchun vazifa.**

K. Bexzod ijodi va uning jahon tasviriy san’atiga ta’siri haqida qo‘shimcha ma’lumotlar to‘plash, miniatyura san’ati asarlarini tahlil qilishni o‘rganish.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar***

- 1. Bexzodning "Bag‘dodlik Darvesh" nomli qachon yaratilgan va asl nusxasi qaysi muzeyda saqlanadi?*
- 2. Qaysi jihatlar Bexzod ijodi XV-XVI asrlar Yevropa badiiy an‘analari bir-biriga yaqinlashtiradi?*
- 3. Bexzod asarlarininig zamonaviy tasviriy san’atdagi ahamiyati nimada?*
- 4. Kamoliddin Bexzodning ijodidan ta’sirlangan Yevropalik mashhur rassom kim va qachon qanday asar yaratgan?*
- 5. Matiss o‘zining “Raqs” asarida qanday qilib kompozitsiyada parvoz va asabiylik, bezovtalik va harakat hissini kuchaytiradi?*
- 6. Kamoliddin Bexzod ijodi Yevropalik rassomlarga qanday ta’sir ko‘rsatgan jahon tasviriy san’atiga nima berdi?*
- 7. Ranglar yorqinligi miniatyurada qanday ramziy ma’noni bildiradi?*

---

<sup>19</sup> Жумабоев Н.П. Камолитдин Бехзоднинг шарқона тасвирий санъат услуби ва асарлари таҳлили / "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020. -139-145 б.

<sup>20</sup> <https://oyina.uz/kiril/article/55#>: Ҳақимов А. Камолитдин Бехзод ва Леонардо да Винчи рақобати – ким кимдан таъсирланган?

8. *Darveshlar raqs marosimi - "zikir" mavzusi qaysi asrda miniatyura rangtasvirlari uchun mashhur mavzuga aylanadi?*
9. *Bexzod ijodi butun Sharqning, hattoki Yevropaning qanday san'at turlari rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi?*
10. *Bexzodning asarlari O'zbekistondan tashqari qaysi mamlakatlarning kutubxonalarida saqlanmoqda?*
11. *Kamoliddin Bexzod nechanchi asrda va necha yil umr ko'rdi?*

## O'zbekistonda realistik rangtasvir rivojida A.N. Volkovning o'rni

**Tayanch iboralar:** monumentalizm, an'anaviy motiv, dekorativlik, epik hissiyot, o'zbek tasviriy san'ati.

Millati rus bo'lgan Volkov Aleksandr Nikolaevich (1886-1957), O'rta Osiyoda zamonaviy san'atning asoschilaridan biri bo'lib tarixda qoldi. A. Volkov 1886 yil hozirgi Farg'onaning Skobelev shahrida garnizon shifokori oilasida tug'ilgan. U bolaligini Turkistonda o'tkazdi. 1905 yilda Orenburg kadetlar korpusini tugatgandan so'ng, u Sankt -Peterburg universitetining tabiiy fanlar fakultetiga o'qishga kirdi, lekin ikki yil o'qiganidan so'ng, uni tashlab, Badiiy akademiya qoshidagi Oliy rangtasvir maktabining V.Ye. Makovskiy (1908-1910) rahbarlik qiladigan sinfiga o'qishga o'tib ketdi. N.K.Rerix, I. Y. Bilibin va haykaltarosh L.V. Shervudlar (1910-1911) dars beradigan M.D.Bernshteynning studiyasi bo'lajak rassomning taqdiriga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi. Undan so'ng A. Volkov Kiev san'at maktabida o'qishni davom ettirdi (1912-1916), u yerda eng buyuk monumentalist rassom F. G. Krichevskiy bilan birga A. A. Exter va A. G. Tishler bilan uchrashdi. U Kievning Sofiya soboridagi ulug'vor mozaikalarida majoziy umumlashtirishning cheksiz imkoniyatlarini ko'rdi.

M.Vrubelning rasmlaridan u qadimiy Avliyo Kiril cherkovidagi M.A.Vrubelning kartinalaridagi ramziylikdan hayratlanib, ilhom olardi. Rassom ularning ta'siri ostida o'zining birinchi mustaqil asarlarini yaratdi. M.Vrubel ijodi va qadimgi rus rangtasviri ta'siri ostida rassom o'zining birinchi mustaqil asarlarini yaratadi. 1916 yilda o'z vataniga, O'rta Osiyoga (Toshkent) qaytib, Volkov bolalikdagi taassurotlarga tayanib, tasvirlashning o'ziga xos usulini topdi. 1923 yil Moskvada rassom o'ziga xos tasviriy tili va iste'dodini namoyon qiladigan ko'rgazma bo'lib o'tdi. Namoyish etilgan asarlarda rassomning Sharqqa, o'zbek milliy madaniyatiga bo'lgan muhabbati ufurib turardi. 1934 yilda rassomning asarlari Filadelfiya (AQSh) ko'rgazmasida O'zbekiston san'atini aks ettirdi.

1929-1941 yillarda Toshkent rangtasvir texnikumida - keyinchalik Respublika rangtasvir maktabida dars bergan, Ishchilar teatri studiyasida bezakchi-

rassom bo'lib ishlagan. 30-yillarda Tansiqboev, B. Hamdamiy, N. Karaxan, A. Tashkenboev, Ch.Axmarov, P. Shchegolev, A. Venediktov, A. Podkoviryov kabi ijodkorlarni birlashtirib, A. Volkov "monumentalizm yetakchisi", "Volkov brigadasi" degan nom qozondi. Rassomlar jamoasi mamlakatdagi yangi qurilishlar, O'zbekistonning e'tiborga molik eng chekka burchaklariga borib birgalikda ijod qildilar. Issiq quyosh taftidagi Sharqning shovqinli ko'chalari, yorqin dunyosi uning "Tog'li qishloq" (1926-27) turkumidagi asarlarida o'z ifodasini topdi. Lakonizm (rang va shakllar orqali o'z fikrini ixcham, aniq, ravshan ifodalashi), toza rang, monoton ritmlari bilan Volkov asarlari sharq gilamlarini eslatadi. O'zbek musiqasi va amaliy san'atining milliy xususiyatlarini jiddiy o'rgangan rassom an'anaviy motivlarni o'zining asarlariga o'tkazishga harakat qildi. Eski shahar ko'rinishlari tasvirlarida u sharq miniatyuralarining shartlilik nuqtai nazari qonunlaridan foydalangan. U Toshkentda yashagan. 1927-1930 yillarda u "Yangi Sharq ustalari" mahalliy uyushmasining a'zosi bo'lgan.




*Volkov A.N. "Anorli choyxona" 1924 y.*

Volkovning dastlabki kartinalarida M. Vrubelning "billursimon" kartinalarini eslatadigan (fors, 1916, Sharq san'ati muzeyi, Moskva) yangi modern uslubi bilan ajralib turadi Sharqiy ibtidoiy islom san'atidagi naqshli badiiy bezakdorlik (dekorativlik) dan ilhomlangan rassom, o'z asarlarida bu uslubi bilan kubizm elementlarini biriktirib (1918–1920, tempera) o'zbek milliy tasviriy san'atida yangicha yo'nalishga asos soldi. 1920-yillarning birinchi yarmida ritm va ranglarning kuchli monumentalligi uning uslubiga xos bo'lib, ba'zida sof tabiiy elementlarning yarim mavhum futuristik o'yiniga aylandi (Karvon 1, Tretyakov galereyasi, Moskva; Karvon 3 - 1922-1923, har ikkala asar Sharq san'ati muzeyida saqlanadi). Ayniqsa, bu usul Volkovning mashhur "Anor choyxonasi" (1924, o'sha yerda) kartinasida dramatismning cho'qqiga chiqishi bo'ldi, u yerda ayni paytda chiroyli hamda so'niq ranglar qizil-pushti tuslanishda patriarxal hayot tarzini ifodalab beradi.

Aleksandr Volkov sehrli, go'yo yonayotgan va qizib ketgandek tuyuladigan "Anor choyxonasi" asarini 1924 yilda, hayotining o'rtalarida, ijodining yuqori cho'qqisiga erishgan paytida chizgan. Bu rasmda tasvirning an'anaviyligining ideal va organik o'lchovini kuzatish mumkin. Bir piyola choy ustida yig'ilgan uchta qahramonning figuralari kubizmda bo'lgani kabi fazoviylikni ajratmaydigan, lekin aniq ritmda yig'ilgan uchburchaklardan qurilgan. Tasviriy shartlilik an'anaviy sharqona choy ichish udumi tomoshabinni o'ziga jalb qiladigan, lekin tushunarsiz marosim sifatida taqdim etadi. Qahramonlarning sallalari diniy mavzulardagi ikona va miniatyura rangtasvirida uchraydigan avliyolik ramzlariga o'xshaydi, yuzlari nurli va atrofdagi muhit juda sirli tarzda ifodalangan. Yorqin rang bilan berilgan bu sirlilik "Anor choyxonasi" asarini rangtasvirning eng yaxshi namunalaridan biriga aylantiradi.

20 -yillarning oxirida. Volkov tashqi dekorativizmdan uzoqlashdi va tabiatni murakkabroq tasvirlashga o'tdi. Rassomning badiiy improvizatsiyalari O'zbekiston hayoti va kundalik hayotiga bag'ishlangan. U odamlar, qadimiy yodgorliklarni, umuman tabiatda ko'rgan hamma narsani tasvirlashga intilardi, lekin bu asarlar


janrli kompozitsiyaga nisbatan ma'no jihatidan ustun bo'lib, rangtasvir Markaziy Osiyo haqidagi ajoyib poeziyaga aylangan.



*Volkov A.N. "Kuz" 1926 y.*

Rassom natyurmortlarida tempera va moybo'yoqni birlashtirib, ajoyib rang jarangdorligiga erishdi. Ijtimoiy realizm uslubida yozilgan ta'sirchan ranglar ko'lami Volkov asarlarida saqlanib qolgan. Kolxoz ishchilarining mehnati sahnalari epik freskalarga o'xshaydi (Paxtakor qizlar, 1932, o'sha yerda). Volkov kolxoz qurilishi va yig'im -terim ishlarini tasvirlaydi, lekin hatto bu rasmlarda ham u

chizilgan rasmning an'anaviyligi, yorqin rangi, aniq ritmi va Sharq tuyg'usini asrlar davomida o'ziga xos, doimiy hayot tarzi sifatida saqlab qoladi. Uning asarlarida kolxozchilar ish jarayonidagi g'ayratli qahramon sifatida tasvirlanmaydii, ular paxta yig'im-terimi paytida ham xayolga cho'mib turgan holati tasvirlangan, mahalliy udumlarni bilmaydiganlar uchun qandaydir sirlilik mavjud.



Volkov A.N. "Paxtakor qizlar" 1932 y.

30 -yillardagi sovet san'atiga qo'yiladigan talablarni (ular orasida, birinchi navbatda - tasvirning aniqligi) Volkov qiyinchilik bilan qabul qilardi. U o'z oldiga "... oldingi izlanishlarimga xos bo'lgan ohang boyligi va ajoyib yorqinligini yo'qotmasdan, zamonaga mos, oddiy va tushunarli kompozitsiyalar yaratish" vazifasini qo'yadi. Uning bu davrdagi kartinalari monumental va epik hissiyotlarga boyligi bilan ajralib turadi. U yangi binolar, paxta dalalari, ko'plab ishchilar portretlarini chizadi ("Yo'ldagi bo'ron", 1932; "Kolxozchi", 1933; "Shohimardon tongi", 1934 va boshqalar). Volkov O'rta Osiyoda dekorativ va monumental



rangtasvirning paydo bo'lishiga o'zining katta hissasini qo'shdi. U rassomlar jamoasi bilan birgalikda milliy inshootlarni chizdi, bayramlarda bezak ishlarini bajardi. Volkov o'z ijodi va pedagogik faoliyati bilan zamonaviy milliy o'zbek san'atining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning dadil, noan'anaviy g'oyalarga yo'g'rilgan asarlari umrining oxirgi kunlariga qadar har doim qizg'in munozaralarga sabab bo'lgan. O'z vataniga, o'zbek xalqiga nisbatan ehtirosli muhabbatga to'la kartinalari, milliy san'atimiz uchun ajoyib bir xazina sifatida asrab-avaylanadi. Bugungi kunda uning asarlari dunyoning eng yaxshi muzeylarida, eng nufuzli ko'rgazmalarida namoyish etilmoqda.

Ustoz bir necha bor "formalizm" ni qoralagan va 1946 yilda Toshkent rangtasvir bilim yurtida o'qituvchilikdan chetlatilgan (u yerda 1929 yildan ishlagan), ammo, rassom keyingi davrda Pieta kartinasi kabi o'z uslubida o'ziga xos, "norasmiy" - urushning ekspressionistik tasvirini yaratdi, (1944, rassom oilasining mulki, Moskva). U butun umri davomida she'rlar yozgan, qo'shiq aytgan, uzoq yurishlarni yaxshi ko'rgan kuchli va ko'p jihatdan iste'dodli shaxs edi. Shuning uchun u umri mobaynida shaxsiy va professional mustaqilligini saqlab qoldi.

Volkov ijodi va pedagogik faoliyati bilan zamonaviy milliy o'zbek san'atining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Toshkent rangtasvir maktabida (1916-19), Turkistonda, rangtasvir ustaxonalarida (1919-21), Toshkent rangtasvir texnikumida (1922-46) dars bergan. 1959 yilda rassom haqida Nozim Hikmat shunday yozgan edi: "Aytishlaricha, u o'zbek tilini bilmas edi, lekin u o'zbek tilida rasm chizishda juda zo'r edi! "Osiyolik rus rassomi A.N. Volkov fenomeni aynan uning ijodi va uning eng yaxshi asarlari Rossiyadagi san'at tarixi va milliy Turkiston-o'zbek rangtasvir maktabining shakllanishi tarixi uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi<sup>21</sup>. Bu ajoyib rassom, o'qituvchi va shoir O'zbekiston san'ati tarixida afsonaga aylandi. U XX asrning 20-40-yillarida o'zbek tasviriy san'atining poydevorini qo'ygan iste'dodli ijodkorlar ro'yxatiga kirdi. A.N.Volkov XX asrning birinchi choragida G'arbiy Yevropa va Rossiya tasviriy san'atining uslubiy evolyusiyasi bilan

---

<sup>21</sup> [www.krugosvet.ru](http://www.krugosvet.ru), <http://old.tretyakovgallery.ru>, [www.artsait.ru/art](http://www.artsait.ru/art), <http://fdculture.com>, [www.rassom.uz](http://www.rassom.uz)

O‘zbekiston badiiy madaniyati va xalq san‘ati o‘rtasida bog‘lovchi ko‘prik yaratishga muvaffaq bo‘lgan iste’dodli rassom sifatida tarixda qoldi.

**Mustaqil ish uchun vazifa.** O‘zbekistonda realistik rangtasvir rivojlanishiga hissa qo‘shgan rassomlar (A.N. Volkov, Chingiz Axmarov) tarixi, *tasviriy san‘at asarlarida falsafiy obrazli g‘oyalarni aks ettirish va talqin qilishni o‘rganish.*

***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar***

1. Millati rus bo‘lgan Volkov Aleksandr Nikolaevich O‘zbekiston san‘atidagi o‘rni qanday?

2. A.Volkovning Issiq quyosh taftidagi yorqin Sharq dunyosi tasvirlangan asarlari turkumi qanday nomlanadi?

3. A.Volkov o‘z asarlarida sharq miniatyurasining qanday qonunlaridan foydalangan?

4. A.Volkov asarlarida Sharq miniatyurasidagi bezakdorlikni Yevropa rassomlarining qanday usuli bilan birlashtirilgan.

5. Volkovning qanday asarlarini bilasiz?

## SHARQ MINIATYURA ASARLARI AN'ANALARINI QO'LLAGAN TARZDA KOMPOZITSIYA YARATISH

**Musavvir Chingiz Axmarov**

**Tayanch iboralar:** Chingiz Axmarov, Sharqona obraz, mahobatli rangtasvir, badiiy meros, antik san'at, ellinizm.

Ch.Axmarov (1912-1995) Rossiyaning kichik Troitsk shahrida ma'rifatli, katta bir oilada tug'ilgan. Turkistonga kelib qolgan Axmarovlar oilasi 20-yillarda Qarshida yashab, keyin Samarqandga ko'chib o'tgan. Bu ijodkorning Samarqandda rassom sifatida shakllanganishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Dunyoga mashhur qadimiy, go'zal va muhtasham Samarqand me'morchilik san'ati, bu yerdagi muhit, milliy urf-odatlar yosh Chingizning estetik didi, badiiy dunyoqarashining boyishi, rang-tus munosabatlarini his qilishi uchun uchun asos bo'lib xizmat qildi. Ayniqsa, butun ijodiy faoliyati mobaynida musavvir ijodi uchun Alisher Navoiy she'riyati katta ilhom manbai bo'ldi desak adashmaymiz. Buyuk shoir asarlaridan ilhomlanib, Hirot miniatyura maktabi klassik an'analari asosida nozik va nafis chizgilarni Yevropa grafik san'atining V. Serov, V. Favorskiy, Matisdan tortib S. Gerasimovgacha bo'lgan taniqli rassomlar texnikasi va tajribasi bilan boyitdi. Bexzod an'alaridan foydalanib Alisher Navoiy nomidagi drama va balet teatri intererini bezatish uchun (1944 - 1947) juda ko'plab Sharqona obrazlar yaratdi. "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Iskandar devori", "Yetti go'zal", "Besh" asarlari ushbu mavzularga tegishli eng sara asarlaridan hisoblanadi.

Darhaqiqat, Ch.Axmarov o'rta asrlarda yashab ijod etgan "Hirot", "Sheroz", "Tabriz", "Boburiylar" miniatyura maktabi vakillari bo'lgan taniqli musavvirlar asarlarini chuqur o'rgangan. Ushbu miniatyura maktabi an'alarida aks etgan mavzularning g'oyaviy va shakl jihatlaridan foydalanib o'ziga xos zamonaviy asarlar yarata oldi. Bu haqda musavvir "miniatyura san'atida tasvirlangan voqealar, odamlar hayotiyliigi, tabiat go'zalligi, ranglarning hayratlanarli uyg'unligi, rassom tuyg'ularining samimiyligi bilan meni quvontiradi. Bu men uchun bitmas-tuganmas

xazina, ilhomim, maktabim. Men uchun bu buyuk italyan rassomlari Giotto va Masachio san'ati bilan tengdir<sup>22</sup>” degan fikrni bildiradi.

Sharq miniatyura asarlari an'alariga tayanib ko'plab mahobatli rangtasvir kompozitsiyalari ishlagan. U shu bilan birga zamonaviy o'zbek san'atida yangi yo'nalish, o'ziga xos badiiy maktabga asos solgan yirik rassom, yuzlab shogirdlar tarbiyalagan pedagog hamdir. Qisqa qilib aytadigan bo'lsak, musavvir Yevropa realistik rangtasvir san'atini Hirot miniatyura maktabi klassik an'analari bilan boyitib o'ziga xos maktab yaratdi. O'rta asr san'atini bugungi davr uchun tushunarli tilda ifoda etishga erishdi. Milliy rangtasvir san'atimiz uchun alohida yo'nalish ochdi.


Hozirgacha musavvir Chingiz Axmarovning nomi yurtimiz sanati rivoji uchun katta hissa qo'shgan eng yorqin yulduzlar qatorida eslanadi va haqli ravishda o'z asarlari bilan o'zbek xalqining sevimli ijodkorlari safidan o'rin oldi. Chingiz Ahmarov o'zbek tasviriy san'atining milliy o'ziga xosligi borasida xalqning boy va go'zal badiiy merosining ilg'or an'alarini hozirgi zamon san'atiga ijodiy singdirishda faol xizmat qildi.



*Navoiy o'z shogirdlari bilan. 1968 yil.*

<sup>22</sup> <https://mytashkent.uz/2017/08/19/chingizu-ahmarovu-segodnya-105-let/#:~:> М. Исхакова. Чингизу Ахмарову сегодня 105 лет.

Asarlarida ijodkorlik ruhi bilan yashayotgan zamondoshlarining go'zal va yoqimtoy, tabiati murakkab va nafis qiyofalari tasvirlanadi. Ijodini 30-yillarda dastgoh rangtasviri va grafika sohasida asarlar yaratish bilan boshlagan (1934-yil Sh. Sulaymonning "Li Chu" kitobini bezagan, "Mushtum", "Mash'ala" jurnallari uchun rasmlar chizgan, "Qiz portreti", "Bola portreti", "Akam portreti" va boshqalar). Bundan tashqari, Respublikamizda va undan tashqaridagi ko'zga ko'ringan ko'plab hashamatli binolar intererini monumental devoriy suratlar bilan bezadi. Ushbu mahobatli rangtasvir asarlaridagi umumiy kompozitsiyada ham Ch.Axmarov Sharq kishilarining o'ziga xos xarakteri, milliy jozibasini alohida ajratib ko'rsatgan xususiyatni topa oldi.



**22-rasm. Shirin portreti**

San'at muzeyi xodimasi, rassom Shamsiroy Xasanova bilan uchrashishi Ch.Ahmarov ijodiga jiddiy ta'sir qildi. Sharqona latofatga ega bo'lgan yoqimtoy qiz

rassom uchun go‘zallik timsoli bo‘lib, uning ilhom parisi bo‘lib qoldi desak bo‘ladi. Bo‘lgusi turmush o‘rtog‘i bilan uchrashuv, shoira Nodirabegim (taxallusi; ismi Mohlaroyim) siymosi yaratilishiga turtki berdi. U o‘z sevgilisi timsolida tarixda o‘z mahzun she‘rlari, teran fikrlari, aql-zakovati, go‘zal chehrasi bilan o‘zbek xalqi mehr-muhabbatini qozongan, hanuzgacha afsona bo‘lib yashab kelayotgan shoira obrazini yaratdi.

Ko‘zlarim mushtodur diydor uchun ruxsora och,  
Pardani yuzdin, ko‘zim qilg‘uncha bir nazzora och.  
Pardai nozu hayo xomush la‘lingdin ko‘tar,  
Ikki gul bargini bir-birdan gahi guftora och.

Musavvir Shamsiroy bilan qisqa, lekin shirin turmush qurdi. Bu davrda aksariyat asarlari musavvirning o‘ziga ruhan yaqin bo‘lgan yozuvchi, shoir, aktyor va boshqa ijodkorlar obrazi, ular qatorida Mukarrama Turg‘unboyeva, Halima Nosirova, Tamaraxonim portretlari yaratilgan edi. Oltmish sakkizinchi yili rassom Samarqandda buyuk olim rasadxonasi yaqinidagi Ulug‘bek muzeyi binosining ichki qismi uchun monumental-dekorativ pannolar seriyasini yaratdi. Ch.Axmarov Ulug‘bekning rasadxona loyihasi me‘morlari bilan suhbatini va shoirlar bellashuvi sahnasini kartina syujetiga asos qilib olgan, u yerda olimni nafaqat hukmdor, balki ilm-fan homiysi hamda san‘at muxlisi sifatida ham tasvirlagan<sup>23</sup>.

Chingiz Axmarov dekorativ rangtasvir uslubida o‘zining Shirin portretini ishladi. Nozik harakatli chizgilar orqali bu surat juda mayin soya-yorug‘lar, nafis va ohangdor ranglarda mahorat bilan tasvirlangan. Dezakdor ranglarning jilvalanishi, qiz qomati siluetining fazoviy yengilligi “Shirin portreti” ning ideal go‘zallikka mos keladigan obrazini yaratish imkonini bergan. Qizning to‘lin oyni eslatadigan yuzlari, o‘ziga yarashgan bodom qovoqlari, chimirilgan kamon qoshlar ostidan sirli boqayotgan o‘q kipriklar tomashabinda nozik hislar uyg‘otadi. Bir so‘z bilan aytganda, bu holat juda ham tabiiy va chiroyli. Suratdagi ayol chehrasi va

---

<sup>23</sup> <https://greylib.align.ru/1149/mastura-isxakova-chingiz-axmarov-rycar-vostochnoj-damy.html#>; Исхакова М. ЧИНГИЗ АХМАРОВ. «Рыцарь восточной дамы»

boqishlarida olam-olam ma'no yashiringan hamda u ruhiy jihatdan ishonarli qilib tasvirlangan. Bir andozaga solingandek tuyuladigan imo-ishoralar jonli va harakatchan, tasvirlangan g'uncha lablar ayol qalbida yashiringan nozik hislarni unsiz so'zlayotgandek, go'yo. Bu portret timsolida Sharq ayolining ma'naviy dunyosi, ruhiy boyligi to'laligicha namoyon bo'lgan. Bu yerda ta'kidlash mumkinki, musavvir buyuk shoira Nodirabegim she'rlari bilan yaqindan tanishgan, uning nozik dil izhorlari har qanday ayol obrazi mukammal yaratish uchun etalon bo'la olishini yaxshi tushungan. Rassom dekorativ bezakdorlikka asoslangan Sharq miniatyura san'ati ana'analarini realistik rangtasvirga mohirona uyg'unlashtirgan, shu bilan birga kartinadagi ranglar boyligiga, ularning g'oyaviy-badiiy vazifasiga alohida ahamiyat bergan. U feruza - niliy, pistoqi - yashil, shaftoli guli - pushti, tallarang-sariq, och ko'k osmon rang va bazi-bazida qora rang kabi serjilo va tavlonuvchan bo'yoqlardan foydalangan. O'zbek milliy san'atiga mansub xalq ustalari, yog'och o'ymakorligi ustalari, do'ppi va so'zana tikadigan chevarlar, memorlar, miniatyurachi rassomlar keng foydalanishadi ranglarni o'z o'rnida chiroyli tarzda ishlatgan. Asar miniatyura rangtasvirida ko'p tasvirlanadigan naqshin saroy fonida ishlangan. Fonda me'moriy obidaning bir ko'rinishi va milliy girih naqsh elementlari va arabcha yozuvlar tasvirlangan. Boshida do'ppisimon tillaqosh, quloqlarida shibirma sirg'a, bilagida bilak uzuk, egniga milliy ayollarga xos oq ko'ylak va yashil kamzulcha kiygan qiz obrazi tasvirlangan. Qarama-qarshi ranglar hisoblangan yashil va qizil, ko'k va zarqaldoq hamda sariq ranglarda rassom ajoyib ranglar ritmini yaratgan. Va bu ranglar kartinada ajoyib uyg'unlik hosil qilgan.

Rangtasvir – voqelikni badiiy tasvirlash va talqin qilishdir. Muhim ijtimoiy mazmun va rang-barang g'oyaviy vazifalarga ega bo'lib, tomoshabin fikri va tuyg'ulariga tasir etishning muhim vositasi sanaladi. Rangtasvir - asarining g'oyaviy mazmuni uning mavzu va syujetida mujassamlashadi. Go'zal milliy ruhdagi asarlari Chingiz Axmarovni rangtasvir ustasi sifatida elga tanitdi. Rassom yaratgan barcha asarlarida Sharqning milliy hayoti va san'atining tabiiy uyg'unligini sharaflashni o'zining asosiy maqsadi deb bildi. Musavvir yaratgan asarlarga nazar tashlar

ekansiz, ularda ranglar uyg'unligi, yuqori did, mukammal kompozitsion yechim, milliylik, teran g'oya va sof rangtasvirda mohirlik bilan yuksak asarlar yaratganligiga guvoh bo'lasiz. Endi "Shirin portreti" asariga keladigan bo'lsak. Bu asar rassom Chingiz Axmarov tomonidan "portret" yo'nalishida ishlangan Yevropa akademik rangtasviri va Sharq miniatyura maktabi an'alarining uyg'unligida yaratilgan ajoyib dekorativ uslubdagi rangtasvir hisoblanadi.

Yoshligimizdan barchamiz bir marotaba bo'lsa ha Chingiz Axmarov suratlaridan nusxa ko'chirganmiz. Uning asarlari yoshlarni tasviriy san'aptga qiziqtirishda muhim ahamiyatga ega. Bu asarlar orqali boshlovchi rassomlar rangtasvirda dekorativlik va yaxlit ranglarda ishlashga o'rganishadi. Biz ham siz bilan CH. Axmarovning "Shirin portreti" asaridan nusxa ko'chirishga urinib ko'ramiz. Nusxa ko'chirishda avvalambor original ishning yaratilish texnikasi, texnologiyasi tahlil qilinadi va uning yangi nusxa-ijroi uchun nimalar kerakligi oldindan belgilab olinadi. Masalan: agar biror taniqli rassomning namunali, mashhur rangtasvir asarini ko'chirish kerak bo'lsa, ishni boshlashdan avval u qanday materialga nima bilan chizilganligi aniqlab olinadi. Ish qanday bosqichlar asosida, qanday texnik usullarni qo'llab yaratilgani tadqiq etiladi. So'ng barcha jarayonlar original ishni ishlash jarayonidagidek barcha o'ziga xosliklar hisobga olinishi kerakligi etiborda tutiladi. Rangtasvirlardan nusxa ko'chirishda o'ziga yarasha qonun-qoidalariga amal qilinishi lozim. Nusxa olinadigan ishning ko'chirmalari aniqlanib so'ng o'sha o'lchamdan bir, bir yarim santimetr kichikroq yoki kattaroq matoga (katta katta to'qimadami , yoki mayin sathlimi) ishlanganligiga qarab ish yuritiladi. Nusxa uchun asliyatdagi kabi materiallar tanlanishi muhim. Shunda asar nusxasi originaliga o'xshab chiqishiga erishiladi. Agar asar muzey eksponati bo'lsa va uning reproduksiyasi qo'l ostida mavjud bo'lsa ana shu namunaning kichik suratini kataklarga chizish orqali kattalashtirib tarhini tushirib tayyorgarlik qilib olish lozim. Bunda albatta asarning tasviri masshtabga muvofiq olinishi kerak. Asarda qanday bo'yoq turlari va xillari foydalanganligini aniq bilib olish taqozo etadi. U suyuq yoki quyuuq surtmalarda ishlaganligini bilish, o'rganish ham muhim.



Nusxa ko‘chiruvchi faqat tasvir tarhi emas balki rassom uslubini, texnik yo‘llarini ham o‘xshatishi, undan mahorat sirlarini o‘rganishi lozim. Nusxa ko‘chirishdan maqsad ham shunga yo‘naltirilishi kerak. Nusxa ko‘chirish jarayoni quydagicha bajariladi: - avval asar reproduksiyasi topiladi; - namuna o‘lchami asliga yaqin qilib olingan karton-qalamtasviri ishlab chiqiladi; - rombga mato tortib u guruntlanadi; - asliyatda qanday bo‘lsa shunday usulda, texnikada ishlashga hozirlanadi (grunt rangiga ahamiyat qaratiladi) ; - asliyatdagida asosiy rol o‘ynovchi ranglar politrasi tayyorlanadi (saralab, idishdan chiqariladi); - tayyor mato yuzasiga qalamtasvir tushiriladi, bunda qoraqog‘ozdan foydalanish mumkin; - qalam tarhi surkalib ketmasligi uchun uning ustidan jigarrang yoki “ultramarin” bo‘yoqni suyuqroq qilib kichkina mo‘yqalamda yurgizib chiqiladi; - tasvir aniq bo‘lgach, ostsurtmalar bajariladi; - asta-sekin bo‘yoq qatlami ustidan kerakli ranglar o‘z vazifasiga, ko‘ra oshirib ( bazi yerda suyuq, bazi kerakli yerda quyruq qilib ) boriladi; - avval kattaroq mo‘yqalam ishlatilib, tasvir detallashtirila boshlagach kichikroq mo‘yqalamlarga o‘tiladi; - asl asarga bot-bot qarab o‘xshash-o‘xshamayotganligi tekshirilib turiladi; Asar nusxasi barcha ko‘zda tutilgan, talablar bajarilgach nihoyasiga yetkaziladi va hoshiya romb bilan bezatilishi kerak.

**Mustaqil ish uchun vazifa.** *Ilmiy adabiyotlar va badiiy asarlar namunalari asosida sharq miniatyura asarlari an’analarini o‘rganish, ushbu materiallar asosida kompozitsiyaiya yaratish.*

***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:***

1. Musavvir Chingiz Axmarovning qanday asarlarini bilasiz?
2. Qaysi rassom ayol Ch.Ahmarov ijodiga jiddiy ta’sir qildi?
3. Chingiz Axmarov qanday bo‘yoqlardan ko‘p foydalangan?
4. Ch.Ahmarov Hirot miniatyura maktabi asoschisi K. Bexzodning ijodiy an’analaridan qanday binoni bezatishda foydalangan?
5. Zamondoshlari portreti galareyasini qilgan o‘zbek rassomi kim?
6. Beruniy portreti muallifi kim?

## O'ZBEKISTON TASVIRIY SAN'ATIDA DAVR IFODASI

### B.Jalolov ijodi

**Tayanch iboralar:** mahobatli rangtasvir, falsafiy obraz, avangardizm, ramziylik, milliy an'analar, metaforik kompozitsiya.

Shubhasiz, Bahodir Jalolov mahobatli rangtasvirda o'ziga xos uslub yaratgan, zamonaviy o'zbek rangtasvir san'ati rivojiga katta hissa qo'shgan talantli rassomlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston xalq rassomi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofotining sovrindori, akademik Bahodir Fazliddinovich Jalolov hayotda ochiq chehrali, o'ta samimiyatli va quvnoq insonligini ko'ramiz. O'zbekiston xalq rassomi, Kamoliddin Bexzod nomidagi Milliy san'at va dizayn instituti monumental rassomlik kafedrasida professori Bahodir Jalolov 2011 yilda Rossiya Badiiy akademiyasi akademigi unvoniga sazovor bo'lgan.

1948 yil 27 mayda Toshkent shahrida tavallud topgan musavvir 1968 yili P. P. Benkov nomidagi Respublika rassomlik bilim yurtini, 1974 yilda esa Sankt-Peterburg shahridagi I.YE. Repin nomidagi rassomlik, haykaltaroshlik va me'morlik instituti monumental fakultetini tamomlaydi. Yoshligida Abdulhaq Abdullayevdan portret ishlash borasida ta'lim olgan rassomning ilk ijodiy ishlarida turli xil ranglar orqali milliy his-tuyg'ularni ifodalashga bo'lgan urinishi seziladi. Keyinchalik u taniqli rassomlar Chingiz Ahmarov, Ro'zi Choriyev, Milnikov, Korolyovlardan ham tasviriy san'at sirlarini o'rganib, astoydil o'z mahoratini oshirib bordi. Yoshligida, o'sha paytdagi Leningradda tahsil olayotgan rassom Bahodir taqdir taqozasi bilan kartinalari ko'rgazmasining tashkil etilishi munosabati bilan kelgan Mark Shagallning e'tiboriga tushib qoladi. O'shanda rassom o'z ko'rgazmasi doirasida Badiiy akademiya talabalari bilan uchrashuv o'tkazadi. "Biz ko'zlarimiz yonib, hayrat bilan bu ajoyib iqtidor egasi ma'ruzasini tingladik, - deb eslaydi Jalolov. - U dunyoni bolalarcha poklik bilan idrok etuvchi buyuk rassom edi".

Ranglar orqali odam, olam, koinot munosabatlari, ularning o'zaro uyg'unligini tadqiq qiluvchi, tafakkuri keng ijodkor yillar o'tib xalq ichida o'zbek tasviriy

san'atining Bahodiri degan nom bilan shuhrat qozondi. "Bahor" konsert zali foyesiga ishlangan "Raqsning tug'ilishi" nomli kompozitsiyasi, Kinochilar uyida, Qo'qon teatri foyesiga ishlangan mahobatli rangtasvir asarlari rassom ijodini yuqori cho'qqiga olib chiqdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bahodir Jalolov erishgan yetuklikning yana bir jihati shundaki, u Sharq va G'arb an'analari o'zlashtirib, ana shu an'analardagi mushtaraklikni topib, uni yuzaga chiqarishga muvaffaq bo'la olgan rassomdir. Shuning uchun ham o'zbek millatining xassos musavvirining asarlari xorijiy davlatlardagi san'at ixlosmandlari tomonidan ham yuqori baholanadi.

O'z asarlarida va Italiya Uyg'onish davri rassomlari ijodi va rus badiiy an'alariga nisbatan hurmat bilan yondashadi, shu bilan birgalikda, o'ziga xos Markaziy Osiyo motivlarini chuqur o'rganib avangardizm yo'nalishi rivojiga katta hissasini qo'shgan iqtidorli rassom. Taniqli san'atshunos olim Tilab Mahmudov ta'riflaganidek "o'z xalqi tarixining bashariyat tarixi bilan hamohang nuqtalarini topishga" bel bog'lagan zabardast ijodkor Tojikistonning Xo'jand shahridagi maktab binosida o'ziga xos devoriy asar yaratdi. 1990 yilda Belgiyaning Kortreyk shahrida "Kortreyk 200" turkum suratlarini yaratdi.

Bahodir Jalol hayoti yutuqlar va qiyinchiliklar bilan o'tdi. Ammo bu odam o'z ustida tinimsiz ishlab, olamni idrok etish va o'zligini anglab yetish uchun doimiy izlanishda bo'ldi. Shu tufayli yillar davomida ichki uyg'unlikka intilib yashadi va o'z maqsadiga erishdi, buni rassomning butun hayoti va ijodiy faoliyati natijalari tasdiqlab turibdi.

Uning portret janrida yaratgan asarlarida o'zbek xalqining ziyolilari, sevimli san'atkorlari siymosi o'z ifodasini topgan. Bunga mashhur manzara ustasi, rassom akademik O'rol Tansiqboyev, buyuk olim, akademik Vohid Zohidov, Komil Yormatov, Malik Qayumov, Muhiddin Rahimov, Hamro Rahimova, Akrom Toshkanboyev, Damir Ro'ziboyev kabi mashhur san'at darg'alari siymosini misol keltirishimiz mumkin. B. Jalolov o'z sohasining chinakam va betakror ustasi,

bilimdoniga aylangan bir davrda mustaqillik yillarida uning mehnatlari ayniqsa, munosib qadr topdi .



“Raqsnning tug‘ilishi” kartina fragmenti

Uning kompozitsiya yaratishdagi erishgan yutuqlari ijodidagi tuyg‘ular uyg‘unligi tomoshabinni o‘ziga mahliyo etib qo‘yadi. Xususan, «Raqsnning tug‘ilishi» kompozitsiyasi o‘zbek raqqosalarini ulug‘labgina qolmasdan, ularga bo‘lgan samimiy hurmat va muhabbatni namoyon qilganini ko‘ramiz. Baxodir Jalolovning “Raqsnning tug‘ilishi” asarida “Ustoz”ning da’vatini eshitib unga tomon intilayotgan raqqosalarning ko‘p qomatli guruhini aks ettirgan. Ular ilhom parisi, bahor elchisi sifatida tasvirlangan. Ularning harakatlari yengil, nazokatli va yoshlik,

go‘zallik va umid kabi xislarni ifodalaydi. Qizlarning yuzlari, qo‘llarining harakatlari, qomatlari holati nazokatli va ohangdor chiziqlar bilan ifodalangan<sup>24</sup>.

Ko‘p yillar davomida hayotiy va ijodiy tajribalar to‘plagan zabardast rassom Yevropa realistik rangtasvir san‘atini Sharqona falsafiy obrazlar bilan boyitib, tasviriy san‘atda yangicha uslub yaratdi desak ham bo‘ladi. Bu asarlarida insonning nafaqat atrofimizdagi hodisalar balkim, sayyoramizdan tashqaridagi olamni bilish bilan bog‘liq hodisalarni tushunishga bo‘lgan urinishlarni ko‘ramiz.”Ko‘rish”, Yakkashox, Alangali bag‘ishlov, Sokinlikka ehtiyoj, Paganini, Sanctumfor Saint Mariye, Yevropaning o‘g‘irlanishi, Muvozanat, Me‘mor va uning ilhom parisi, Yangi mif 21 asr (triptix), Leonardoning onasi, Niqoblar bilan raqs, Ilhom abstrakt kompozitsiyalari mana shunday asarlar sirasiga kiradi. Bu asarlarida qadimiy Yevropa va Sharq afsonalari, tasviriy san‘at va ilm-fan yutuqlari qorishmasida insonning ushbu murakkab zamonda o‘zligini anglashda chiziqlar va rvanglar orqali tafakkurning o‘rnini ko‘rsatishga bo‘lgan intilish bor. Bu asarlarida Sharqona donishmandlik, falsafiy ramziylikka ko‘proq o‘rin berilganligini his qilish mumkin.

Agar “Ibtido” asarini tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak: kompozitsiyadagi Sharqona bezakdorlik insonning nihoyatda mukammal yaratilganligi, shu bilan birga nozik xilqat ekanligi, Olloh tomonidan bizga ne‘mat qilib berilgavn insonning aql-zakovati qanchalik kengligiga ishora deb o‘ylaymiz. Biz ushbu kartinani falsafiy-g‘oyaviy jihatdan tahlil qilishga va ramziy mazmun mohiyatini tushunishga urinamiz. Kartinaga boqar ekansiz birinchi navbatda to‘q orqa fonda inson va farishta obraziga ko‘zingiz tushadi. Bu yerda yaratgan bilan inson o‘rtasidagi vositachi timsolida farishta yoki ilhom parisi diqqatini jamlab nimanidir o‘ylayotgan insonga shivirlab to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatayotgandek tasavvur hosil qilinadi. Yana kartinada qorng‘ulikda yonib turgan olov tasviri va yulduzlar tez ko‘zga tashlanadi. Olovdan chiqayotgan cho‘g‘lar, uchqunlar yulduzlarga aylanib ketayotganga o‘xshaydi, go‘yo. Olov bu yerda insoniyat tarixidagi ilk diniy ta‘limot hisoblangan

---


<sup>24</sup> Улуғбек Маматов Ўзбекистон маданиятида тарихий жанрдаги тасвирий санъат асарлари (XX аср иккинчи ярми – XXI аср бошлари). – Т.: 2018. – 230 б.

zardushtiylikdagi olovning muqaddasligi, inson hayotidagi muhim ahamiyatiga ishoradir. Balki rassom, bu bilan insonning tug‘ilishi, hayoti va o‘limiga ishora bo‘lgan uchqun, alanga, cho‘g‘ va kulga aylanish jarayoni ifodalamoqchi bo‘lgandir. Shundan har bir inson tug‘ildimi, hayotda yonib yashashi, o‘z bilimi bilan jamiyat taraqqiyotiga munosib hissasini qo‘shishi kerak demoqchidir.

Farishtaning yuzi va qo‘llarida uning samoviyliigi, nurga yaqinligini ko‘rsatish uchun oq rangda ishlangan. Undagi ikki qanotni xuddi insonni kamolotga eltadigan dunyoviy va diniy bilimlar timsolida qabul qilish mumkin. Uning oq yuziga kartinadagi umumiy muvozanatni saqlash uchun qo‘yilgan oppoq qog‘oz esa inson tafakkurining namunasi, ya‘ni, ilm-fanga ishora sifatida qabul qilinadi. Kompozitsiyada sham juda ko‘p kartinalarda bo‘lganidek, bir tomondan hayot sham umridek qisqaligini ifodalasa. Ikkinchi tomondan, insondagi bilim egallash uchun sarflangan vaqti va tinimsiz mehnatga ishora. Bu bilan ijodkor har bir inson tug‘ildimi, izlanishi, o‘rganishi, hayotga bekorga kelmaganini isbotlash uchun yonib yashashi, o‘z bilimi bilan jamiyat taraqqiyotiga munosib hissasini qo‘shishi kerak degan ma‘noni uqish mumkin.

Kartinada asosiy g‘oyani yanada to‘ldirish uchun tasvirlangan shisha idishda vino va mevalarni ham ko‘rish mumkin. Ramzi jihatdan olib qralganda islom dinidan avvalgi dinlarda sharob qalblarga quvonch baxsh etadigan, quvonch, baraka va farovonlikni anglatadi. Injilda sharob Iso Masihning to‘kilgan qonini anglatadi. Lekin shu bilan birga bu kitoblarda sharobni ko‘p suiiste‘mol qilish insonni muqarrar halokatga olib kelishi ham aniq aytilgan. Mevalar bu yerda hosildorlik, sevgi, oila, boylik, to‘kinlik, farovonlik ma‘nosida ifodalanadi. Inson o‘zi uchun berilgan barcha noz-ne‘matlardan to‘liq foydalanishni hohlaydi. Lekin, aql-zakovat va tafakkur imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olmaydi. Umuman olganda, musavvir bu kartinasi bilan inson o‘ziga bergan eng oliy ne‘mat – aql-zakovati, undan to‘g‘ri foydalanish nimalarga erishishini ifodalagan ko‘rinadi. Panjara esa sayyoramiz bilan koinot, borliq bilan cheksizlik, yorug‘lik bilan qorong‘ulik o‘rtasidagi yengil (o‘tib bo‘lmaydigan darajada emas) to‘siq, chegara misolida keltirilgan. Inson tafakkuri

yer bilimn samo o'rtasida ko'rsatilgan panjaralardan o'tib yuksak cho'qqilarni egallashi mumkin.



Ibtido. Qo'qon teatri foyesiga ishlangan surat (fragment)

Mash'aladan sochilayotgan cho'g'larning ba'zilari ko'kka ko'tarilib yulduzlarga aylanyotganligi, ba'zilari esa pastga tushib yo'qolib ketayotgandek tuyuladi. Ayniqsa, panjaraga yaqinroq yulduzlarga qarasangiz shunday hissiyot tug'iladi. Bu bilan musavvir har bir inson o'z bilimi bilan yulduzdek porlashi, yoki cho'g' bo'lib bir yonib, tez o'chib qolishi mumkinligini ham ko'rsatayotgandek.

2008 yilda san'atshunos Tursunali Qo'ziev "U o'z dunyosini o'zi yaratdi" maqolasida shunday yozgan edi: "Estetika va plastika san'atining xilma -xil fantastik tajribalari bilan Bahodir Jalolovning ijodi uning asarlariga singib ketgan ichki uslubiy yaxlitlikka ega, grafika va monumental pannolari yaratilish vaqtidan qat'i nazar, uning badiiy falsafasiga hayratlanarli izchillik va mantiq beradi ... O'ziga xos

iste'dodga ega bo'lgan rassomni nafaqat vatanida balkim, uning sarhadlaridan tashqarida ham sevib, ardoqlashadi".



Xalq ustasi Muxiddin Raximov portreti.

**Mustaqil ish uchun vazifa.** B.Jalolov, J.Umarbekov, A.Mirzaev,  
R.Matevasyanlarning ijodiy asarlarini o'rganish va badiiy tahlil qilish. Mavzuli  
kompozitsiya asosida qoralama eskizlar ishlash

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. B.Jalolov "Raqsnig tug'ilishi" asarini qayerda ishlagan?



2. B. Jalolov birinchi badiiy ta'limni kimdan olgan?
3. Bahodir Jalolov Rossiya Badiiy akademiyasi akademigi unvoniga qachon sazovor bo'lgan?
4. Bahodir Jalolov avangardizm yo'nalishidagi qanday abstrakt kompozitsiyalarini yaratgan?
5. Bahodir Jalolovning o'zbek xalqining ziyolilari portretini ishlagan qanday asarlari bor?

## **BIR YOKI BIR NECHA KISHILAR ISHTIROK ETGAN MAVZULI**

### **KOMPOZITSIYA ISHLASH (tarixiy)**

**Mashg'ulot turi: amaliy.**

**Tasvirlash vositalari:** Moybo'yoq, № 2, 4, 8, 14 o'lchamdagi mo'yqalamlar, 75x60 o'lchamdagi tagromga tortilgan xolst, eritgich (razbavitel, skipidar), moybo'yoq, bo'yoq aralashtir uchun palitra, yumshoq xolst yoki salfetka, eritma uchun maxsus idish, mo'yqalamlarni yuvish uchun idish va uayt-spirit

**Izoh:** tasvir 60x75 o'lchamli xolstda bajariladi.

**Mavzu rejasi:**

**9-hafta, 4 soat.**

1. O'ylangan kompozitsiya asosida qoralama eskizlar ishlash.
2. Format tanlash, kompozitsiyani xolstga tushirish.
3. Alohida personajlarning plastik harakatini aniqlash.
4. Kompozitsiyada mavzuga monand muhitni yaratish.
5. Kompozitsiyadagi rang-tus munosabatlari tahlili;
6. Yorug'lik, atrofdagi buyumlar, fazoviy muhitning kompozitsiyaga ta'sirini ko'rsatish;
7. Kompozitsiyada muvozanat, rang garmoniyasi, kontrastlik, ritmga ye'tibor berish.
8. Obektlarning fazodagi o'rni topish.
9. Kompozitsiyada asosiy g'oyani ochib berish.
10. Tasvirni umumlashtirish va yakunlash.

**Jami 26 soat**

**Tayanch iboralar:** *portret, muvozanat, yaxlitlik, perspektiva, obraz, rang garmoniyasi, kontrastlik, ritm, fazoviylik, kartina markazi.*

**Bir yoki bir necha kishilar ishtirok etgan mavzuli kompozitsiya ishlash (tarixiy)**

Bir yoki bir necha kishilar ishtirok etgan mavzuli kompozitsiya ishlash (tarixiy) naturadan farqli ravishda o'z g'oyalari bo'yicha o'ylangan syujetga asoslanadi.

Kompozitsiya ishlashdan avval ijodkor har doim nimani chizish va o'z fikrini tomoshabinga qanday yetkazish muammosini hal qilib olishi zarur. Shuning uchun ham jiddiy kompozitsiya ishlashdan avval o'z g'oyalarini eskizlarda pishitib olinadi. Mahorat bilan bajarilgan har qanday tasvirni (hattoki qalamchizgini ham) noto'g'ri tuzilgan kompozitsiya bilan buzib qo'yish mumkin. Kompozitsiya faqat surat tekisligida obektlarni mahorat bilan joylashtirish, umumiylikka birlashtirib, yaxlitlikka erishishni maqsad qilmaydi. Balki, tomoshabin e'tiborini ushbu kompozitsiyaga faol jalb qilish demakdir. Ko'pincha rassom o'z hissiyotiga tayanib to'g'ri kompozitsiyani izlab topadi, bu esa ijodkordan kuchli hissiy qobiliyatni talab qiladi. Lekin bu bilan birga oldinga qo'yilgan vazifani faqat hissiyot bilan emas, mukammal asar tinimsiz mehnat, eskizlar vositasida izlanishlar mahsuli ekanligiga ishonch hosil qilishimiz mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, har qanday kompozitsiya eskizlar orqali izlanish, g'oya va to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish mahsulidir.

Buni Leonardo Da Vinchi, Mikelandjelo, Rafael, Rubens, Van Gog, Edgar Dega, K. Bryulov, Ivanov, V. Perov, I. Repin, Surikov, A. Savrasov, V. Serov kabi mashhur rassomlarning kartina yaratish yo'lidagi eskizlardagi izlanishlarini misol qilib keltirish mumkin.

Siz bilan quyida rus rassomi V. Surikovning "Boyar ayol Morozova" kartinasi uchun bajarilgan ayrim eskizlar bilan tanishamiz. Ushbu eskizda rassom kartina syujeti, undagi ob'ektlarning o'lchami va o'zaro nisbatlari, qahramonlarning kompozitsiyadagi o'rni, yorug'-soya munosabatlari, ijodiy asardagi asosiy va ikkinchi darajali bo'laklarni o'z joyiga tushirish haqida o'ylaydi. Rangtasvir asari yaratish uzoq va mashaqqatli jarayon bo'lib, ayniqsa, eskiz ustida ishlashga ijodkorning vaqti ko'p ketadi.





*V. Surikov. "Boyar ayol Morozova" asariga eskizlar.*



*V. Surikov. "Boyar ayol Morozova" asari*

O‘zbekistondagi milliy maktab doirasida tasviriy san’atning boshqa turlari kabi tarixiy janr ham XX asrning ikkinchi yarmida jadal rivojlandi<sup>25</sup>. Mukammal asar yaratishga imkon beradigan muayyan qonunlar, qoidalar va tamoyillar mavjud. Bular personajlarning xarakterli xususiyatlari, ularning nigohi, mimik harakati, ruhiy holati, soya-yorug‘, rang-tus munosabatlari, chiziqli va fazoviy perspektiva bilan bog‘liq.



---

<sup>25</sup> Улуғбек Маматов Ўзбекистон маданиятида тарихий жанрдаги тасвирий санъат асарлари (XX аср иккинчи ярми – XXI аср бошлари). – Т.: 2018. – 230 б.



*Tarixiy mavzudagi kompozitsiya uchun dastlabki qoralama eskizlar (M. Nutfullayev 2-kurs magistri)*



*Tarixiy mavzudagi kompozitsiya uchun kompyuter texnologiyasida ishlangan eskizlar (M. Nutfullayev 2-kurs magistri)*




*Tarixiy mavzudagi kompozitsiya uchun rangli eskizlar (M. Nutfullayev 2-kurs magistri)*

***Muvozanat.***



Kartina hamma narsa kompozitsion muvozanatda bo'lishi kerak. Agar muvozanat buzilsa, u tomoshabinda asabiylikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun bunday hollarda qandaydir element yoki rang dog'lari yordamida muvozanat hosil qilinadi.



*Muvozanat*

Ushbu suratda ko'rib turganingizdek, chap tomonda muvozanat saqlangan. Kartina og'ishni sezmaydiz. O'ng tomondagi suratga qarasangiz, undagi pastki chap tomonida qayiq ko'pligi va suvdagi aksini to'qligi tufayli kartina chap tomonga og'ishni his qiladiz.

### 3. *Rang garmoniyasi*

Kartina mavjud ranglar bir-biriga va kompozitsiyaning asosiy g'oyasiga mos kelishi kerak.

Yaxlitlik, umumiyga bo'ysunish va muvozanat kompozitsiyaning asosiy qonuniyatlariga kiradi.

### 4. Yaxlitlik

Barcha elementlarning asosiyga bo'ysunishi va kartinaning umumiy idrok qilinishi kompozitsiyadagi yaxlitlikni belgilaydi.

Bu demak, unda ifodalanadigan obektlar sonining qanchaligidan qat'iy nazar sizning kompozitsiyangiz tomashabin tomonidan yaxlit idrok etilishi kerak. Bu yerda aynan obektlarning joylashishi juda muhim sanaladi. Ularning har biri tomashabinga alohida o'ziga xos zavq bag'ishlaydi, agar uni muvofiqlashtirilmasa - tasvir tarqoq xususiyatga ega bo'lib qoladi, kartinaning umumiy effektini kamaytirib, unda asabiy holatni yaratadi. Barcha elementlar g'oyaviy va fazoviy joylashishi jihatidan o'zaro bog'langan bo'lishi, kompozitsiya kir va xira emas, balki rang-barang bo'lishi lozim.

**Kontrastlik** turlari:

- o'lcham kontrasti (katta-kichik)
- rang kontrasti
- tus kontrasti (och-to'qligi)
- g'oyaviy kontrastlik.

Kontrastlik - bu tasvirni jozibador ifodalashning eng yaxshi vositasi hisoblanib, kompozitsiyadagi asosiy g'oyani bo'rttirib ko'rsatish, umumiy kayfiyatni ifodalashga yordam beradi. Agar barcha obektlar bir ko'lamda (nyuans) (bir xil o'lcham, bir xil rang yechimi, tuslarning bir-biriga yaqinligi) bo'lsa tomashabinning diqqatini jalb qiluvchi nuqta yo'qoladi, u ko'rishi mumkin lekin hech nimani tushunmaydi.

***Ritm***

Kompozitsiyadagi elementlar, rang dog'lari, chiziqlar, harakat unsurlarining bir maromda takrorlanishi ritm deyiladi.

• ***Kompozitsiya markazi.***

Aslida nigoh ko'proq kartinadagi qaysi nuqtaga yo'naltirilgan bo'lsa, aynan o'sha joyda kompozitsiyaning asosiy g'oyasi joylashgan bo'ladi. G'oyaviy markaz qoida bo'yicha ko'proq ikkinchi planda joylashadi. Birinchi planda tomashabin nigohini surat tekisligida asosiy g'oyaga «yo'naltiruvchi» obektlar joylashtiriladi

(fon, abstrakt naqshlar, ikkinchi darajali personajlar, manzara). Yuqorida aytilgandek, g'oyaviy markaz ajratib ko'rsatilishi uchun ko'pgina vositalardan foydalanish mumkin.

- Rasmdagi ko'z harakati (plastiklik).

Rassom tomoshabinning nigohini kartina tekisligida asosiy g'oya sari yo'naltirishi, tomoshabin diqqatini kerakli traektoriya bo'ylab, rasmning bir elementidan ikkinchisiga o'tkazishga majbur qilishi mumkin. Ko'z harakatining bunday harakatlanishi tomoshabinga kompozitsiyani aniq va yaxlit idrok etish, uning g'oyasini "o'qish" imkonini beradi.

Ijodkor bunday ko'nikmalarga ega bo'lishi uchun avvalo yetarli nazariy bilim, hamda amaliy va ijodiy tajribalarga ega bo'lishi kerak.

Biz siz bilan va kartina eskizini bajarish ketma-ketligini ko'rib chiqamiz.

Eskiz - turli grafik vositalar yoki rangda ifodalangan rangtasvir kompozitsiyasining asosiy g'oyasi hisoblanib, rassomning kartina yaratish uchun ijodiy izlanish jarayonidir.

Eskiz qisqa muddatli qalamchizgi, qoralama, ranglavha ko'rinishda bo'lib, naturadan qarab yoki tasavvur orqali ham bajarilishi mumkin. Tugallangan kartinaga nisbatan mazmunining umumiyligi, ixcham ijro uslubi va o'lchami kichikligi bilan farq qiladi. Oddiy, oq-qorada yoki rangda bajarilgan eskizlar orqali kartinadagi yorug'-soya munosabati, rang dog'laridan iborat rang-tuslar yechimi hal qilinadi.

Rassom bitta san'at asari yaratishi uchun turli materiallarda ko'plab eskizlar, ranglavhalar bajarishiga to'g'ri keladi. Unda matoda kompozitsiya elementlarini to'g'ri joylashtirish bilan birga alohida personajlarning tashqi ko'rinishiga oid xarakteri, holati, anatomik xususiyati, gavda va qo'l harakati, yuz mimikasi hamda uning ichki dunyosini aniqlab olishi lozim.

Rangtasvir asari yaratish uchun ijodkor avvalom bor kompozitsion texnikani yaxshi tushunib olishi kerak.

### ***1-qadam. G'oya***

Bir yoki bir necha kishilar ishtirok etgan mavzuli kompozisiya eskizini chizishni boshlashdan avval uning g'oyasini yaxshilab o'ylab ko'ring. Tanlagan mavzuvingiz bo'yicha adabiyotlar bilan tanishing. Xuddi shu mavzuda avval mashhur rassomlar tomonidan ishlangan kompozisiyalarni o'rganing. Tasvirlamoqchi bo'lgan davr, muhitga mos kiyimlar, buyumlar haqidagi ma'lumotlarni to'plang. Shu bilan birga har xil variantdagi eskizlar bajarish orqali o'z g'oyangizni amalga oshirishga harakat qiling. Bajargan eskizlaringiz ichidan o'ylagan g'oyangizni to'liq ochib bera oladigan eng ma'qul variantni tanlab, asosiy ishga o'tishingiz mumkin.



*V.D. Polenov. "Xristos va gunohkor ayol" kartinasining grafik eskiz varianti*

### **2-qadam. Format tanlash**

Eskiz aniq bo'lgandan so'ng so'ng kompozisiya uchun format tanlang. Ushbu format siz o'ylagan fikringizni yaxshiroq ochib berishiga ishonch hosil qiling.

Siz bitta formatda to‘xtab qolmaslikka harakat qiling, format tanlaganingizdan keyin ham aniq to‘xtamga kelish uchun tajriba sifatida eskizlarni turli formatda bajarib ko‘ring.

### ***3-qadam. Personajlarning kartinadagi o‘lchamini aniqlash***

Endi aniq formatda tasvirlanadigan personajlar o‘lchami haqida o‘ylab ko‘ring. Bu yerda faqat ob'ektning tafsilotlarigacha maydalab tasvirlash emas, balki kompozitsiyadagi harakat, muhit, tasvirlanayotgan butun voqelikni to‘g‘ri topilgan syujet va ranglar orqali bera olish juda muhim. Har qanday kompozitsiya avvalo naturadan ranglavha va eskizlar ishlashdan boshlanar ekan dastlab, rassomning nigohi doimo modelning yuziga qaratiladi, keyin figuraning silueti idrok qilinadi va yana nigoh yuzga qaratiladi. Modelni bunday idrok etish jarayonida rassom naturadan hissiy, tasviriy, obrazli-majoziy, mantiqiy kabi juda ko‘p hissiy ma’lumotlarni oladi<sup>26</sup>.

### ***4-qadam. Obektning fazodagi o‘rnini topish.***

Mazmunini ochib berish maqsadida har bir personajni kompozitsiyaning turli burchaklarida joylashtirish mumkin. Fazoviylikni ifodalashda ritm kompozitsiyadagi yaxlitlikka xizmat qiladi, ayni paytda uni alohida qismlarga ajratish vazifasini ham bajaradi. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, ritm kompozitsiyaning alohida qismlarini "xususiylashtirish" omilidir<sup>27</sup>.

Asosiy qahramonning markazda joylashtirilishi mantiqan eng oddiy usul hisoblanadi. Bu bilan tomashabinning nigohi birinchi bo‘lib kompozitsiya markaziga qaratiladi.

Formatning chetida. Agar biz ob'ektni formatning bir chetiga joylashtirsakda, shu bilan birga markazda yana boshqa ob'ekt bo'lsa, u holda bizning e'tiborimiz o‘z-o‘zidan markazga qarab intiladi. Chetdagi asosiy obekt e'tiborda uzoqlashadi. Biroq, kompozitsiya markazi bo'sh bo'lib, asosiy obektni ramkaga yaqin chekkaga

---


<sup>26</sup> Шаляпин, О.В. Портретная живопись на художественных факультетах педагогических вузов: монография / О.В. Шаляпин. – Новосибирск: Изд. НГПУ, 2022. – 200 с.

<sup>27</sup> Шаляпин, О.В. Портретная живопись на художественных факультетах педагогических вузов: монография / О.В. Шаляпин. – Новосибирск: Изд. НГПУ, 2022. – 200 с.

joylashtirish mumkin. Bu holda u juda qulay pozitsiya hisoblanadi va darhol tomashabinning e'tiborni tortadi. Bu holatda tomashabinning nigohi kartina chekkasidagi obektga qaratiladi va shu joydan boshqarilib, e'tibor kompozitsiya ichiga qarab yo'naltirildi.

Pastki o'ng burchakka qo'yilgan ob'ekt yuqori chap burchakda tasvirlangan xuddi shunday ob'ektga nisbatan og'irlik qiladi va muvozanat buziladi. Ushbu muvozanatni tiklash uchun chap tomonga to'qroq ranglar yoki elementlar bilan boyitish kerak bo'ladi.

Ob'ektni kartinaning oltin kesim chizig'iga joylashtirish yana bir to'g'ri variant hisoblanadi. Oltin kesim chizig'ida turgan obekt tomashabin tomonidan ijobiy idrok etilib, kompozitsiyadagi uyg'unlik va mutanosiblikni kuchaytiradi.



*Kartinada harakat holatini yaratish*

Diagonal. Yuqoridagi surat da muvozanat va harakatlarni yaratish usullarini ko‘rib turibsiz. Shar chekkada joylashsada, yuqoridan chapdagi suratda muvozanat holati seziladi. Keyingi o‘ng tomondagi suratda yengil harakat, pastdagi chap tomondagi suratda tez harakatni ko‘ramiz. Pastda o‘ng tomondagi suratda qizil chiziqning tikligi va shar qirraga juda yaqin bo‘lganligi sababli tomoshabinda harakat juda tez sodir bo‘layotganidek hissiyot tug‘iladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, kartinadagi har qanday diagonal joylashgan chiziqlar, elementlar kompozitsiyaga harakat holatini o‘rnatadi.

Yuqorida aytilgan kompozitsiya qonuniyatlarini yaxshi tushunish, mustaqil nazariy qismlarini o‘rganish, undan to‘g‘ri foydalanish har qanday kompozitsiya, shuningdek, vir yoki bir necha kishilar ishtirok etgan mavzuli kompozitsiya ishlashingizda ham yordam beradi deb ishonamiz. Rang-tus munosabatlari bilan ishlash omillari umumiy ko‘rinishdan alohida mayda bo‘laklarga ishlov berishda iliq va sovuq tuslarning nisbatini olib yaxlit ishlashga yordam beradi. Bundan tashqari, to‘g‘ri olingan kolorit orqali ma‘lum bir yaxlitlikni (uyg‘unlikni) ifodalash mumkin, chunki u rangtasvirdagi rang munosabatlari tizimidir. Yaxlitlik o‘zaro bog‘langan alohida mustaqil elementlar to‘plamining mavjudligini anglatadi.

Kolorit - bu asarning optik yaxlitligi sifatida qabul qilinadigan, tomoshabinga hissiy ta‘sir ko‘rsatadigan, ob‘ektiv ma‘noga ega bo‘lgan, kompozitsiyaning umumiy tuzilishi va asar g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘lgan rang munosabatlarining ma‘lum bir tizimi hisoblanadi<sup>28</sup>. Realistik tasvirni umumlashtirish juda muhim va massalarning umumiy nisbatining olinishi keyingi bosqich uchun yaxlitlikni belgilaydi.

### ***Mustaqil ishlash uchun vazifalar:***

1. Taniqli rassomlarning bir yoki bir necha kishilar ishtirok etgan mavzuli kompozitsiya (tarixiy) asarlarini talqin qilishni o‘rganish ulardan nusxa ko‘chirish.

---

<sup>28</sup> Шаляпин, О.В. Портретная живопись на художественных факультетах педагогических вузов: монография / О.В. Шаляпин. – Новосибирск: Изд. НГПУ, 2022. – 200 с.

2. Mavzu bo'yicha o'ylangan kompozitsiyaning grafik materiallarda oq-qora eskizini (karton) bajarish.

3. Mavzu bo'yicha grafik ashyolarda va rangda eskizlar bajarish.

4. Mavzu bo'yicha alohida personajlarning plastik harakatini aniqlaydigan ranglavhalar bajarish.

5. Kompozitsiyada mavzuga monand muhitni yaratish uchun naturadan interyer ko'rinishi ranglavhasini bajarish.

6. Muvozanat, rang garmoniyasi, kontrastlik, ritm va boshqa kompozitsiya qonuniyatlarini ilmiy manbaalardan o'rganish.

7. Obektlarning fazodagi o'rmini topish va kompozitsiyada asosiy g'oyani ochib berishga oid ranglavhalar bajarish.

8. Chingiz Ahmarov asarlaridan nusxa ko'chirish, ularni kompozitsion jihatdan tahlil qilishni o'rganish.

9. Yevropa va jahon rassomlari ijodida tarixiy mavzuda kompozitsiya ishlash usullarini o'rganish va tahlil qilish.

10. O'zbekiston rassomlari ijodida tarixiy mavzuda kompozitsiya ishlash usullarini o'rganish va tahlil qilish.

### **Nazorat savollari:**

1. Kompozitsiyaning asosiy 3 ta qonuniyatlarini bilasizmi?

2. Eskiz nima?

3. Qanday kontrastlik turlari mavjud?

4. Ritmning ta'rifi nima?

7. Kompozitsiyada format qanday ahamiyatga ega?

8. V. Surikovning qanday asarlarini bilasiz?

9. Kompozitsiyada harakat kerakmi?

10. Kompozitsiyaning asosiy g'oyasi qaerda joylashadi?

11. Kompozitsiyada qanday qilib umumiy yaxlitlikka erishish mumkin.



## O‘TILGAN MAVZULAR BO‘YICHA TEST SAVOLLARI

Quyidagi havola yoki tezkor javob kodi (QR) orqali o‘rgangan materiallarni mustahkamlash, test savollarini ishlab ko‘rish orqali o‘z bilimlaringizni sinab ko‘rishingiz mumkin:

1. *Tasviriy san’at kompozitsiyasi fanidan testlar.*

*<https://fineart.cspi.uz/2023/tasviriy3/>*



## ATAMALAR

Atamaning o‘zbek tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning ma’nosi
<b>Abris</b>	<b>Абрис</b>	<b>Abris</b>	(nemischa – abriß – chiziq, xomaki rasm)– kalka, o‘ta yupqa materiallarga tushiriladigan kontur tasvir. Abris ko‘p rangli asar originalining tus va ranglari chegarasini aniqlaydi
<b>Avtoportret</b>	<b>Автопортрет</b>	<b>Self-portrait</b>	(yunon. autos - o‘z, frans. portrait - tasvir) Portret janrining bir turi. Avtoportretda rassom yoki haykaltarosh o‘zini o‘zi tasvirlaydi.
<b>Akademizm</b>	<b>Академизм</b>	<b>Academicism</b>	Qadimgi dunyo va Uyg‘onish davri san’ati shakllariga taqlid etishga asoslangan, burjua badiiy akademiyalarida rasmiylashgan dogmatik oqim. Akademizm klassik metod va syujetlarni asosiy shart qilib qo‘yib, san’atdan zamonaviylikni chetlashtirdi. Akademizmning qadimiy an’analarga va yuksak madaniylikka tayanishi,

			ta'limotning kuchli tomonlaridan biridir.
<b>Akvarel</b>	<b>Акварел</b>	<b>Watercolor</b>	(fr. <i>Aquarelle</i> - suvli; ital. <i>acquarello</i> ) - rangtasvir ashyosi bo'lib, maxsus suv bo'yoqlaridan foydalanuvchi, suvda yerigan holatida yupqa shaffof suspenziya hosil qilish orqali tasvirga yengillik, qulaylik va nozik rang o'tish ta'birini yaratib beradi.
<b>Aksent</b>	<b>АКСЕНТ</b>	<b>Accent</b>	(lotincha so'zdan. <i>Accentus</i> – urg'u) – tasvirlanayotgan gavda, yuz, shakl bo'laklarini tomashabin e'tiborini jalb qilish maqsadida rangda, chiziqlarda va tuslash usuli bilan bo'rttirib ko'rsatish.
<b>Akril</b>	<b>Акрил</b>	<b>Acrylic</b>	sintetik bo'yoq, birinchi marotaba 1940 yilda yog' va akvarelning qo'shib ishlanishi natijasida hosil bo'lgan. Ko'p hollarda turli xil– tiniq ranglardan to mo'yqalam zarbalaridan hosil bo'lgan

			natijalarni olish uchun qoʻllaniladi.
<b>Alla prima</b>	<b>Алла-прима</b>		ital. («a-lya prima»). Tasviriy sanʼatda, xususan, rangtasvirda «namligicha yozish» usulida va yana ishlanadigan tasvir hech bir yordamchi chizmalarsiz ishlanadi.
<b>Alfresko</b>	<b>Алфреско</b>	<b>Alfresco</b>	nam suvoq ustiga suvda qorilgan boʻyoqlar bilan ishlanadigan tasvir. Bu qadimgi rus sanʼatida keng qoʻllanilgan.
<b>Animalizm</b>	<b>Анимализм</b>	<b>Animalism</b>	(lot-jonivor, hayvonot) tasviriy sanʼatda xayvonlar, jonivorlarni ishlash.
<b>Asosiy ranglar</b>	<b>Основные света</b>	<b>The main</b>	rassomlikda asosiy deb qabul qilingan uchta rang - qizil, sariq va koʻk.
<b>Assimetriya</b>	<b>Ассиметрия</b>	<b>Asymmetry</b>	simmetriyasizlik (nomutanosiblik, biror buyum qismlarining, boʻlaklarining maʼlum bir nuqta, chiziq yoki tekislikka nisbatan bir-biriga

			o'xshamasligi, munosib kelmasligi).
<b>Atribut</b>	<b>Атрибут</b>	<b>Attribute</b>	(lot. attribuo - bag'ishlayman) – san'atda – shaxs, qaxramon iloxning eng muxim moddiy alomati. Masalan, antik san'atda gerakl atributi – gurzi.
<b>Axromatik rang</b>	<b>Ахроматиче ские света</b>	<b>Achromatic color</b>	(yunon. achrimatos - rangsiz) bu ranglar bir biridan yorug'lik kuchi bilan farqlanadi. Axromatik ranglarga oq, qora va kul rangning barcha turlari kiradi.
<b>Badiiy akademiya</b>	<b>Академия художеств</b>	<b>The Academy of Fine</b>	tasviriy san'atning eng yirik namoyandalari uyushmasi... san'at masalalari bilan shug'ullanuvchi ilmiy nazorat markazi – muassasa... oliy badiiy o'quv yurti. Birinchi «akademiya» XVI asrda Italiyada vujudga kelgan.
<b>Badiylik</b>	<b>Художествен ный</b>	<b>Artistic</b>	San'at asarlarining mezonini, o'lchovi.

<b>Badiiy obraz.</b>	<b>Художественный образ</b>	<b>artistic image</b>	San'atning o'ziga xos spesifik tomonlaridan biri shuki, unda real borliq badiiy obrazlarda namoyon bo'ladi. Badiiy obraz real voqelikning ijodkor
<b>Batalist</b>	<b>баталист</b>	<b>battle painter</b>	jang manzaralarini tasvirlovchi rassom.
<b>Biennale</b>	<b>Биеннале</b>	<b>Biennale</b>	ikki yilda bir marotaba o'tkaziladigan madaniy - ommaviy san'at festivali.
<b>Grizayl</b>	<b>Гризайль</b>	<b>Grisaille</b>	(frantsuzchadan Grisaille – gris so'zidan «kul rang» ma'nosini anglatadi) – bu rangtasvir turi hisoblanib, bir yoki ikki rangda ishlanadigan, ko'pincha jigarrang yoki kul ranglarda tasvirlanadi hamda bu arxitektura va haykaltaroshlik yelementlarini qog'ozga tushirish texnikasi hisoblanadi. Grizaylda buyumning faqat tusi hisobga olinib, rangini yesa ahamiyati yo'q.
<b>Guash</b>	<b>Гуаш</b>	<b>Gouache</b>	(fr. Gouache, ital. guazzo suv bo'yog'i, shovullash ma'nolarini anglatadi) – akvarelga qaraganda qalinroq va xira bo'lib, suvda yeriydigan yelimli bo'yoqlar turiga kiradi

<b>Dizayn.</b>	<b>Дизайн</b>	<b>Design</b>	(ing. Design loyihalash). Buyumlarni badiiy loyihalashtirish, go‘zallik, tejamkorlik va qulaylik prinsiplarigga asoslangan sanoat buyumlari, mashina, moslamalar, uskunalar, intererlarning estetik ko‘rinishini loyihalashtirish
<b>Dinamik</b>	<b>Динамика</b>	<b>Dynamic</b>	harakatdagi, tez o‘zgaruvchan (holat).
<b>Diorama</b>	<b>Диорама</b>	<b>Diorama</b>	(grek. gia— ichkari, horama — ko‘rinish)—tasviriy san‘atning ko‘rinishlaridan biri. Boshqa badiiy vositalar bilan to‘ldirilgai rangtasvir. (Masalan, teatr dekoratsiyasi).
<b>Diptix</b>	<b>Диптих</b>	<b>Diptych</b>	(grek.diptychos ikki marta taxlangan). Ilk marotaba qadimgi Gretsiya va Rimda uchragan, ikkita yog‘och, bronza yoki fil suyagidan tayyorlangan yozuv taxtachasi, ular maxsus suyuqlik bilan qoplangan va birlashtirilgan. O‘rtaasrlarda Yevropada diptix yez yuzi tasviri yoki tasviriy san‘at asari bilan ikki taraflama taxlangan. Keyinroq diptix-ikki qismdan iborat asarga aylandi.

<b>Drapirovka</b>	<b>Драпировка</b>	<b>Drapery</b>	fon uchun ishlatiladigan har xil rangli materiallar, gazlamalar.
<b>Екорше</b>	<b>Екорше</b>	<b>Ekorshe</b>	(frants. Ecorche– “shilip olingan” ecorce– “jild”) – o‘quv jumla, odamning muskullari yuzaga chiqarilgan terisiz qomati
<b>Ekspozitsiya</b>	<b>Экспозиция</b>	<b>Exposure</b>	rassomlarning, haykaltaroshlarning ijod maxsuli, ishlangan ishlar, yasalgan haykallarning maxsus bino inshootlarda ochiq havoda o‘tkaziladigan ko‘rgazmasi.
<b>Eksterer</b>	<b>Экстерьер</b>	<b>Exterior</b>	(lot. Exterior - sirtqi, tashqari) bino tashqi ko‘rinishining tasvirlanishi.
<b>Eskiz</b>	<b>Эскиз</b>	<b>Sketch</b>	(frans. esquisse)- rassom ishlamoqchi bo‘lgan asari yoki tasvirning oldindan qilingan taxminiy ishi.
<b>Yorug‘ - soya</b>	<b>Светотен</b>	<b>Chiaroscuro</b>	Biron-bir buyumning yorug‘-soyasini aniqlashdagi grafik munosabat.
<b>Yorqinlik</b>	<b>Яркость</b>	<b>Brightness</b>	bu yarqiraётgan (ёki nur sochaётgan) jismning xarakteristikasi бо‘либ, qandaydir yo‘nalishdagi ёrug‘lik kuchining yarqiraётgan sirtning shu yo‘nalishga



			perpendikulyar bo'lgan tekislikka tushayotgan proeksiyasining (tasvirining yoki aksining) maydoni nisbatiga teng.
<b>Faktura</b>	<b>Фактура</b>	<b>Texture</b>	(lot. Facture – qayta ko'rib chiqish, qurish) – badiiy asarni his qilish hossalri, butun borliqning haqqoniy tasviri vositasi sifatida qo'llanilgan.
<b>Fon</b>	<b>Фон</b>	<b>Background</b>	fon, zamin, tag; (ko'm-ko'k osmon fonida, rangli xolst fonida) suratlarda eng oxirigi orqa plan rangini bildiruvchi ibora.
<b>Fragment</b>	<b>Фрагмент</b>	<b>Fragment</b>	(lot. – bo'lak, qirqim)-nobud bo'lgan san'at asarining saqlanib qolgan bir bo'lagi.
<b>Janr</b>	<b>Жанр</b>	<b>Genre</b>	(fran.genre xil, tur). San'atning har xil turlarida ichki bo'linishlarini anglatuvchi atama, badiiy asarlarni mazmuni va shakli, badiiy obrazning kelib chiqish belgilariga ko'ra turlarga ajratadi. Tasviriy san'atda rasmning predmetiga ko'ra farqlanadi: portret, manzara, maishiy janr, interer, natyurmort, tarixiy janr, batal janr yoki tasvirlanayotgan obektni

			o'xshatish hususiyatiga ko'ra: karikatura, sharj, kamera portreti.
<b>Ilustrasiya</b>	<b>Иллюстрация</b>	<b>Illustration</b>	(lotn. Illuustratsion) - yoritish, ko'rgazmali tasvirlash-kitob, jurnal, gazeta matniga qo'shimcha tarzda beriladigan, uni to'ldirishga, matn malumotlarini ko'z o'ngida gavdalantirishga xizmat qiladigan surat, rasm, reproduksiya, shuningdek, kartina, sxema va turli tasvirlar.
<b>Impressionizm</b>	<b>Импрессионизм</b>	<b>Impressionism</b>	(fran.impressionisme, impression – taassurot) – XIX asr oxiri XX asr boshlarida san'at yo'nalishi, fransuz tasviriy san'atida shakllandi. Haqiqiy dunyoni ng harakatlari va o'zgarishlarini, o'tkinchi taassurot sifatida yetkazib berishga harakat qilinadi, impressionist rassomlar plener tizimini yaratishdi; ular refleks va rangli soyalarni aniq qilib “toza rang” mazkalarida yaratishdi. XIX asr oxiri XX asr boshida san'at yo'nalishi.
<b>Interer</b>	<b>Интерьер</b>	<b>Interior</b>	(fran. interieur – ichki) arxitekturada, butun bir binoning

			<p>yoki uning qismlarining (yo‘lak, xonalar, eski binolarda xor zali va boshqalar) ichki qismi.</p> <p>Arxitektura intererining badiiy ta’sirchanligi, uning shakllari va qismlarining mutanosibligi, dekorativ bezaklari bilan aniqlanadi. Tasviriy san’atda interer – bu janr, uning asosini esa binolarning ichki qismini tasvirlash tashkil etadi.</p>
<b>intuitsiya</b>	<b>Интуиция</b>	<b>intuitsiya</b>	<p>His qilish, oldindan sezish, biron bir narsaning mohiyatini nozik his qilish. Kishilardagi yuqori sezgirlik qobiliyati</p>
<b>Intensivlik</b>	<b>Интенсивно ст</b>	<b>Intensity</b>	<p>ranglarning zichligi, to‘yinganligi, to‘qligi, ravshanligi va hokazolar, xristianlarda xudo yoki avliyolar tasvirlangan surat.</p>
<b>Илиq rang</b>	<b>тёплый свет</b>	<b>Warm color</b>	<p>(Issiq rang)- olovni, qizigan jismlami, quyoshni eslatuvchi sariq ,to q sariq ,sarg‘ish, zarg‘aldoq va qizil rang kabilar.</p>
<b>Yarimsoya</b>	<b>Полутон</b>	<b>Penumbra</b>	<p>Hajmli buyumning yuza qismidagi soya-yorug‘ning, soya</p>

			va nurning o‘rtasidagi rang birligi
<b>Kapitel</b>	<b>Капител</b>	<b>Capital</b>	( <u>lotincha</u> caput) – ustun yoki, plyastri bog‘lovchi qism. Kapitel ustundan bo‘rtib chiqib, ustunga o‘zgacha ko‘rk beradi.
<b>Kartina</b> tekisligi	<b>Картина</b>	<b>Painting</b>	tasvir chizilayotgan sath, mato, polotno, qog‘oz yuzasi.
<b>Karton</b>	<b>Картон</b>	<b>Cardboard</b>	(fran.carton, ital.cartone, carta – qog‘oz). 1. Qalin, qattiq va juda pishiq qog‘oz, oddiy qog‘ozdan qalin. Qog‘ozga tushirilgan rasm, eskiz, keyin u o‘zakka tushiriladi (mato, devor, yog‘och yoki metal tekislik).
<b>Klassitsizm</b>	<b>Классицизм</b>	<b>Classicism</b>	XVII-XIX asr boshlarida yevropa san‘atida badiiy uslub. Tarixga estetik nazar bilan qarash. Uyg‘onish davri an‘analarini davom ettirish (insoniyat aqlining kuchiga ishonch, uyg‘unlik va meyor ideallari)
<b>Kolorit</b>	<b>Колорит</b>	<b>Coloring</b>	(ital.colorito, lot.color-bo‘yoq, rang) rasmdagi bo‘yoqlar mutanosibligi, ularning o‘zaro aloqasi, rang va uyg‘unligiga ko‘ra ranglarning mosligi. Iliq,

			sovuq va yorqin kolorit. Koloritning tashqi tasviri – asarda ranglarning yorqinligi va uygʻunligi.
<b>Koloristika</b>	<b>Колористика</b>	<b>Koloristika</b>	rang haqidagi fan boʻlib, ranglar tabiati, asosiy, tarkibiy (tashkil etuvchi) va qoʻshimcha ranglar, ranglarning asosiy xarakteristikalarini, rang kontrastlari, ranglar aralashuvi, kolorit, ranglar uygʻunligi, ranglar tili va ranglar madaniyati haqidagi bilimlarni oʻz ichiga oladi. Ranglar dunyosi qonunlari ranglar bilan doʻstlashish yoki doʻstlashmaslikni aniqlab beradi
<b>Kompozitsiya</b>	<b>Композиция</b>	<b>Composition</b>	(lot.composition – tuzish) – badiiy asarni uning mazmuni va hususiyatiga koʻra tuzish. Kompozitsiya asarga oʻziga hoslik va butunlik bahsh etuvchi badiiy shaklning muhim elementi hisoblanadi.
<b>Komponovka</b>	<b>Компоновка</b>	<b>layout</b>	chizilishi lozim boʻlgan naturani, manzarani va boshqalarni qogʻozga toʻgʻri, chiroyli joylashtirish.

<b>Kompozitsiya (tasviriy san'atda)</b>	<b>Композиция</b>	<b>Kompozitsiya (izobrazitelnom iskuutve)</b>	Bu badiiy shaklni mujassamlashtiradigan, asarga birdamlik va yaxlitlik beruvchi, rassom g'oyasi elementlarini bir-biriga jipslashtiruvchi narsa
<b>Lokal rang</b>	<b>Локальный свет</b>	<b>Local color</b>	tasviriy san'atda: jilosidan mahrum bo'lgan rang, buyumning asl rangi. O'rta asrlar, Ilk Uyg'onish davri, klassisizm, ekspressionizm, kubizm. Impressionizm tomonidan rad etilgan.
<b>Manzara</b>	<b>Пейзаж</b>	<b>Paysage</b>	(fr. <i>Paysage</i> , pays dan — o'lka, atrof) – tasviriy san'at janri (hamda bu janrning alohida asarlari) bo'lib, tasvirning asosiy buyumi u yoki bu darajada inson tomonidan o'zgartirilgan tabiatdir.
<b>Mato (xolst)</b>	<b>Холст</b>	<b>Sanvas</b>	Rangtasvirda – maxsus ishlov berilgandan so'ng moy bo'yoq yordamida ustiga ishlanadigan qalin zig'ir yoki paxtadan to'qilgan dag'al mato
<b>Maishiy janr</b>	<b>Бытовой жанр</b>	<b>The domestic genre</b>	kundalik turmushda uchraydigan xodisalarni o'zida aks ettirgan tasviriy san'atning bir ko'rinishi.

<b>Miniatura</b>	<b>Миниатюра</b>	<b>Miniature</b>	(fran.miniature, ital. miniature, lot.minium - qizil rang, unda qadimda qo‘lyozma kitoblar bo‘yalgan), tasviriy san‘at asari, katta o‘lchamlari va badiiy usulning nozikligi bilan ajralib turadi. Ilgari qo‘lda turli rangdagi guashlar, akvarel va boshqalar yordamida chizilgan ramslar, qo‘lyozma kitoblarga bo‘yoq berish, shuningdek qo‘lyozma lavhalari va boshqalar.
<b>Modelirovka</b>	<b>Моделировка</b>	<b>Modeling</b>	(ital.-davolamoq) – badiiy amaliyotda: u yoki bu yorug‘likda relief, tasvirlanayotgan predmet shaklini yetkazib berish. Rasmda modelirovka rang (nur va soya) yordamida amalga oshiriladi, o‘z navbatida shakllarning muntazam o‘zgarishi ham hisobga olinadi. Tasviriy san‘atda shakl ranglar bilan shakllantiriladi, chunku bu yerda ranglarning barcha taraflari o‘zaro bog‘langan. Haykaltaroshlikda modelirovkada yasash jarayoni

			va uch o'lchamli shakllarni ishlash tushuniladi.
<b>Modernism</b>	<b>Модернизм</b>	<b>Modernism</b>	XX asr qator badiiy yo'nalishlarining umumiy nomi, an'analarni uzish va yangi mezonlarni tasdiqlashni bildiradi. Asosan avangard yo'nalish: fovizm, kubizm, futurizm, mavhum san'at, syurrealizm, pop-art, minimalizm, giperralizm.
<b>Mol'bert</b>	<b>Мольберт</b>	<b>Easel</b>	(nem.malbrett – rassomlik san'ati uchun tokcha) – rassomlik san'ati uchun taxta yoki metal uskuna, turli balandlikda va turli nishablikda mato, karton yoki taxta bilan romlar qotiriladi.
<b>Mahobatli rangtasvir</b>	<b>Монументальная живопись</b>	<b>The monumental painting</b>	arxitektura va boshqa ko'chmaydigan inshootlarda rassomchilik san'ati. Monumental rassomlik san'atining asosiy texnikalari – qadama naqsh, freska, vitraj. Monumental rassomlik san'ati – rassomlik san'atining qadimiy turi, paleolit davridan ma'lum. Uzoq yashashi tufayli, monumental rassomlik san'ati



			asarlari deyarli barcha madaniyatlardan qolgan.
<b>Motiv</b>	<b>Мотив</b>	<b>Motive</b>	rassom tomonidan tasvir uchun tanlangan natura obekti, kamdan-kam manzara. Motiv – bog‘liqlik, rasm yoki etyudning tasvir yoki rang holatini aniqlaydi. 2) bezak san’atida – ko‘p marota takrorlanishi mumkin bo‘lgan ornament kompozitsiyasining asosiy elementi.
<b>Nyuans</b>	<b>Нюанс</b>	<b>Nuance</b>	(fran.nuance – rangdagi nozik farq) rangdagi juda nozik farq yoki nurdan soyaga juda oson o‘tish.
<b>Natyurmort</b>	<b>Натюрморт</b>	<b>Still life</b>	<i>(fransuzchadan «natyurmort» so‘zi “o‘lik narsa” degan ma‘noni anglatadi).</i> Bu tasviriy san’at janridir. Bu janr asarlarida asosan insonni o‘rap turgan buyumlar aksini topadi – ko‘zalar, vazalar, oziq-ovqat mahsulotlari, gullar va boshqa maishiy buyamlar shular jumlasidandir. <b>Ijodiy natyurmort</b> – bu rassomning insonni o‘rap turgan buyumlar aksini o‘z zamoni va

			makonidagidek qilib tasvirlashi hisoblanadi.
<b>Nisbatlar</b>	<b>Пропорсии</b>	<b>Proportions</b>	Buyumlar qismlarining bir-biriga va asosiga bo'lgan o'lchamlar munosabati
<b>Obraz</b>	<b>Образ</b>	<b>image</b>	san'atda butun borliq hodisalarini tasvirlash shakli, butun borliqni badiiy tasvirlash shakli. Tasviriy san'atda obraz fikrning aniq, yaqqol tasviri.
<b>Oltin kesim</b>	<b>Золотое сечение</b>	<b>The golden section</b>	biror bir shaklningg mutanosib tenglikda bo'linishi, bunda kichik qism katta qismga, huddi katta qism eng katta qismga bog'liq bo'lgani kabi bo'ladi. Rasm qismlari va bir butunning mutanosiblik nazariyasi ilk marotaba Uyg'onish davrida shakllangan. Son ekvivalentida oltin kesim cheksiz kasrdan iborat: 1,618033988.....
<b>Panno</b>	<b>Панно</b>	<b>Panel</b>	(fran.panneau – tekislik, lot.pannus – mato bo'lagi) 1. Belgilab olingan devor bo'lagi va tasviriy yoki haykaltaroshlik tasvirlari bilan to'ldirilgan. 2. Joyni to'ldirib turuvchi, matoda katta o'lchamdagi rasmlar.

<b>Perspektiva</b>	<b>Перспектив а</b>	<b>Perspective</b>	(fran.perspective, lot.perspicio – aniq ko‘raman), tekislikdagi katta tanalar tasviri, ularning o‘z joy tuzilishi va joylashgan o‘rni, shuningdek kuzatuvchidan uzoqligi yetkazib beriladi.
<b>Panorama</b>	<b>Панорама</b>	<b>Panorama</b>	Aylana podramnikda ishlanadigan tasmasimon asar.
<b>Plan</b>	<b>План</b>	<b>Plan</b>	tasviriy sanatta: tasvirlash masshtabi, tasvirdagi buyumlarning joylashish o‘rni.
<b>Plastika</b>	<b>Пластика</b>	<b>Plastic</b>	(yunon. Plastike – muloyim, go‘zal) -xaykaltaroshlik, bo‘rttirib xajmli turli shakllar yaratishda uyg‘unlik, ifodalilik tasvirlar yaratish san’ati.
<b>Plener</b>	<b>Пленер</b>	<b>Plener</b>	ustaxona devorlari orasida emas, ochiq havoda, tabiiy sharoitlarda ishlash. Plener atamasi odatda manzaga nisbatan qo‘llanadi, shuning rassomlik san’ati turlarining asarlarini ifodalash uchun qo‘llanadi, ko‘p qirralilik va ranglarning og‘ir munosabatlari bilan ajralib turadi.


<b>Portret</b>	<b>Портрет</b>	<b>Portrait</b>	<b>(frans. Portrait – tasvir) –</b> tasviriy san’at janri, bir va undan ortiq odam tasviri
<b>Rakurs</b>	<b>Ракурс</b>	<b>Foreshortening</b>	Buyum shaklining perspektiv qisqarishi vositasida uning doimiy ko‘rinishi o‘zgarishi; buyumning tepa yoki pastdan qaralgandagi to‘satdan berilgan qisqartmalari.
<b>Ranglavha</b>	<b>Этюд</b>	<b>Etude</b>	(frans. Etude – o‘rganib chiqish) naturani o‘rganib chiqish uchun ishlanadigan tasvir. Odatda katta san’at asari yoki haykal yasash uchun qo‘llaniladi.
<b>Rangtasvir</b>	<b>Живопис</b>	<b>Painting</b>	Tasviriy san’at turi bo‘lib, kuzatuvchining ko‘rib turgan yoki hayoliy voqelikni qalin yoki egiluvchan yuzaga bo‘yoqlar yordamida tasvir tushiriladigan tushunchadir
<b>Refleks</b>	<b>Рефлекс</b>	<b>Reflection</b>	narsaning shaxsiy va tushuvchi soyasidagi aks shu’lasi, u tevarak atrofdagi narsalarni ta’siri natijasida sodir bo‘ladi
<b>Sous</b>	<b>Соус</b>	<b>Sauce</b>	Rasm chizishga mo‘ljallangan yumshoq material bo‘lib, tarkibi loy, bo‘r elim va rangli kukunlardan iborat. Ular

			qora, och qoramtir va oq ranglarda bo'ladi.
<b>Sangina</b>	<b>Сангина</b>	<b>Sangin</b>	(fr. Sanguine , <u>lotincha</u> - sanguis) - rasm chizishga mo'ljallangan qalamcha shaklidagi yumshoq material bo'lib, tarkibi <u>kaolina</u> va <u>temir oksidlaridan</u> iborat.
<b>Tuslash</b>	<b>Растушовка</b>	<b>Stump</b>	Tasvirning aniq bir qismini soya-yorug'ini ko'rsatib berish uchun qo'llaniladigan uslub
<b>Tushuvchi soya</b>	<b>Падающий тен</b>	<b>Drop shadow</b>	Yorug'lik manbai bilan bir xil yo'nalishda joylashgan boshqa buyumning nur manbaidan yashirin tomoni maydoni.
<b>Uyg'unlik</b>	<b>Гармония</b>	<b>Harmony</b>	(grekcha so'z bo'lib, harmonia – xushbichim, umumiylik, qismlari (bo'laklari) kelishgan) – Tasviriy san'atda tasvirlanayotgan buyum shakli yoki rangning o'zaro umumiyligi, xushbichimligi.
<b>Ufq</b>	<b>Горизонт</b>	<b>Horizon</b>	(ufq tekisligi), (yunon.gorisont-cheklayman)-perspektiva nazariyasida shartli ravishda qabul qilingan tekislik, ochiq va tekis yerda ko'rinadigan qismi. Dala manzarasida yer

			bilan osmonning «tutashish» joyidan o‘tadigan chiziq gorizont chizig‘i deyiladi.
<b>Qarash nuqtasi</b>	<b>Точка обзора</b>	<b>Observation point</b>	Rasm chizuvchining joylashgan o‘rni yoki kuzatish nuqtasi
<b>Qarash burchagi</b>	<b>Угол обзора</b>	<b>Vision angle</b>	Jismning chekka nuqtalariga qarab kuzatuvchidan chiqayotgan nurlar yo‘nalishi.
<b>Shaxsiy soyasi</b>	<b>Собственная тень</b>	<b>Own shadow</b>	Predmetning bir tarafi yorug‘likda, boshqa tomoni soyada joylashganidagi paydo bo‘ladigan soY.
<b>Shakl</b>	<b>Форма</b>	<b>Form</b>	(lotincha — forma – tashqi ko‘rinish) – 1) tashqi ko‘rinish, qiyofa; 2) tasviriy san’atda forma deganda shaklning tashqi xususiyatiga aytiladi. Tasviriy san’atda badiiy forma – bu kompozitsiya tuzilishi, vositalar birligi, hamjihatligi, usuli, badiiy ashyoda amalga oshirilganligi va badiiy goya mujassamligidir.
<b>Ranglavha</b>	<b>ЭТЮД</b>	<b>Etyud</b>	(fransuzcha «etude» - o‘rganish) – hayotdan ishlangan ish. Ko‘pincha etyud mustaqil ma’no kasb etadi. Ba’zida u

			chizuvchining professional malakasini oshirishi bilan bir qatorda olamni chuqurroq va haqqoniy o‘rganishga xizmat qiladi. Shu bilan birga etyud ishlanadigan asarga ham yordamchi, ham tayyorlovchi material bo‘lib ham xizmat qiladi. Etyud yordamida rassom asar g‘oyasini aniqlaydi va mayda qismlariga ishlov beradi.
<b>Chuqurlik</b>	<b>глубина</b>	<b>Depth</b>	ranglar tonalligining yorqin yoki xiralik darajasi
<b>Shu’la</b>	<b>Блик</b>	<b>Hotspot</b>	Tasvirlanayotgan narsadagi eng yorug‘ shu’la, qism. Ayniqsa hajmli narsalarning bo‘rtirib chiqqan qismlarida shu’la yaqqol ko‘rinadi.
<b>Qoralama</b>	<b>Эскиз</b>	<b>Sketch</b>	Badiiy asar g‘oyasini belgilovchi dastlabki chizma
<b>Найм</b>	<b>объём</b>	<b>Volume</b>	Tasvirning tekislikdagi uch o‘lchamli shakli

## ILOVALAR



*Paolo Veroneze. "Venetsiya g'alabasi", taxminan 1580-1585 yillar*



*Paolo Veroneze. Xiyonat, taxminan 1565-1570 yillar*



*CH. Axmarov. Nodirabegim portreti*



*CH. Axmarov. "Yetti go'zal" asarlaridan biri*



*B. Jalolov "Raqsning tug'ilishi" kartinasi fragmenti*



*B. Jalolov. Malik Kayumov portreti*



*Leonardo Da Vinci. Kartina uchun eskizlar*



*Питер Паул Рубенс. Kartina uchun eskizlar*



*I. Ye. Repinning "Volgadagi burloqlar" kartinasiga ishlagan eskizlari*



*K. Bryullovning "Pompeyning so'ngi kuni" kartinasiga ishlagan eskizlari*



*K. Bryullov. "Pompeyning so'ngi kuni" kartinasi*



*V. Serov O.K. Orlova portreti eskizi bilan*

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maxmudov M.J. Kompozitsiyaning tarixi va rivojlanishi /Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 12 | 2022. – 403-404 b.
2. Sultanov X.E. Tasviriy san'at ta'limida klaster innovatsion yondashuvi //monografiya/ T.:“VNESHINVESTROM” MChJ, -2022. -159 б;
3. Шаляпин, О.В. Портретная живопись на художественных факультетах педагогических вузов: монография / О.В. Шаляпин. – Новосибирск: Изд. НГПУ, 2022. – 200 с.
4. Ankabaev R.T. Rangtasvir o'quv qo'llanma -T.: “Ishonchli hamkor” -2021;
5. Булатов С.С., Саипова М.С. Рамзлар. Энциклопедия. //Т.: “Фан ва технологиялар нашриёт-матбаа уйи” 2021 йил, (157-158 бетлар.) 928-бет;
6. Цирульник, Алла Николаевна Обучение живописи портрета в условиях пленэра //Монография – М.: Мир науки, 2021. -ст. 101.– Сетевое издание. Режим доступа: <https://izd-mn.com/PDF/67MNNPM20.pdf>;
7. Жумабоев Н.П. Камолиддин Бехзоднинг шарқона тасвирий санъат услуги ва асарлари таҳлили / "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020. -139-145 б.
8. Abdirasilov S.F., Tolipov N.X. “Rangtasvir”. O'quv qo'llanma “Ilm Ziyo”- Toshkent, 2019.
9. Jabborov Y. Kompozitsiya /o'quv qo'llanma –T.: “Fan va texnologiya”, 2019, 128 bet;
10. Руднев, Иван Юрьевич Композиция в изобразительном искусстве. Монография – М.: Мир науки, 2019. – ст. -9. Источник : <http://izd-mn.com/PDF/09MNNPM19.pdf>.
11. Sultanov X.E. Rangtasvir (Akvarelda natyurmort ishlash) /O'quv qo'llanma T.:“VNESHINVESTROM” MChj, 2019;
12. Xaitov Y.X. KOMPOZITSIYA O'quv qo'llanma Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2019;



13. Маматов У. Ўзбекистон маданиятида тарихий жанрдаги тасвирий санъат асарлари (XX аср иккинчи ярми - XXI аср бошлари). - Т.: 2018. - 230 б.

14. Софронов Г. А., Софронова Н. И. Особенности основных этапов выполнения обнаженной фигуры человека в технике масляной живописи // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – Т. 27. – С. 240–244. – URL: <http://e-koncept.ru/2017/574048.htm>.;

15. Frontz, Leslie. The watercolor course you've always wanted: guided lessons for beginners and experienced artists /All rights reserved. Published in the United States by Watson-Guptyll Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. Copyright © 2015 s. 69–76.;

16. Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guptyll Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. s 41.;

17. R.A.Xudayberganov. Mahobatli rangtasvir texnika va texnologiyasi. -Т.: «Fan va texnologiya», 2015, 128 bet.

1. Кравченко К.А. наброски фигуры человека (декоративно-графический образ): учебное пособие для студентов, обучающихся по направлению подготовки “Дизайн” (дизайн костюма, промышленный дизайн). – Новосибирск, 2013. – 119 с.

18. Бабенко А.В., Хоружая Н.В. Основы композиции в изобразительном искусстве : учебно-методическое пособие. – Томск : Томский государственный университет, 2011. – 116 с.

19. Nurtaev U.N. “Rangshunoslik asoslari”. O‘quv qo‘llanma. “Ilm Ziyo”, 2008.

20. Aggy Boshoff. Oil-painting Workshop. First American Edition, 2006 Published in the United States by DK Publishing, 375 Hudson Street, New York;

21. Barrington Barber. Advanced DRAWING SKILLS a course in artistic excellence. The Publishing House, Bennetts Close, Cippenham, Slough, Berkshire SL1 5AP, England.2003/s-136;

22. Paramon Edisionis, «Curso Completo de Dibujo y Pintura Artistica». SA, Barselona, Ispaniya 1992: s–127.

23. Xaytboy Eralievich Sultanov. Rangtasvir /DGU 07883, DGU 2020 0239// - 2020.

24. Булатов С.С. Соипова М.С. Мансуров У.Н. Рамзлар: тасвир ва мазмун. Т.: “Фан ва технология”, 2015, 71 бет.

25. Pol Leveyll. Emotsionalniy portret. Minsk, Popurri, 2000. 14-21 bet.

26.

27. Salpinkidi Y.P. “Rabota nad obnajennoy modelyu”. TDPU T.1996.

2. Усмонов О. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/kamoliddin> Shoyoqubov Sh. Musavvir. O‘zbekistonning bugungi miniatyura rangtasviri. - Т., 1994. 19-23 bet.

28. -behzod-1455-1535/#:

29. Y.Bahari. Bihzad. 1997. Pig. 106.

30. Yemil Yesin. Turkish miniaturePainting. I960. Pi. 2.

31. <https://artrecept.com/zhivopis/zhanry/istoricheskiy>;

32. gisap.eu;

33. <http://sites.ziyonet.uz/>- San’atga oid saytlar;

34. N. Moleva, E. Belyutin, P. P. Chistyakov teoretik i pedagog, M., Izd-vo Akademii xudojestv SSSR, 1953, str. 164.

35. Золотых М.С.Работа над портретом в условиях пленера <https://izron.ru/articles/razvitie-obrazovaniya-pedagogiki-i-psikhologii-v-sovremennom-mire-sbornik-nauchnykh-trudov-po-itogam/>;

36. <http://www.binetti.ru/content/1072#>:

37. <https://biographe.ru/znamenitosti/raffaello-sanzio>.

38. <https://allpainters.ru/santi-rafajel.html>.

39. <https://veryimportantlot.com/ru/news/obchestvo-i-lyudi/khudozhnik-paolo-veroneze-tvorchestvo-i-kartiny>.

40. <https://oyina.uz/kiril/article/55#>: ҲАКИМОВ А. Камолиддин Бехзод ва Леонардо да Винчи рақобати – ким кимдан таъсирланган?

41. <https://yuz.uz/news/kelajak-ibtidosi#>.

42. <https://uzor.uz/narodnie-ramesla/istoriya/behzad-zapadno-vostochniy-kontekst/>.

43. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Asketizm#>:

44. <https://artforintrovert.ru/tpost/vlzu4ytl4c-tanets-anri-matissa-razbor-kartini#>:

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. // Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиликлар сари. – Т.: Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019-йил 8-октябрдаги ПФ-5847-сон Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030-йилгача ривожлантириш концепцияси // Қонун ҳужжатлари маълумоти миллий базаси, 09.10.2019-й., 06/19/5847/3887-сон; 30.04.2020-й., 06/20/5987/0521-сон; Қонунчилик маълумоти миллий базаси, 09.11.2021-й., 06/21/3/1037-сон, 18.03.2022-й., 06/22/89/0227-сон.

5. Қонун ҳужжатлари маълумоти миллий базаси, 09.10.2019-й., 06/19/5847/3887-сон; 30.04.2020-й., 06/20/5987/0521-сон; Қонунчилик маълумоти миллий базаси, 09.11.2021-й., 06/21/3/1037-сон, 18.03.2022-й., 06/22/89/0227-сон.

1. Қонун ҳужжатлари маълумоти миллий базаси, 22.04.2020 й., 07/20/4688/0475-сон; Қонунчилик маълумоти миллий базаси, 09.11.2021 й., 06/21/3/1037-сон.

## **Elektron ta'lim resurslari**

1. <http://cspi.uz/uz>
2. <http://lib.cspi.uz/>
3. <http://widget.ziyonet.uz>
4. <http://natlib.uz/>

**Sultanov X.E.**

**TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYASI  
o'quv qo'llanma**

**70111201 – Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati mutaxassisligi  
bo'yicha magistraturaga ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan**

Muharrir:	X. Taxirov
Tehnik muharrir:	S. Melikuziva
Musahhih:	M. Yunusova
Sahifalovchi:	A.Ziyamuhamedov

**Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й**

Bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. "Times new roman" garniturasida, kegli 14.

Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'I 17,75. Adadi 100 dona.  
Buyurtma № 195

**Zebo prints MCHJda chop etildi.**

Manzil: Toshkent shahar, Yashnobod tumani,  
22-harbiy shaharcha